

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
O`ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGI KAFEDRASI**

Qo`lyozma huquqida

UDK

**BITIRUVCHI KURS MAGISTRANTI
FOZILOVA MOHIGUL FARXODOVNAning**

**« ALISHER NAVOIYNING ”SITTAI ZARURIYA” QASIDALAR
TURKUMINING O`RGANILISHI VA TALQINLARI»**

mavzusidagi

*5A 120101 – Adabiyotshunoslik (o`zbek adabiyoti) yo`nalishida magistr akademik
darajasini olish uchun yozgan*

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

(2016-2017- o`quv yili)

Ilmiy rahbar

filologiya fanlari nomzodi, dots.

Bekova N.J.

Buxoro – 2015

Mundarija

Kirish.....	2-6
Ibob“Sittai zaruriya”ning o’rganilish tarixidan.....	7-42
I.01. Sharq qasidachilik tamoyillari va “Sittai zaruriya”.....	7-13
I.02. “Sittai zaruriya”ning istiqlolgacha o’rganilishi.....	14-25
I.03. Mustaqillik yillarida “Sittai zaruriya”ning o’rganilishi :	
ta’riflar, talqinlar.....	25-42
II bob “Sittai zaruriya” ning g’oyaviy – badiiy asoslari va o’ziga xosligi.....	43-65
II.01. “Sittai zaruriya”da ilohiy- islohiy sarchashmalar.....	43-55
II.02. “Sittai zaruriya va adabiy manbalar.....	55-60
II.03. “Sittai zaruriya”: ma’rifat tili bila haqiqat.....	60-65
III bob“Sittai zaruriya”dagi irfoniy ma’nolarining talqinlari....	65-99
III.01. “Sittai zaruriya”da faqr va faqrlik.....	65-70
III.02. Qasidalar turkumida qazo va qadar talqini.....	70-78
III.03. Asarda “zulmoniy nafs” badiiy tasvir.....	78-81
III.04. Qanoat , shukr, tavakkul, rizing badiiy talqini.....	81-99
Xulosa.....	100-101
Foydalanilgan adabiyotlar.....	102-106

**Alisher Navoiy “Sittai zaruriya” qasidalar turkumining o’rganilishi
va talqinlari**

Reja:

Kirish

I bob

“Sittai zaruriya”ning o’rganilish tarixidan

I.02. Sharq qasidachilik tamoyillari va “Sittai zaruriya”

II.02. “Sittai zaruriya”ning istiqlolgacha o’rganilishi

**III.03. Mustaqillik yillarida “Sittai zaruriya”ning o’rganilishi :
ta’riflar, talqinlar**

II bob

“Sittai zaruriya” ning g’oyaviy – badiiy asoslari va o’ziga xosligi

II.01. “Sittai zaruriya”da ilohiy- islohiy sarchashmalar

II.02. “Sittai zaruriya va adabiy manbalar

II.03. “Sittai zaruriya”: ma’rifat tili bila haqiqat

III bob

“Sittai zaruriya”dagi irfoniy ma’nolarining talqinlari

III.01. “Sittai zaruriya”da faqr va faqrlik

III.02. Qasidalar turkumida qazo va qadar talqini

III.03. Asarda “zulmoniy nafs” badiiy tasvir

III.04. Qanoat , shukr, tavakkul, rizoning badiiy talqini

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar.

Kirish

Mavzuning o'rganilish darajasi va dolzarbligi. Milliy istiqlolgacha Sharq, jumladan, o'zbek mumtoz adabiyoti sho'rolar mafkurasi tazyiqi ostida "dunyoviy adabiyot", "feodal-saroy (klerikal) adabiyoti", "diniy-mistik adabiyot» tarzida sun'iy ravishda uch guruhga parchalangan edi. Mazkur yo'nalishlardan faqat dunyoviy (xalqchil) adabiyotgina ijobiy hodisa sifatida tan olindi va o'rganildi. hatto shu dunyoviy adabiyot vakillarining ijod namunalari ham ilohiy-irfoniy g'oyalardan "tozalanib", markscha-lenincha mafkura tamoyillari asosida tahlil va talqin qilindi.

Shunga ko'ra, Alisher Navoiyning "Devon"lari, "Xamsa" dostonlari ibtidosida kelgan kirish boblar – hamd, na't, sano, me'roj, munojot talqiniga atalgan maxsus parchalar, nasriy asarlari, ilohiy-irfoniy g'oyalar, ilohiy tavhid madh etilgan "Sittai zaruriya" qasidasi, ilohiy-islomiy hukmlar talqiniga bag'ishlangan "Siroj ul-muslimin", "Munojot" kabi asarlari, ilohiyotga doir qarashlari maxsus tadqiq etilmadi. hatto asarlari tarkibidagi kirish hamdlar "qirqib", nashr etildi. Shuning uchun bugunga qadar ulug' shoirning hamd, na't, irfoniy yo'nalishidagi asarlari nisbatan kam o'rganildi.

Bu masalaning o'z izohlari borligi ayon, albatta. Alisher Navoiyning hamd g'azallari "uning lirikasidagi o'tkinchi va tobe' bir kayfiyat" sifatida e'tirof etildi. Taniqli adabiyotshunos olim Maqsud Shayxzoda hazrat Navoiyning hamd g'azallarini mafkura tazyiqlari (dahriy tuzum uchun zararli ma'naviy unsur sifatida butunlay yo'qotib yuborilishi)dan saqlab qolish maqsadida atayin shunday baholashni lozim deb topgan .

Shunday bo'lishiga qaramay, Alisher Navoiy ijodining ilohiy-irfoniy manbalardan oziqlanganligi e'tirof etilgan edi. Bu ayniqsa, E.E.Bertels, Oybek,

A.Rustamov, H.Sulaymon, A.hayitmetov, B.Valixo'jaev, N.Komilova, R.Vohidov, S.G'anieva, H.Ne'matov, I.Haqqulov, E.Shodiev, Yo.Ishoqov va yana bir qator olimlarning ishlarida yorqin ko'zga tashlanadi. "Sittai zaruriya" qasidalar turkumi esa shoirning kam o'rganilgan asarlari sirasiga kiradi."Sittai zaruriya"ga bo'lgan qiziqish asrimizning 60-yillaridan jonlana boshladi.

Forsiyda bitilgan, 724 baytdan iborat "Sittai zaruriya" ("Olti zarurat") ning to'la matnini professor Hamid Sulaymon ulug' shoirning Parij Milliy kutubxonasida 285-raqami ostida saqlanayotgan qo'lyozma devoni asosida arabiy va krill imlosida 1968 yilda "Adabiy meros" majmuasida nashr ettirdi.

Oradan yigirma besh yil o'tgach, bu yo'lni tojik adabiyotshunosi Ali Muhammadiy davom ettirdi, ya'ni qasidalar turkumi Dushanbeda (1993 yil) arab yozuvida "Irfon" nashriyotida ulug' o'zbek shoiri forsiy she'rlar bir jildlik saylanmasi tarkibida chop etildi . Bu qasidalar turkumi 70-yillarda madaniy merosga lenincha munosabat tamoyillari nuqtai nazaridan o'rganilganki, bunday munosabat asar tub mohiyatini ochish imkonini bermagan.

M.Qodirovaning "Alisher Foni qasidalari" mavzuidagi nomzodlik dissertastiyasi sobiq mafkura davrida ayni mavzuda yaratilgan ilk yaxlit tadqiqot sanaladi. Tadqiqotchining dissertastiyasidagi mana bu fikrlar ham bizning yuqoridagi ta'kidimizni to'la quvvatlaydi: "... o'sha davrning vakili bo'lgan Navoiyning har bir narsaga ham diniy-falsafiy munosabatda bo'lishi tabiiy bir hol edi. Chunki feodal jamiyatiga xos bo'lgan sostial haqsizlik, shoir atrofidagi ommaning qashshoqligi, ko'pincha, unda diniy tafakkur va tushkunlik holatini kuchaytirmasligi mumkin emasdi, albatta. Navoiydagi bunday holat, Leninning ta'biri bilan aytganda, yomonlikning tub sababini tushunmaslik va undan qutulish yo'lini to'g'ri ko'rolmaslikning natijasidir" . Masala ravshan, qizil mafkura qurshovidagi fanning bundan oshirib bir nima deyishi dushvor edi. Biroq XX asrning oxirgi yillariga kelib vaziyat yumshay boshladi. Parchalanish oldida turgan sobiq ittifoq mafkura jilovini qo'ldan chiqardi. haq gapni aytish harakati boshlandi.

Mustaqillik adabiy merosimizni yangicha yo'nalishda o'rganish istiqbollarini ochib berdi. Zero, Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek: "Biz ma'naviy qadriyatlarni

tiklashni milliy o'zlikni anglashning o'sishidan, xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy tabiiy jarayon hisoblaymiz".

Milliy o'zlikni anglash, umuminsoniy qadriyatlarni ulug'lash esa mustaqil yurtning barkamol avlodiga yuksak ma'naviy ruh bag'ishlaydi. Shuning uchun mustaqil jamiyatimizda barkamol avlod (shaxsni shakllantirish) tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan jiddiy masala sifatida qayta-qayta e'tirof etilmoqda.

Alisher Navoiyning "Sittai zaruriya" qasidasilar turkumida ham xuddi ana shu yuksak g'oyalar badiiy ifodasini topadi. Istiqloldan so'ng mumtoz adabiyotning tayanch g'oyaviy manbalari asosida asarlarning islomiy-irfoniy ma'no qirralari kashf etila boshlandi. "Alisher Navoiyning adabiy mahorati masalalari" nomli maqolalar to'plami nashr etildi. Shoirning ilohiyotga doir munosabati va asarlari haqida yangicha talqindagi birinchi yaxlit risola navoiyshunos Rahim Vohidovning "Alisher Navoiy va ilohiyot" kitobi o'quvchilar qo'liga tegdi. R.Vohidov va M.Mahmudovlarning "Ma'naviyat – komillik saodati" risolasida Alisher Navoiyning nisbatan kam o'rganilgan "Sittai zaruriya", "Fusuli arbaa" qasidalar turkumining g'oya va mavzular olami xususida jiddiy mulohazalar bildirildi. Prof. R.Vohidovning "Sittai zaruriyada tatabbu'" maqolasida mazkur turkumning g'oyaviy ildizlari tatabbuchilik an'anasi, qasidalarining yozilish tarixi haqida keng ma'lumot beriladi. Prof. Najmiddin Komilovning "Faqr nuri porlagan qalb" risolasida "Sittai zaruriya" tarkibidagi qasidalar, ularning badiiyati, tatabbuchilik an'anasi xususida qiziqarli fikrlarni o'qish mumkin. Adabiyotshunos N.Bekovanning "Alisher Navoiyning hamd g'azallari va "Ruh ul- quds" qasidasining badiiyati" nomli nomzodlik ishida ham mazkur mavzuga doir asomli fikrlar bildirilgan.

Qayd etilgan ilmiy izlanishlarning aksariyatida Alisher Navoiyning "Sittai zaruriya" asari xususida fikr bildirilgan bo'lsa-da, o'zbek adabiyotshunosligida bu borada yaxlit tadqiqot vujudga kelmagan. "Sittai zaruriya" qasidalar turkumining g'oyaviy-badiiy talqinini ilmiy o'rganishga bag'ishlangan mazkur yaxlit tadqiqotning ilk marta amalga oshirilayotganligi uning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Alisher Navoiyning "Sittai zaruriya" qasidalar turkumini ilohiy-islomiy va adabiy manbalar bilan qiyosan o'rganish, vahdat ul-vujud ta'limotining asosiy masalasi Zot-sifat, Alloh-olam, Alloh - inson munosabatlari aks etgan talqinlarni keng g'oyaviy-badiiy tahlil qilish, teran ilmiy yoritish tadqiqotning asosiy maqsadi sifatida tanlandi. Ishda quyidagi vazifalarni bajarishga harakat qilinadi:

– Alisher Navoiy ijodida hamdga murojaatning ilmiy adabiyotda o'rganilishini ilmiy tahlil etish;

– " Sittai zaruriya" qasidalar turkumida ruhiy-ma'naviy kamolot bosqichlarining talqinini qiyosan o'rganish;

– Olam va inson sir-u sinoatining ilohiy tavhid, Olloh qudratu azimatini madh etish bilan yonma-yon qo'llanilishidan ko'zlangan maqsad va ularning ijodkor ilgari surgan g'oyaga xizmat etishini ilmiy umumlashtirish;

– " Sittai zaruriya "ning Sharq qasidachiligi tamoyillariga nechog'lik mos kelishi, ulug' shoirning ijodiylik masalalarini oydinlashtirish;

– Qasidalarining etakchi mavzuini tashkil etuvchi Komil inson madhini tasvirlashda yil fasllari, gul timsollari, osmon jismlarining aloqadorlik va bog'liqlik mohiyatini aks ettiruvchi hamda badiiy vosita vazifasini ado etganligini qator badiiy parchalar yordamida yoritish;

– Qasidalarda qo'llangan poetik san'atlarning asar badiiyatini oshirishdagi o'rni belgilashga urinish va uning talqinlarini o'rganishdan.

Tadqiqot manbai. Tadqiqotning asosiy manbaini Alisher Navoiyning "Devoni Foni" tarkibidagi hamd yo'nalishidagi g'azallar, "Sittai zaruriya"ning prof. hamid Sulaymon va Ali Muhammadiy nashri matni tashkil etadi. Shuningdek, Qur'oni karim, hadislar, Alisher Navoiyning o'zbek tilidagi adabiy merosi, Yusuf Xos hojib, Fariduddin Attor, Nizomiy Ganjaviy, Nosir Xusrav, hofiz Sheroziy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiyning nodir ilmiy-badiiy asarlaridan ham foydalanildi.

Tadqiqotning nazariy-usuliy asosi. Milliy istiqlol mafkurasi, Prezident I.A.Karimovning mumtoz adabiyot, xususan, Alisher Navoiy merosiga doir dono ko'rsatmalari, mumtoz she'rshunoslar Shayx Ahmad Taroziy, A.Fitrat, M.Shayxzoda, I.Sulton, N.Mallaev, A.Hayitmetov, B.Valixo'jaev, A.Abdug'afurov, A.Rustamov, A.hojiahmedov, N.Komilov, R.Vohidov, I.Haqqulov, E.Shodiyev, Yo.Ishoqov, S.Hasanov va turk olimlari Abdurahmon Go'zal, Usmon Keski o'g'li, Usmon Turarning badiiyat, tasavvuf falsafasi va qasidachilikka oid qarashlari dissertatsiya uchun tayanch ilmiy-nazariy asos bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ilohiy tavhid ilmining badiiy tafakkurga ta'siri jarayonini kuzatish asosida hamd yo'nalishidagi asarlarga xos qiyosiy-tipologik xususiyatlarni oydinlashtirish hamda umumlashtirish zamirida ma'lum nazariy xulosalarga kelish imkoniyatini kengaytiradi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi “Sittai zaruriya”ning o'rganilish tarixini tadrijiy yoritish ,ilmiy talqinlarning mohiyatini yoritish,olimlarning mazkur sohadagi ishlarning adabiyotshunoslikda tutgan o'rniga baho berish.

Tadqiqotning joriylanishi. Ish Buxoro Davlat universiteti o'zbek filologiyasi kafedrasida yig'ilishida ma'qullangan.

Tadqiqotning tarkibi. Ish o'z mazmun-mundarijasiga muvofiq keluvchi kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I bob

“Sittai zaruriya”ning o'rganilish tarixidan.

I.01. Sharq qasidachilik tamoyillari va “Sittai zaruriya”

Ma'lumki, qasida sharq mumtoz poeziyasida asosiy o'rinni egallaydi. Qasida dastlab arab adabiyotida vujudga kelgan va o'z rivojlanish bosqichida turli

maktablarga, mazmunga ega bo'lgan. Musulmon mintaqa adabiyotida Rudakiy, Nosir Xusrav, Mas'ud Sa'd Salmon., Mujiriddin Baylaqoniy, Abu Nizom Falakiy Shervoniy, Sobir Termiziy, Daqiqiy, Nosir Xusrav, Anvari, Xoqoniy, Sanoiy, Tufayliy, Unsuriy, Farruhiy, Shayx Sa'diy, Amir Xusrav, Dehlaviy, Sakkokiy, Lutfiy, Sayfi Saroyi, Gadoiy kabilar qasida janrlarini rivojlantirish va takomillashtirishga munosib hissa qo'shdilar. Bu janrning paydo bo'lishi, takomillashuvi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, formal poetik tomonlari haqida bir qancha olimlarning maqola va tadqiqotlari mavjud.¹

Qasida va qasidanavislar haqidagi ma'lumotlarni atroflicha mushohada qilish quyidagi fikr-mulohazalarga kelish imkonini beradi. Bizningcha, qasidachilikni faqatgina madhiyabozlikdan iborat deyish masalaga bir yoqlama qarashday ko'rinadi. Negaki, qasida muallifning oddiygina hayajoni, ichki kechinmalari, his-tuyg'usi ifodalangan she'r bo'libgina qolmay, balki unda muayyan iste'dod sohibi, ulkan allomaning ziddiyatlardan xoli bo'lmagan tafakkuri, dunyoqarashi, hayot, inson, yashashdan maqsad singari ko'lamdor mavzular atrofidagi mulohaza munosabati, falsafiy-ilohiy, irfoniy, axloqiy, ma'naviy-ta'limiy qarashlari u yoki bu darajada aks etadi. Masalaga yangidan yondashgan har bir tadqiqotchining yuqorida keltirganimiz tasnifotga o'z tahririni kiritishi muqarrar.

Qasidalarini mavzusiga ko'ra quyidagicha tasnif qilingan.[10,72].

1. Madh mazmunidagi qasidalar quyidagilar: madhiya (ulug' kishilar yoki ularning ishlarini madh qiluvchi bag'ishlovlar), faxriya (shoirning ijtimoiy hayotda tutgan o'rnidan faxrlanib, o'zini madh etishi), hamd (diniy-falsafiy mushohada

¹ Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика.- Тошкент: Фан, 1992, 155-бет. Анисий А. Шарк адабиётида қасида жанри ва Бадри Чочий || Ўзбек тили ва адабиёти, - 1970, 4-сон, 22-27-бетлар.

Бахоуддинов А.М. Очерк истории таджикской философии. Сталинабад, 1961, 193-стр.

Бертельс Е.Э. Избранные труды. История персидско-таджикской литературы. -Москва: ИВЛ, 1960, 38-стр.

Қошғарий Маҳмуд. Девону луғотит-турк. Уч томлик. III том. -Тошкент: ЎЗР ФА, 1963, 214-бет.

Крачковский И.Ю. Избранные сочинения. Том II. -Москва: Наука, 1958. 232-стр.

Мухаммад ғиёсиддин. Ғиёс ул-луғат. Жилди 2. -Душанбе: Адиб, 1988, 136-сах.

Муминов И. Философские взгляды Мирзи Бедия. -Ташкент, 1957, 12-стр.

yo'nalishidagi ilohiyot madhi), na't (Muhammad payg'ambarga bag'ishlangan diniy mazmundagi an'anaviy madhiyalar).

2. Munojot (Olloh va payg'ambarga bag'ishlab yozilgan diniy mazmundagi iltijo ohangidagi qasidalar).

3. Falsafiy qasidalar (siyosiy-ijtimoiy va falsafiy-tarbiyaviy yo'nalishdagi so'fiyona mazmunga ega bo'lgan qasidalar).

4. Tavsifiy qasidalar mazmuniga ko'ra quyidagicha turlarga bo'linadi: bahoriya (bahor mavsumi, tabiat manzarasining tavsifi); holiya (shoir o'z ahvolining bayoni), ishqiya (muhabbat mazmunida), xamriya (may haqida).

5. Marsiya (biror shaxsning vafoti munosabati bilan yozilgan motam mazmunidagi qasidalar).

6. Masnu' qasidalar (E.E.Bertelsning tasnifiga ko'ra "iskussnie"- "san'atlangan" qasidalar)².

7. Hajviya (tanqidiy mazmundagi qasidalar).

Qasidaga xos bo'lgan an'anaviy unsurlarga har bir so'z san'atkorining ijodiy yondashgani, unga o'zicha sayqal bergani shak-shubhadan xolidir. Mazkur fikr "Sittai zaruriya" va uning muallifiga ham tegishlidir. Alisher Navoiyning she'riy asarlari ulug' shoirning o'z e'tirofiga ko'ra, chinakam ma'nolar xazinasidir. Shoir durdonalarida majoziy va ilohiy ishq, falsafiy va ijtimoiy mazmun, madh va o'zini Ollohning mislsiz qudrati oldida faqr, notavon deb bilish kabi xilma-xil jilolar doimo qorishiq holda keladi. Shuning uchun shoir asarlariga hech qachon bir tomonlama qaramasligimiz, ularni bir nuqtada turib baholamasligimiz joiz. O'zbek mumtoz adabiyotining bobokaloni Mir Alisher Navoiy fors tilida ham so'z dodini bergan mumtoz san'atkor edi. Ikki tilda barobar ijod qilib, Benazir san'at ko'rsatish va Abdurahmon Jomiy singari ustozlar tahsiniga sazovor bo'lish Navoiy nomini yana ham mahjub va ulug'vor qilgan edi. Uning "Foniy" taxallusi bilan yaratgan

² Бертельс Е.Э. Избранные труды. История персидско - таджикской литературы. М.: ИВЛ, 1960, С.38.

g`azal, qasida, ruboiy va marsiyalari nafaqat badiiy so`z ustalari, shoir-u fozillar, balki tojikzabon xalq orasida ham shuhrat qozongan. Shu bois Navoiy bu she`rlarni yig`ib, “Devoni Foniyy” nomi bilan alohida kitob qilib tuzgan edi. Navoiy aynan forsiy asarlari bilan Xo`ja Hofiz, Sa`diy She`roziy, Xoqoniy Shirvoniy, Anvariyy, Salmon Sovajiy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy erishgan yuksak ijodiy cho`qqilarni zabt etib, bunda Sharq she`riyati iqlimlarini “yakqalam” qiluvchi bemisl iste`dodini namoyish eta oldi. Bu esa Navoiy adabiy me`rosining jahonshumul ahamiyatini ko`rsatuvchi dalillardan biridir.

Navoiy esa fors tilida oltita ana shunday talablarga javob beruvchi, so`z durlaridan tizilgan qasidani yozgan. Bu qasidalarning har biriga shoir quyidagicha nom qo`ygan: “Ruhul quds” (“Muqaddas ruh”), “Aynul hayot” (“Hayot chashmasi”), “Tuhfatul afkor” (“Fikrlar tuhfasini”), “Qutul qulub” (“Qalblar quvvati”), “Minhojun najot” (“Najot yo`li”), “Nasimul xuld” (“Jannat shabadasi”). Bu olti qasidani jamlab, hammasini “Sittai zaruriya” (“Olti zaruriy qasida”) deb nomlaydi.

Hajmiga ko`ra qasidalar turlicha: “Ruhul quds” 132 bayt, “Aynul hayot” 106 bayt, “Tuhfatul afkor” 99 bayt, “Qutul qulub” 120 bayt, “Minhojun najot” 138 bayt, “Nasimul xuld” esa 129 baytdan iborat bo`lib, jami 724 baytdir.

Bu olti qasidadan tashqari Foniyy “Fusuli arbaa” (“To`rt fasl”) nomi bilan yana to`rtta forsiy qasida yozib, ularda yil fasllarining har biriga xos xususiyat va buning inson ruhiyatiga ta`sirini tasvirlagan. “Fusuli arbaa” qasidalari va “Nasimul xuld” qasidasi Husayn Boyqaroga bag`ishlangan, “Tuhfatul afkor” esa hazrati Nuran-Abdurahmon Jomiyga bag`ishlangan.

Shunday qilib, Navoiy-Foniyy o`nta forsiy qasida muallifidir. Shoir “Sittai zaruriya”ning muqaddimasida biz uchun muhim bo`lgan yana bir xabarni keltiradi: ma`lum bo`lishicha, ushbu turkum qasidalardan “Tuhfatul afkor” qasidasi birinchi yozilgan bo`lib, ta`lif tarixi 1476

sanasidir, qolgan besh qasida esa Jomiy vafotidan keyin(u 1493-yilda vafot etgan), 1494-1497 yillar orasida yozilgan. “Tuhfatul afkor” qasidasi (“Yavmi jame`, shahri rajab”) va “Ruhul quds”(“Ajab” naboshat tarixash az “hisobi qazo”) tarix moddasi qo`yilgan. “Yavmi jame` shahri rajab” abjad hisobida 880 (1446), “hisobi qazo” so`zlari miqdoridan “ajab” so`zining son miqdori chiqarib tashlansa, 899 (1494) kelib chiqadi. Shunday qilib “Ruhul quds” qasidasi 1494-yilda yozilgan bo`lib chiqadi. Boshqa qasidalarga tarix qo`yilmagan. Faqat muqaddimada “Sittai zaruriya” 1497-yilda tartib berilgani ko`rsatilgan. Demak, Navoiy besh forsiy qasidani 1494-1497-yillar orlig`ida yozgani aniq bo`ladi.

“Sittai zaruriya” qasidalarini yozishga Navoiyni avval ustoz Jomiy, ul zot vafotidan keyin Sulton Husayn Boyqaro undaganlar. Buni shoir “Sittai zaruriya” qasidasida qayd etgan.

Xullas, olti qasidaning hammasi vobastamavzularda yaratilgan bo`lib, bunda bo`g`lovchi bosh mavzu—ilohiyot va ilohiyotga yaqinlashtiruvchi Komillik tariqati haqidagi g`oyalardir. Shu asosda “Sittai zaruriya” yaxlit bir turkum asarlar qiyofasini olgan. Navoiyning o`zi ham buni”Muhokamat ul-lug`atayn” asarida qayd etadi:”Bu olti qasida hamd-u na`t va sano-u mav`izatdur (nasihatdur) va ahli tasavvuf va tariqat tili bila ma`rifat”bayon etilibdir.

Qasida yozishning qiyinchiligi bu janrning qat`iy qofiyalash talabi hamdir. Deylik, agar qasida 129 bayt bo`lsa, bu 130 qofiyadosh so`zlarning bayt ma`nolari va umuman asar mazmuniga muvofiq bo`lib kelishidir. Qofiya so`zlar agar takror bo`lsa ham, ammo boshqa-boshqa ma`nolarda kelishi ko`zda tutilgan. Masalan, “Tuhfatul afkor”da 100 ta qofiyadan 4 tasi takrorlangan, chunonchi “sar”—4 marta, “bar”—3 marta, “dar” va “rahbar” 2 martadan qaytariladi. Biroq bu so`zlar har gal yangi ma`nolarda qo`llanganki, bu takror deyarli sezilmaydi. Chunonchi

“sar” soʻzi (bosh)-- bosh ogʻrigʻi, boshida, chayonning boshi, boshdadir maʼnolarni ifodalab qofiya boʻlib kelgan.

Olti qasidada aruzning uch vazni qoʻllangan:”Ruhul quds” va “Qutul qulub”qasidalarini hazaji musammani mahfuz bahrida, “Aynul hayot” va “Tuhfatul afkor” ramali musammani maqsur, “Minhojun najot” va “Nasimul xuld” qasidalarini hazaji musammani maqsur bahrida yozilgan. Bu har bir qasidaga xos alohida salobatli marom va ohangni yuzaga keltirishga xizmat qilgan.

Shu kabi qasidalarda boshqa qasidalardan farq qiluvchi badiiy sanʼatlar qoʻllash ham koʻzga tashlandi. Bunday tafakkuriy qasidalar, albatta, keng omma uchun emas, balki soʻz sanʼatini yuksak anglagan, soʻfiyona-orifona islohotlar maʼnosini yaxshi tushunadigan, keng maʼlumotli odamlarga moʻljallab yozilardi. Daqiq maʼnoni anglash uchun diqqat qiladigan nigoh, chuqur gʻoyalardan zavqlanadigan qalb kerak boʻladi. Navoiy qasidalarini ham ancha diqqatlabdir. Ular, avvalo, fikrga, keyin qalbgaga taʼsir etadi, boshqacha aytganda, shoir islohlari maʼnosi, gʻoyalari yoʻnalishini anglamagan odam undan zavqlana olmaydi. Masalan, “Ruhul quds” qasidasidagi mana bu baytni olaylik:

Chu gasht mazhari kull, baʼd az on laqab dodash,
Miyoni moxalaqulloh olami kubaro.[29,198].

(Kull mazhariga aylangach, unga yaratilgan narsalar orasida olami kubaro(yoki kubro) deb nom berding.)

Bu bayt maʼnosini anglash uchun “mazhar”, “kull”, “olami kubaro”, “moxalaqulloh” kabi falsafiy islohlari maʼnosini bilish lozim. Yaʼni:”mazhari kull”—bu olam voqea-hodisalari, Ilohning qudratini oʻzida aks etgan Komil inson – Odam Ato. Parvardigor oʻz ilmidan uni xabardor etdi, ismlarni, mohiyatlarni oʻrgatdi,oʻz maʼrifatidan bahramand qildi. Natijada, Odam ulugʻ olam(olami kubro)gat eng boʻldi. Bu erda “kull”—umumiy, jamiyki degan maʼnolarni, “mazhar”—aks

ettiruvchi degan ma`nolarni anglatib keladi. “Moxalaqulloh”—nimaniki Alloh yaratgan bo`lsa demakdir.

Qasidalarga, shunday qilib, O`rta asrlar Musulmon sharqi erishgan falsafiy, irfoniy, ilohiy tushunchalar, Qur`on hikmati va hadislar mazmuni chuqur aks etgan. Navoiy buning ustiga, fors tilidagi juda qadimiy nodir so`zlar, turli ilmlarga oid islohlarni qo`llaydi. O`quvchi bu islohlarning o`zinigina emas, shu isloklar bilan tuzilgan so`z o`yinlari, badiiy san`atlarni ham bemalol ilg`ab olsa, shoir mahoratining naqadar baland ekaniga guvoh bo`ladi.

“Ruhul quds”dagi burjlar tasviridan:

Ba burji Aqrab ba junbish ovardi,

Chu kajdume, ki kunat xona dar qadim bino.

Farozi burji digar soxti kamonxona,

Ki charx tiri balo afkanad so`yi dunyo.

Zi zaxmi novaki o` Jaddiro ramonidy,

Ki jast chun buzi ko`hi ba avj az on paydo.[29,206].

(Boshqa burjda Aqrab—Chayonni qimirlatding, eski imorat ostiga uya qo`ygan chayonday u qo`zg`aldi. Boshqa burj osmonini kamonxona—Kamon(Yoy) turadigan joy qilding, toki falak undan foydalanib, dunyoga balo o`qini yog`dirsini deb. Shu Yoy o`qi yarasi bilan Echki(burji)ni haydading, u esa xuddi tog` echkisiday sakrab u yerdan ko`rindi).

Navoiy bu baytlarda Allohning qudratini ta`rif va tavsif etmoqda. Ammo bu ta`riflar quruq bayon emas, balki shoirona obrazli tasvirlar bilan beriladi. Burjlarning nomi bilan ularning xalq tasavvuridagi xosiyatlari va yerdagi voqealar birga olinib so`z o`yinlari, chiroyli tashbehtar hosil qilingan. Shoir uchun osmon jismlari ham obraz, jonli mavjudotday tasvir mavzuidir. Shunisi ham borki, qasidalarning san`atlari, tasviriy vositalari har birida o`zgacha va ular umumiy mazmunga uyg`un.

Shoirning keng qamrovli nigohi, olam va odamning bir butunlikda olib qarashi uning qasidalarida ham yaqqol izini qoldirgan. Ulug` san`atkorlarning hammasida bo`lganiday, Navoiy ham yaxlitlik va butunlik qoidasiga, izchil fikriy-shuuriy tizimga amal qilib, so`z qasrini bunyod etgan. Olti qasidani, agar o`xshatish joiz bo`lsa, bemalol mustahkam poydevorli, naqsh-u koshinlari har xil, ammo bu uslubda yaratilgan olti oshyonli ulkan binoga qiyos qilish mumkin. Har bir oshyon—bir hayrat xonasi, tavajjuh va tafakkur, taxayyul va tasvir hayrati.

“Sittai zaruriya” qasidalarini “Devoni Foniyy”ga kiradi. Ustoz Hamid Sulaymon devonning Parij va Istanbul nusxalari asosida ushbu qasidalarini 1968-yilda “Adabiy me`ros” majmuasining 1-sonida arabiy va kirillitsada nashr ettirdi (“Tuhfatul afkor” Navoiy asarlari 15 jildligining 5-jildi ikkinchi kitobida 1965-yilda nashr bo`lgan edi). Qasidalar shundan keyin Dushanbeda 1993-yili arab yozuvida “Irfon” nashriyoti tomonidan “Devoni Foniyy” tarkibida chop etilgan.

“Devoni Foniyy” haqida H.Sulaymon, A.Mirzoyev, Y.Is`hoqov, Sh.Shomammedov, E.Shodiyev, B.Valixo`jayev, R.Vohidov, N.Mallayev, Ali muhammadiy, Sh.Shukurov kabi olimlar fikr bayon etdilar. Aytish joizki, ko`proq tatabbu` Navoiy hamda Hofiz masalasi olimlar diqqatini jalb etgan.

I.02. “Sittai zaruriya”ning istiqlolgacha o`rganilishi

Ammo “Sittai zaruriya” qasidalarini M.Qodirovaning “Aynul hayot” qasidasiga bag`ishlangan maqolasini (“Adabiy me`ros”, 1-kitob, 109-112-betlar) hamda “Tuhfatul afkor” haqidagi umumiy fikrlarni istisno etganda, jiddiy bir tahlil qilinmay keldi. M.Qodirova maqolasiga kelsak, muallif sho`ro olimlarining tasavvuf haqidagi chala va nopisand qarashlari doirasidan tashqari chiqmaganligi, Navoiy niyatini yetarli anglamagani ko`rinib turadi. Modomiki, shoirning forsiy ash`ori uning

adabiy merosining ajralmas qismi ekan, bu asarlar diqqat bilan o`rganilishi zarur deb hisoblaymiz. Shularni nazarda tutib, biz "Sittayi zaruriya" qasidalarini alohida-alohida ko`zdan kechirib tahlil etishni lozim topdik.

"Sittai zaruriya" tarkibidagi har bir she'r mustaqil, ayni paytda yaxlit ma'no zanjiriga ega qasidalar turkumidir. "Sittai zaruriya" da musulmon mintaqa xalqlari adabiyotida shakllangan qasidachilik an'anasining barcha talablari o'zining ijodiy tajassumini topgan. Shuni nazarda tutib, turkum tarkibidagi har bir qasida alohida-alohida ilmiy tadqiqot manbai sifatida o`rganilmoqda.

"Qasidai "Ruh ul-qudsi" tavhidi Bori taolo" asarida ilohiy tavhid mohiyati tasavvufning vahdat ul-vujud ta'limoti asosida talqin etilgan. Hazrat Navoiyning o'zi ham buni "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida qayd etgan: "Bu olti qasida hamd va na't va sano mav'izatdur va ahli tasavvuf va haqiqat tili bila ma'rifat"³.

"Ruh ul-quds"—"Sittai zaruriya" turkumidagi birinchi qasida bo'lib, 132 baytdan iborat. qasidaning to'liq nomi "Qasidai "Ruh ul-quds"i tavhidi Bori taolo" ("Bori taolo tavhidi haqida "Ruh ul-quds" qasidasi")dir va Olloh taolo tavhidining ma'rifiy- badiiy tasviriga bag'ishlangan. Bunda Navoiyning olam va odam haqidagi tushunchalari muayyan bir tizim asosida ifodalangan.

Alisher Navoiy qasidalar turkumi tarkibidagi har bir qasida haqida ixcham, aniq ma'lumot berib, «Ruh ul-quds»ni shunday ta'riflaydi: «Yana «Ruh ul-quds» qasidasini baland ovoza qilibmenki, qudsiylar ruhin andin toza qilibmen va matlai bu dururkim, bayt:

Zihy ba xomai qudrat musavviri ashyo,

Hazor naqshi ajab har zamon az o' paydo .[29,199].

Bu dunyo usta naqqoshi bo'lgan Olloh qalami ostida paydo bo'lgan ajoyib manzara kabi ifodalanar ekan, o'ziga xos she'riy iborada shoir moddiy olamni muhabbat manbaiga aylantirishga harakat qiladi. Bu tasvir bir-biriga o'xshamaydigan ming xil rang bilan tovlanib turadi. Zukko muallif ana shunday

³ Навоий Алишер. Мукамал асарлар тўплами. 20 томлик. 16-том. -Тошкент: Фан, 2000, 31-бет.

rang (naqsh)larning biri inson, tabiat, fazo, osmon tuzilishi ekanligini qasidaning asosiy qismida ochib, takomillashtirib boradi. Bu naqshlar kasrat olami-Vahdat olamining behisob suratlaridir.

Qasidaning tuzilishini shartli ravishda quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1-9-baytlar- qasidaning nasib qismi;

10-116-baytlar–qasidaning madh qismi;

Mazkur qismning o'zini yana bo'lakchalarga bo'lib o'rganish mumkin.

116-132-baytlar–matlabni o'z ichiga oluvchi xulosa qismi.

Qasidaning nasib qismida Ilohiy qudratga umumiy ta'rif berilib, zarradan koinotgacha jami olam ishlari muayyan qonuniyat asosida Mutlaq Ruh tomonidan boshqarilishi madh etilgan. qasidaning bu qismidagi tantanali madh, yuksak darajadagi ko'tarinkilik, ohangdagi tovushlarning qaytarig'i shoirning ifodalamoqchi bo'lgan fikrini yanada kuchaytiradi, she'r satrlarining o'tkirlik va ta'sirchanligini oshiradi. Masalan: “be raqami o'”, “be sababi o'” kabi dastlabki ohangdosh tovushlarning tez-tez qaytarilib turishi ilohiy ishq dardi holati va his-tuyg'ularining tug'yonini orttiradi va xitobga aylanib ketadi. Iloh va uning qudratini tasvirlash uchun shoir talay badiiy san'atlarga, birinchi galda mubolag'a va tashbeh ko'rinishlariga tez-tez murojaat qiladi.

Chi xomaest, ki dar korgohi “kunfaya kun”,

Nagashta be raqami o' zi qatra to daryo.

Chi qudratest, ki dar borgohi charxi baland,

Nagashta be sababi o' zi zarra to bayzo.[29,198].

Ajab qalamdirki, butun borliq do'konida qatradan daryogacha Uning hukmi bilan paydo bo'lgandir. Ajab qudratdirki, yuksak charx qasrida quyoshdan eng kichik zarragacha o'sha mo'jiza tufayli paydo bo'lgandir. Ravshan, mulki borliqning bunyodkori va boshqaruvchisi Mutlaq Ruhdir.

Bu albatta, Navoiy tabiatiga xos bo'lgan jo'shqinlik, hassoslik xususiyatiga juda mos tushadi. Bunday hayrat-hayajon holati faqat to'qqiz baytli nasib qismidan nariga o'tmaydi va ulug' shoir qasidachilikka umumiy talablariga bo'syunishga

intiladi. Qasidaning keyingi qismi esa hissiyotli tasvirga behad erk berishni ko'tarmaydi. Ulug' Navoiy ijodiyotiga xos betakror xususiyatlar xuddi ana shu o'rinda ham yaqqol ko'rinadi. Ko'pgina mutasavviflar Haq va Inson munosabatini yoritish jarayonida Inson (maxluq)ni Xoliq darajasida madh etib, hatto "Inson–Haq" degan xulosani jo'shqin hissiyot og'ushida aytganligi uchun dahshatli fojialarga duchor bo'lishgan. Alisher Navoiy esa insonning yaratilishi haqidagi qismda (asosiy) tafakkur chig'irig'i orqali asta-sekinlik bilan qur'oniy oyatlarga tayanib, hayotiy kuzatishlari jarayonidagi Inson xilqatini ulug'lash bilan bog'liq hissiyotlarini singdirib yuboradi.

Qasidaning asosiy qismida Navoiyning dunyoqarashi ma'lum bir falsafiy tizim sifatida aksini topadi. She'rning satrlari asosiy qismi avvalgi (kirish) bilan chambarchas bog'langandir. Kirishda ixcham xulosa sifatida berilgan fikr bu qismda kengaytiriladi.

«Ruh ul-quds»ning asosiy qismini yana quyidagi bo'lakchalarga bo'lib o'rganish mumkin.

10-25-baytlar–Olam, Odam va uning yaratilishi, mo'jizaviy mukammalligi haqida;

26-76-baytlar- to'rt fasl ta'rifi;

77-93-baytlar–to'qqiz falak, sobitu sayyoralar xususida;

94-106-baytlar–o'n ikki burj ta'rifi;

107-108-baytlar–Arsh, Kursi, maloikalar haqida;

109-116-baytlar–Me'roj voqeasi talqini.

10-25-baytlarda Odamning yaratilishi va inson xilqati haqida so'z boradi. Inson badanining tuzilishi, uning ichki va tashqi a'zolari vazifasi, mo'jizaviy mukammalligi, har bir a'zo–asab, qon aylanishi, yurak, hissiy a'zolarning barchasi Oллоh qudrati mo'jizasi sifatida tarannum etiladi. Insonning eng ulug' zot qilib yaratilgani, tanasining tarkibi, olamning to'rt fasldan (bahor, yoz, kuz, qish) iboratligi, bu fasllarning oltin zanjir kabi bir-biriga ulanib ketaverishi juda jonli badiiy lavhalarda ifodalangan. Bulardan keyin to'qqiz qavat osmon, ki ikki burj, etti

sayyora va ular haqidagi qadimiy tasavvurlar xususida fikr bayon etiladi. "Alisher Navoiy insonni ham alohida olamga ajratib" uning tuzilishini birma-bir tasvirlaydi. Qirq beshdan ortiq baytda odam jismi (to'rt unsur, to'rt xilt) va olam tuzilishi (to'rt fasl) orasidagi yaqinlik, insonning yaratilishi, ichki va tashqi a'zolari vazifasi va mo'jizaviy mukammalligi, uni oliy mavjudot darajasiga ko'targan («ma'rifat ilmidan bahramand»-«ajuba») aql va ko'ngil haqida so'z boradi.

Sharq mumtoz adabiyotida yil fasllarini inson umriga qiyoslab tasvirlash an'anaviy ijodiy uslubdir. Alisher Navoiy aynan shu an'ana ichida inson ruhiyatining nozik qirralarini (botiniy hollar orqali) yil fasllaridagi o'xshash jihatlar bilan muqoyasa qilgan holda, yanada teranroq tasvirlash yo'lidan boradi. Behisob suratlar, daraxtlar, gullar va jamiki mavjudotning boqiy emasligini ta'kidlar ekan, insondagi hol taraqqiyotini fasllarning almashinib turishi orqali qiyosiy tasvirlashni ma'qul ko'radi. Bahor Haqdan (solik) tolib qalbida mujda etishi; Yoz oshiqning o'tli ohi; kuz "dunyo bog'ining har bir mevalari ta'mini farqlaydigan" orif; qish Haqdan o'zga barcha narsalarga "sovuq"lik bilan qarab, nafs ehtiyojlaridan batamom qutulgan faqrqa xos hol taraqqiyoti bilan bog'liq o'xshash jihatlar o'zining nafs badiiy tasvirini topadi. Aslini olganda, ulug' shoirning bunday harakati diqqatga sazovordir. Chunki olam bepoyon ko'ringani bilan unda behisob hech narsa yo'q. Ikkinchidan, odam ham mavjudotning kichik bir zarrachasidir. U hayvonot, nabotot, umuman, mulki borliq bilan aloqadorlikda yashashga ehtiyojmand hisoblanadi. Ana shunday noyob hayotbaxsh g'oya ulug' shoirning barcha asarlarini, jumladan, "Ruh ul-quds" qasidasini ham bezab turadi.

Fikand otashi ayyomi sayf dar olam,
Chu barqi oh zi anfosi oshiqi shaydo.
Rasondy az aqibash toxtu tozi sarsari day,
Ki raft yak-yak az in hullaho ba bodi fano.
Shito, chunon, ki dar u mirad otash az shiddat,
Chi mumkin ahli jahonro buvad nishoni baqo.
Chunonchi silsila basty ba halqu gardani davr

Hame ba davru tasalsul kashid in ajzo .[29,201].

Yoz mavsumining otashi olovga shunday tushdiki, u shaydo oshiqqlarning chaqin misol nafasini eslatardi. Xazon ortidan qishning shiddatli talon-tarojini etkazdingki, gulli matoni eslatuvchi o'sha yaproqlarni birin-ketin fano shamoli olib ketdi. Ochlik holati shu darajaga yetdiki, uning shiddatidan (qishning suronli sovuq va shamolidan) olov ham so'nadi. Bunday manzaralar oldida jahon ahlida baqoga umid bo'lishi mumkin-mi? Davrning bo'g'iz-u bo'yniga shunday zanjir bog'ladingki, bo'lak-bo'lak barcha narsalarni davr ipiga o'sha uzluksiz halqalarday (mahkam) bog'lab qo'ydi. Ko'rinadiki, tabiat tasviri bilan inson ruhiy olami o'rtasida mustahkam uyg'unlik mavjuddir. Bu bo'lak-bo'lak ajzo bir-biriga ulanib ketaveradi. Tabiatdagi har bir o'zgarish inson ruhiyatiga ta'sir qiladi. Chunki inson tabiat bag'rida yashaydi. Shoirning bunday teran falsafiy mulohazalari fasllar tasviridan to'qqiz falak ta'rifi qismiga o'tish jarayonida yanada yaqqolroq ko'zga tashlanadi.

Ma'lumki, ruhiy-ma'naviy kamolot bosqichidagi har bir faqirning ruhiy taraqqiyoti o'z navbatida yana toza darajalarga bo'linadi. Shoir bunda payg'ambarlarning samodagi maqomlariga ishora qiladi va har bir falakning joylashuvini, sayyorasini qadimgi nujumiy tasavvurlar orqali go'zal badiiy talqin etadi:

Ba hujrai duyum andar qalamzani chobuk,
Nishody omada bar sar ba imloyu insho.
Muloime, ki baroyad ba rang har ki rasad,
Ba soni ob, ki zohir shavad ba lavni ino [29,207].

Ikkinchi hujra ichida chaqqon qalam uruvchi (kotib)ni o'tqizdingki, u kelib imloyu inshoning boshida turmoqda. Munosib har kimki rang uchun chiqsa (ikkinchi osmonga), maqsadiga etadi va uning uchun suv o'rnida xumcha to'la bo'yoq zohir bo'ladi. Ikkinchi falak sayyorasi Utorud matnda "qalamzani chobuk" ("chaqqon qalam uruvchi") deb atalgan. Bunda Utorud mifologik qarashlarga ko'ra, yozuvchi va shoirlar homiysi, falak kotibi, shoirlar piri ekanligi nazarda tutiladi.

Ma'lumki, ko'pgina ilohiy-irfoniy adabiyotlarda ikkinchi falak Iso va Yahyo alayhissalomning makoni sifatida e'tirof etiladi. Ulug' shoir satrdagi "lavni ino" ("rang to'la xumcha") iborasi orqali Iso alayhissalom hayotiga daxldor mo'jizaga—"Iso xumi"ga ishora qilgan. Ilohiy manbalar shahodatiga binoan, Iso alayhissalomning bir mo'jizasi bor edi: agar u rangli libosni xumga solsa, oq-qora ko'rinishda bo'lib chiqardi. Iboraning majoziy ma'nosi teran mohiyatga asoslangan. "Isoning xumi"—Kamil inson qalbi. Kamil inson qalbiga kirgan har bir narsa esa pok va beg'ubor bo'lib chiqadi. Isoning har xil rangdagi xumi kasrat—xilma-xillik olamiga ishoradir. Buyuk shoir faqat Kamil insongina kasrat vahdatning zuhuri ekanligini anglab, uning hikmati, sir-u sinoati tubiga yetaolishini ta'kidlagan.

Alisher Navoiy to'qqiz falak tasviridan so'ng o'n ikki burjni ham xuddi yuqoridagi singari Haq ilmi aks etgan Mutlaq Vujudning bir qismi sifatida tilga oladi. Quyoshning osmon qubbasidagi yo'lida joylashgan yulduzlar turkumi burjlardir. Ular o'n ikkita yulduz turkumidan tashkil topib, quyidagicha nomlanadi: Hamal, Savr, Javzo, Saraton, Asad, Sunbula, Mezon, Aqrab, Qavs, Jady, Dalv, Hutyani bular hijriy-shamsiy taqvimining oy nomlaridir. Shoir ularning shakllari, samodagi joylashuvi, yil fasllarining almashinuvidagi ishtiroki, mifologik xususiyatlari hamda ular bilan bog'liq tabiiy hodisalarni qalamga oladi.

Burjlar haqida "Qur'oni karimda": "Albatta Parvardigoringiz osmonlar va Erni olti kunda yaratib, so'ngra o'z arshini egallagan Ollohdir. U (Olloh) quyoshni ziyo sochuvchi, oyni yorug'lik qilgan va sizlar yillarning sanog'ini hamda (vaqtlarning) hisobini bilishlaringiz uchun uni (yani oyni bir qancha) manzilburjlarga bo'lib qo'ygan zotdir. Hech shak-shubhasiz, Olloh bu (borliqni) Haq (qonun va maqsad) bilan yaratdi",-deyiladi Yunus surasining 5-oyatida⁴. Shoir ham ularning har birida Ollohning bir hikmati aks etganligini burjlar shaklini izohlash orqali badiiy gavdalantirib beradi.

Zi bahri on ki hame kaxravist shevai charx,

Chu charx rutbai xarchang soxti volo [29,203].

⁴ Куръони карим.-Тошкент: Чўлпон, 1992, 133-бет.

Charxning hamma qilmishlari kajravlikdan iborat bo'lgani uchun falakda qisqichbaqa (burjlardan to'rtinchisi) maqomini baland yasading. Hayotda, inson taqdirida ham shunday hodisa kuzatiladi, turmushda kajrav insonlar qo'lining baland kelishi mumkin.

Mazkur qismda tashxis san'ati vositasida ajoyib lavhalar chiziladi va burjlarning o'ziga xos noyob xususiyatlarini tasvirlash bilan qasidaning badiiy qimmatini yanada oshadi. Agar dunyodagi har bir narsaning mohiyatini tashkil etuvchi Ollohning yagonaligini nazarda tutsak, ilohiy mohiyatdan iborat bo'lgan butun olamning tub mazmuni uning birligida va butunligida ekan. Bunday o'zaro bog'liqlik va uyg'unlikni quyidagi misralarda ko'rish mumkin.

Libosi barg chu ashxori bog'ro po'shid,
Shud az namoishi har yak chu gunbadi mino.
Shamol chun ba taharruk fikandashon omad,
Va chashmi aql namudor sayru davri samo.
Tayur har yak az on charxro chu anxum shud,
Zi shox bar shox oyanda burch-burjoso [29,201].

Barglar libosi bog' daraxtlari ustini yopdi, har birining tovlanishida feruza osmon (qubba) shakli namoyon bo'ldi. Shamol shunday kuchli harakatga tushib keldiki, Yer-u osmonda vujudga kelgan manzarani aql ko'zi bilan tasavvur qilish qiyin edi.

Bunday o'zgarishlar har bir daraxtdan yulduzga qadar yuz berdiki, daraxt shoxlarining silkinishi yulduzlarning burjdan-burjga ko'chishini eslatardi.

Ko'rinadiki, misralarda ko'm-ko'k yaproq bilan qoplangan ilgarigi yalang'och daraxtlarning har biri bir osmon kengligiga, uning shoxlari esa burjlarga, bu shox-burjlardagi mevalar "sobit"—ya'ni turg'un yulduzlarga, shoxdan-shoxga sakrab yuruvchi qushlar esa "suho"—harakatidagi yulduzlarga o'xshatiladi.

Shoir tabiat bilan osmon jismlari haqidagi tushunchani shu tarzda bog'lab ko'rsatgan. Osmon va undagi jismlar butun olamning o'zaro bog'lanishidagi yana bir zanjirni tashkil etishini, bu zanjirlarning har bir xalqasi o'ziga xos, ma'lum o'ringa ega ekani va katta ahamiyati borligini ko'rsatishga harakat qiladi.

Borliqdagi barcha narsalar bir-biri bilan chambarchas aloqadorlikda harakat qiladi. Demak, olam ma'lum qonuniyat asosida vujudga kelgan va o'sha nizom asosida "Biz osmonlar va erni hamda ularning o'rtasidagi narsalarni faqat Haq qonun-qoida bilan yaratdik"⁵. Olamning "haq qonun bilan" bunyod etilishi undagi mukammallikka sabab bo'lgan. Samoda ulkan ummonlar-u dashtlar, tog'larni bag'riga olgan. Yerimizdan bir necha barobar katta bo'lgan sayyoralar muallaq turadi va Yaratuvchining amri bilan doimo harakatda bo'ladi. Mazkur fikrimizni "Yosin" surasining 40-oyati bilan tasdiqlay olamiz: «Lash-shams-u yanbag'iy laha an tudrikal-qamara va lal-laylu sabiqul nahar. Va kullun fi falakin yasbahun»¹. («Na quyosh uchun Oyga etish mumkin bo'lur va na kecha-kunduzdan o'zguvchidir, barchalari falakda suzib yurur»).

Alisher Navoiy quyosh, samodagi barcha sayyoralar va boshqa osmon jismlarining ma'lum yo'nalish asosida fazoda muallaq holda doimiy harakatdaligini tasvirlash orqali Haqning mo'jizaviy qudratining mislsiz, beqiyos ekanligini madh etadi. Qasida satrlarida Ollohning barcha yaratqilari, hatto Arsh, Kursi, maloikalar ham uning xizmatida, burjlarning ko'pchiligi ham o'ziga tezroq Ollohning rasuli yaqinlashishini istashi mahorat bilan ulug'lanadi. Shundan so'ng ulug' shoir Me'roj voqeasi tasviriga o'tadi va islom dinining insonparvarlik mohiyati tasviriga alohida urg'u beradi, Muhammad payg'ambarga "shariati g'arro" ("yorqin islomiy shariat")ni "ravshan qilgan" Ollohga behad hamd-u sano aytiladi.

Shoir o'z davrining sidqidil musulmoni sifatida Ollohdan qiyomat kunida gunohlarini maxfirat qilishini so'rab, qasidaning so'nggi-xotima qismini (xuddi nasib qismidagi singari) diniy mazmundagi an'anaviy hamd, munojot bilan tugatadi. Ma'lumki, XV asr ijtimoiy- siyosiy sharoitida yashagan Navoiyning tasavvufiy qarashlari diniy tushunchalar (aslida din irfon uchun begona emas) bilan bog'liqdir. U o'z davrining eng peshqadam ilohiy-irfoniy arbobi sifatida ilg'or tasavvufiy qarashlarni qanchalik qadrlasa, komil musulmon bo'lgani uchun shariat qonun-

⁵ Куръони карим (таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур). -Тошкент: Чўлпон, 1992, 229-бет.

qoidalarini ham so'zsiz ado etardi. Shuning uchun ham «Sittai zaruriya»ning birinchi qasidasi ilg'or islomiy-irfoniy g'oyalari talqinidan iboratdir.

Sharq mumtoz adabiyotida Oллоh va olam aloqadorligi, bog'liqligi talqiniga bog'ishlangan juda ko'p asarlarda yuqorida sanab o'tilgan mavzular uzviy ketma-ketlikda (yil fasllari, to'rt unsur, 9 falak, 12 burj) tasvirlanadi. Bu "Sittai zaruriya"ning boy ilohiy va adabiy sarchashmalar zaminida yuzaga kelganidan dalolat beradi.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" masnaviysi, Nosir Xusravning "Ro'shnoinoma" dostoni, Amir Xusrav Dehlaviyning "Olam ul-ilm" va Abdurahmon Jomiyning "Jilo ur-ruh" kabi qasidalarini fikrimizning yorqin dalilidir. Bu asarlarda har bir narsada Oллоhning qudrati namoyon bo'lishi, U yaratgan mulki borliq mavjudotlarida zanjir halqalari kabi bir-biriga uzviy bog'lanib, turfa jihatlardan o'zaro aloqadorlikda amal qilishi hodisasiga alohida urg'u beriladi. Bu aloqadorlikning asosiy negizi barcha narsalar Inson va uning ruhi Mutlaq tomon taraqqiy etib borishi uchun yaratilganligi haqidagi ilohiy-irfoniy qarashlarga borib taqaladi.

Jumladan, "Avesto"da osmon jismlariga alohida ahamiyat berilgan hamda ularga ilohiy qudratning mo'jizasi sifatida qaralgan.

Qadimgi ajdodlarimizning nujumiy tasavvurlari ta'siri "Ruh ul-quds"dagi o'n ikki burjning birma-bir tasvirida ham yaqqol ko'zga tashlanadi:

Ba burji digar Aqrab ba junbish ovardy,
Chu kajdume, ki kunad xona dar qadim bino.
Farozi burji digar soxti kamonxona,
Ki charx tiri balo afkanad so'yi dunyo (21-bet).

Boshqa bir burjda Aqrabni harakatga keltirding, Chayondayki, qadimiy uslubda o'ziga xona bino qilsin. Boshqa bir burjni baland kamonxona qilib yasadingki, charx undan dunyoning turli taraflariga balo tig'ini yog'diradi, deya ulug' shoir Oллоhning qudratini ta'rif va tavsif etadi.

Mazkur baytlarda burjlarning nomi bilan ularning xalq tasavvuridagi xosiyatlari va erdagi voqealar bilan aloqadorligi hisobga olinib, chiroyli tashbehlar hosil qilingan.

Olooh-olam aloqadorligi, bog'liqligining ixcham tasvirini «Qisasi Rabg'uziy»da o'qiymiz¹. Mumtoz adabiyotda juda ko'p e'tirof etilgan mazkur fikrlarni Nosiriddin Rabg'uziy muxtasar bayon qilgan. Bunda Yaratuvchining cheksiz aql-zakovat sohibi ekanligi va buyuk yaratuvchanlik xususiyati yaqqol ko'zga tashlanadi.

Islomiy qarashlar va Olooh-olam munosabatlarini ruhiy-vajdiy tafakkur qilish jarayonida tug'ilgan mushohadalarga tayanib, ba'zi dostonlarda olamning tuzilishiga doir maxsus boblar ajratilgan. Jumladan, etti sayyora va o'n ikki burjga maxsus bob bag'ishlagan Yusuf Xos Hojib «Qutadg'u bilig» dostonida o'n ikki burjni etti sayyoradan ajratib ko'rsatadi hamda ularning ayrimlari juft-juft, ayrimlari esa toq ekanligini qayd etib, ularning uchtasi–bahorgi, uchtasi yozgi, uchtasi–kuzgi va nihoyat uchtasi–qishki yulduzlar deb e'tirof etadi. Dunyo to'rt unsur dan tashkil topgani singari bularning ham uchtasi olov, uchtasi–suv, uchtasi–shamol va uchtasi–tuproq ekanligi haqida badiiy mushohada yuritadi.

Amir Xusrav Dehlaviyning «Olam ul-ilm» qasidasida ham xuddi shunday tasvir usuli ustuvor:

Zuhra tab'am dar vabol az peshi in aqrabvashon,
Z-on chu aqrab xeshtanro xud qafoe mezanam².

«Sittai zaruriya» tarkibidagi birinchi qasidaning «Qasidai Ruh ul-quds»i dar tavhidi «Bori taolo» deb nomlanishining ham muhim asoslari bor. Ilohiy-islomiy qarashlarga muvofiq, Allohning yakkayu yagona Yaratuvchi ekanligini madh etish uchun asarlarning dastlabki kirish qismlari «Olooh taolo tavhidi»ga bag'ishlangan. Jumladan, Nizomiy Ganjaviy «Xamsa»sining maxsus bir kirish qismi «Dar tavhidi Bori» («Bori taolo tavhidi haqida») deb nomlanadi³. Yuqorida ta'kidlaganimizdek,

⁶ Рабғузий Носируддин Бурхонуддин. Қисаси Рабғузий. Биринчи китоб. -Тошкент: Ёзувчи, 1990, 12-бет.

⁷ Дехлави Амир Хусрав. Осори мунтахаб. Дар чахор жилд. Жилди чахорум. -Душанбе: Ирфон, 1975, 829-сах.

⁸ Низомии Ганжавӣ. Куллиёт. Дар панх хилд. Жилди I. -Душанбе: Ирфон, 1983, 26-бет.

jamiki narsa va hodisalarning muayyan bir uyg'unlikda doimiy harakatda ekanligi yagona buyuk Ruhning mo''jizaviy qudrati hosilasi sifatida talqin etiladi:

Chu gul sad pora kun xudro dar in bog',

Ki natvon tandurust omad bad-in bog' (23-bet).

«Ruh ul-quds» qasidasida ham gul timsollari tasviriga keng o'rin beriladi. Ulug' shoir rayhon, sunbul, nargis, lola, yosmin kabi gul timsollari orqali suluk ahlining ko'nglida porlagan ilohiy nur va uning turli go'zal shakllarda jilva qilishiga ishora qiladi.

Alisher Navoiy «Nasoyim ul-muhabbat»da Nosir Xusrav haqida ma'lumot berganda faqat «Ro'shnoinoma» asarini tilga oladi. Adibning 592 baytdan iborat bu masnaviysi Olloh-olam aloqadorligi, bog'liqligi talqiniga bag'ishlangan bo'lib, unda diniy, falsafiy, ma'rifiy, ijtimoiy-axloqiy qarashlar yuksak shoirona nazokat bilan kuylanadi. Kuzatishlar asosida shunga guvoh bo'ldikki, mazkur masnaviyning g'oyalar va mavzular olami mundariyasi Alisher Navoiyning «Sittai zaruriya» qasidalar turkumiga juda o'xshaydi.

“Sittai zaruriya” “Ro'shnoinoma”ga “Alloh-olam aloqadorligiga doir jamiki narsa-hodisalarni uzviy ketma-ketlikda tasvirlash nuqtai nazaridan yaqin turadi. Ammo Navoiyning maqsadi bu masalalarni faqat yoritishgina emas, balki Alloh-olam aloqadorligini ta'minlovchi Haq qudrati yashiringan ilohiy tizimlar chegarasini va ularning bir-biriga bog'liqligini aniq, ravshan ifodalashdir. Qasidalar ko'pincha daqiq ma'nolarni, ishoralarni nozik anglovchi kishilar saviyasiga moslab, yuksak did bilan yaratilgan. “Sittai zaruriya” turkumi ham ana shunday yuksak badiiy asardir. Chunki shoir “Sittai zaruriya”–“Olti zarurat” orqali bir necha oltilik tizimiga ishora qiladi.

“Sittai zaruriya” tarkibidagi birinchi qasidaning, ya'ni umumiy oltilik tizimining birlamchi asosini Ruh tashkil etadi. Shuning uchun asar “Ruh ul-quds” deb nomlangan. Mutlaq Ruh va undan ajralgan ruhning yana Unga qaytish (uruj) asoslari ifodalangan. Ruh quvvasidagi 6 jihat, asos Fariduddin Attorning “Ilohiynoma”sidagi “Ruhga murojaat qilib degani” qismida birma-bir izohlanadi:

“Ruh-ajoyib bir qushsan, na erdasan, na osmonda, balki Tangri taolo huzuridasan. Sening asosingda oltita belgi bor, ammo ularning har biri bir jahon-alohida bir olam. Har biri-bir sohibqiron, bir qudrat.

1. Biri Nafs bo'lib, uning joyi sezgi a'zolaridir.
2. Biri Nafsi ammora bo'lib, ziddiyatlar, nifoq shundan.
3. Biri Aqlidir, aql muvofiqlikni, mantiqni boshqaradi.
4. Biri Ilmdir, ma'lumot, bilim to'plash bilan band.
5. Biri Faqrdir, fano-yo'qlik istar hamisha.
6. Biri Tavhiddir, Yagona zot istar va Unga intilar doim”⁴.

“Olti zarurat” tarkibidagi birinchi qasidaning “Ruh ul-quds” deb nomlanishining asosiy manbai ham shudir. “Ruh ul-quds” qasidasi–“Hayrat ul-abror” dostoni singari dasturiy–muqaddimaviy asar. Yuqorida sanab o'tilgan ruhning olti quvvasi haqida “Sittai zaruriya” turkumidagi qasidalarining har birida qayta-qayta (yangicha tasvir usulida) izohlanadi. Chunki Alisher Navoiy Olloh-Olam aloqadorligining barcha sabablarini ruhning ana shu olti jihatiga tegishli deb biladi. Bu oltilik tizimi tarkibiy qismlari o'z navbatida yana bir necha oltilik tizimiga bo'linadi, ya'ni Inson va Koinot, Inson va Mavjudot, Inson va Ilohning o'zaro bog'liqligi olam olti ilohiy kun mahsuli (“Ruh ul-quds”da bu xususda ma'lumot beriladi), olti “nodir jihati koinot va faqr ruknlari (“Aynul - hayot” va «Tuhfat ul-afkor» qasidasida bunga ko'proq urg'u beriladi), olti iymon arkoni tarkibiy qismlari (“qut ul-qulub”da arkoni iymon shartlari keng izohlanadi), jism qafasida ruhning sog'lom taraqqiy etishining olti tibbiy asosi (“Minhoj un-najot”da bu masalaga doir asosli ishoralar bor), namoz faroizidagi olti xorij va doxil farzlar (“Nasim ul-xuld” va “Qut ul-qulub»da bu masalalar tasviriga kengroq ahamiyat berilgan) bir-biriga bog'liq ravishda bir ilohiy mohiyatga borib taqaladi va shu tariqa oltilik tizimi–“Sittai zaruriya” shakllanadi. Bu oltiliklarning barchasi umumiy bir ilohiy maqsadga–odam jismi qafasidagi ruhni Mutlaq Ruh tomon taraqqiy etib borishini ta'minlovchi uzluksiz tadrijiy jarayonga xizmat qiladi. O'rni kelganda

9 Аттор Фаридулдин. Илоҳийнома.-Тошкент: Ёзувчи, 1994, 12-бет.

ta'kidlash joizki, jismda ruhning sog'lom taraqqiy etishining olti tibbiy asosiga doir qator asarlar yaratilgan. Sharq tabobatida olti zarur narsa (sittai zaruriya) degan istiloh bor. Bu haqda Ibn Sino, undan oldin va keyin o'tgan olim-tabiblar ham yozishgan. Ana shunday tabiblardan biri XV asrda Xurosonda yashab o'tgan Yusufiy Heraviydir. U «Risolai sittai zaruriya» asarida olti tibbiy asos haqida fikr yuritadi. Olti tibbiy zaruratga doir qarashlar «Hakimlar hikoyati», «Tabobat xazinasi durdonalaridan» kabi risolalarda ham keng izohlangan⁵.

Alisher Navoiy o'zigacha o'tgan betakror tafakkur egalarining har biri ijodidagi eng ilg'or xulosalarni teran anglab etdi va alohida-alohida xulosalarni yashash tajribasi orqali ijodiy ravishda bir o'zanga birlashtirdi. Shuning uchun bu turkumni «Sittai zaruriya» deb nomladi. Chunki Haqqa yetishning asosi sog'lom Ruhdir, ulug' shoir esa turkumdagi har bir qasidada ruhiy-ma'naviy poklanish tasviriga alohida ahamiyat beradi. Iso kabi Ruhga aylanish shoir lirik qahramonining ezgu orzusidir. «Xazoyin ul-maoniy»da boshqa ilohiy nomlarga nisbatan Iso Masihning behad ko'p tilga olinishining asosiy sababi ham shunda.

«Sittai zaruriya»ni yozishdan maqsad Ruhning qudratini madh etish edi. Mazkur turkum tarkibidagi har bir qasidada faqr-u fano ulug'lanadi. Bu yuksak maqomga etgan kishiga esa Haqdan o'zga hech qanday zarurat qolmaydi. Ulug' shoirning bu xususdagi umumiy xulosasini «Favoyid ul-kibar»ning 506-g'azalida ham ko'rishimiz mumkin.

Fanoiy mahz etar «Sittai zaruriya»,

Nedinki yo'qqa zarurat emas bu nav' oltov⁶.

Ulug' Navoiy oltilik tizimi asosidagi aloqadorlik qonuniyatini «Sittai zaruriya» qasidalar turkumi g'oyalari bag'riga singdirgan. qasidalar alohida-alohida olinganda mustaqil asar sifatida yuksak badiiy qimmat kasb etadi. Chunki turkum tarkibidagi olti qasidadan to'rttasi—«Tuhfat ul-afkor» Amir Xusrav Dehlaviyning

¹⁰. Ҳақимлар ҳикояти. -Тошкент: Медицина, 1985, 125- б.

¹¹. Навоий Алишер. Мукамал асарлар тўплами. 20 томлик. 6-том. Фавойид ул-кибар. -Тошкент: Фан, 1990, 343-бет.

«Daryoi abror» qasidasiga, «Qut ul-qulub» Anvariyl qasidasiga, «Minhojun najot» Xoqoniy va Anvariyl qasidalariga, «Nasimul ul-xuld» esa Xoqoniy qasidasiga javob, tatabbu' tarzida yozilgan. Alisher Navoiyl bu mashhur qasidalarning mavzui va shaklini saqlagan holda, ularni mazmunan rivojlantirib, yangi g'oyalar, fikrlar, adabiy san'atlar orqali to'ldirgan, yangi ruhdagi qasidalarni vujudga keltirib, o'z san'ati va mahoratini namoyish etgan.

Yuqorida bildirilgan mulohazalar quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi:

1. Hamdlar mazmuni faqat Ollohni madh etishga bag'ishlangan bo'lsa-da, maqsadiga va yetakchilik qilayotgan g'oyaga ko'ra farqlanadi. Mazkur jihatning o'zi hamd yo'nalishidagi asarlarni shar'iy-targ'ibiy, ma'rifiy-targ'ibiy, ma'rifiy-badiiy, badiiy-ma'rifiy kabi turlarga bo'lib o'rganish asosini beradi.

2. Har bir asarni hamd bilan boshlash Navoiygacha ham mavjud edi. Ammo Sharq mumtoz adabiyotining biror bir namoyandasi ijodida bu an'ana yaxlit shaklda (farddan dostongacha) namoyon bo'lgan emas.

Alisher Navoiyl Sharq devonchiligi ravnaqini mavzu-ma'no nuqtai nazardan muayyan bir tizimga soldi va har bir asarini Olloh hamdi bilan boshladi.

3. Ulug' shoir ilohiy-irfoniy, ijtimoiy-falsafiy qarashlari ifodalangan hamd g'azallari va «Ruh ul-quds» qasidasini bevosita ilohiy-islomiy sarchashmalardan bahra olgan asar sifatida e'tirof etish mumkin. Ana shu nuqtai nazardan hamd g'azallar va «Ruh ul-quds» qasidasining badiiy tasvir uslubi bir-biriga juda yaqindir.

4. Sharq mumtoz adabiyotida Olloh va olam aloqadorligi, bog'liqligi talqiniga bag'ishlangan Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Nosiruddin Rabg'uziyning «Qissasi Rabg'uziy», Nosir Xusravning «Ro'shnoinoma» dostoni, Xusrav Dehlaviyning «Olam ul-ilm» va Abdurahmon Jomiyning «Jilo ur-ruh» kabi qasidalarida mavzular uzviy ketma-ketlikda (yil fasllari, to'rt unsur, to'qqiz falak, o'n ikki burj) tasvirlanadi. Bu esa mavzular silsilasi xuddi shu tizimda yaratilgan «Sittai zaruriya»ning boy adabiy manbalar zaminida yuzaga kelganidan dalolat beradi.

5. Alisher Navoiy oltilik tizimi asosidagi aloqadorlik qonuniyatini «Sittai zaruriya» («Olti zarurat») qasidalar turkumi bag'riga singdirgan va Haqqa yetishning asosi sog'lom Ruh bo'lgani uchun turkum tarkibidagi birinchi dasturiy-muqaddimaviy qasidani «Ruh ul-quds» deb atagan.

Turkum tarkibidagi qasidalar oltilik tizimi asosida birlashib, yaxlit sistemani tashkil etadi, alohida olinganda esa yuksak badiiy qimmatga ega har bir qasida mustaqil badiiy asar talablariga javob beradi. Hamd g'azallarning manbalari, poetikasi va timsollari.

Islomiy-irfoniy tasavvurga ko'ra, inson ikki asos – jism va ruhdan, inson jismi esa to'rt unsur - suv, olov, havo, tuproqdan iborat. Inson o'z ruhi bilan farishtalarga, jismi bilan esa tabiatga, ya'ni hayvonlarga borib taqaladi. Bular haqida Qur'oni Karimning bir qancha oyatlarida xabar berilgan. "Vas-safat" surasi 11-oyati ("Biz insonlarning asli-avvali bo'lmish Odam alayhissalomni yopishqoq bir loydan yaratgandirmiz").

Inson hayvon bilan farishta o'rtasidagi maxluq. Tabiat bilan ana o'shanday bog'liqlik uning qattiqligini, dag'alligini keltirib chiqaradi. Ruh esa insonni ma'naviy kamolotga etaklaydi. Chunki ruh g'ayb olamining "mulki", u insonga latif bir quvvat bag'ishlaydi.

Ba xoki xismash boroni rahmat afshondy,

K-az on muloimat ovard tinatash paydo.[29,199].

Tuproqdan yaralgan jismi ustiga Rahmat yomg'irini yog'dirding, o'shandan uning fe'l-atvorida muloyimlik paydo bo'ldi. Biroq, inson tabiati to'la poklanmadi...

Qur'oni Karimning "Al-Isro" surasi 85-oyatida o'qiymiz: "Va yas'alunaka anirruh qulir ruhu min amri rob" (Ey Muhammad, Sizdan ruh-jon haqida so'raydilar. Ayting, "Ruh yolg'iz Parvardigorim biladigan ishlardandir". Ruh ilohiy ma'rifat, hikmatu donish bilan oziqlanadi. Shuning uchun ruhoniy hayot zavqidan bahramand bo'lgan ulug' insonlar xolis, beg'araz, nekbin, muloyim, mehribon, shafqatli, himmatli bo'ladi. Demak, insonning mohiyati ham shu Ruhdadir.

Zayniddin Muhammad G'azzoliy "Kimyoi saodat" asarida ruhni shunday ta'riflaydi: "Ruh odam vujudining aslidurkim, hamma qolip va badan aning tobe'idur. Vaqtiki ruh bo'lmasa tan murdordurki, aning hech e'tibori yo'qdir. Badan markab va suvor ruhdir"².

Insonni boshqa mavjudotlardan ajratib turuvchi yana bir noyob fazilat haqning unga ilmu irfonni taqdir qilganligidir. Oллоh inson Qalbini ilmu irfon xazinasini qilib, shu irfonda o'zini yashirgan: Qasidada insonni mumtoz etadigan eng yuksak mo''jiza – aqli kull va ko'ngil alohida ta'kidlab ta'riflanadi. Shoir tashbeh-tamsil san'ati vositasida go'zal manzara yaratadi:

Dar o' nishonidi dilro ba taxti sultoni,
Ki shud ba rasmi salotin xidevi mulkoro.
Xirad vazorati on shohro muayyan shud,
Gadoi shohonu vaziron, kamina banda turo[29,199].

Mazmuni: Unda (badan shahrida) podshohlik taxtida yurakni o'tqizding. Shundan u (yurak) sultonlik rasmida mulk-u mamlakatning sohibi bo'ldi. U shohning vazirligiga donishmandlik (aql) muayyan bo'ldi. Aslida gado-yu shoh-u vazirlarning barchasi Sening kamtarin bandalaringdir. Shoir mazkur fikrlarini Qur'oniy oyatlar mazmuni bilan asoslaydi.

Zi ilmi ma'rifatash chunki bahravar kardi,
Maloikash ba suxud omadand abdosu [29,200].

Maloikalar Oллоh azza va jallaning farmoni qoshida ojiz qolgach, Odam alayhissalom ularga mavjudot haqiqatini bayon etadi. Tuproqdan yaralgan hazrati Odam alayhissalomning ilm-u ma'rifati fayzidan yetti qavat osmon ham munavvar bo'ladi. Ana shu ilm-u ma'rifat tufayli hazrati Odamga maloikalar qullarday sajdaga keladilar. Chunki Insonda zavq–ruhiy kamolot kabi nuri hikmat aks etgan nodir xislat mavjud. U Iloh ma'rifatini zavq-u shavq bilan his etish jarayonida ruhiy yuksaklikda farishtadan ham o'zib, ma'nau haqning o'ziga etishi mumkin.

¹². Фаззолий. Кимийи саодат. –Тошкент: Камалак, 1995, 14 бет.

Xoliqi A'zam o'z husnini tomosha qilish uchun o'ziga ko'zgu–moddiy olamni yaratdi. Olam esa inson tufayli bunyod qilingan. Bu haqda: "Lav laka limo xalaqtu l-aflok" (Agar sen bo'lmasang, osmon-falaklarni yaratmagan bo'lar edim), degan hadis ham bor. Moddiy olamning javhari– Inson qalbi, uning ko'ngli. Insonni yaratishdan maqsad ham ko'ngilning qudratini namoyish etish edi. Chunki ko'ngil – haqnazargohi. Inson uchun, uning baxt-u istiqboli, farovonligi uchun qayg'urgan ulug' shoir ham ko'ngil so'zini takror-takror zikr etishni xush ko'radi:

Dar u nishondi dil ro ba taxti sultoni,

Ki shud ba rasmi salotin xidevi mulkoro [29,199].

Mazmuni: Unda (badan shahrida) podsholik taxtida yurakni o'tqizding, Shundan u (yurak) sultonlik rasmida mulku mamlakatning sohibi bo'ldi.

Ulug' shoir nuqtai nazaricha, ko'ngil – Ollohning hikmati, nuri aks etgan eng qutlug', yuksak, pokdomon manzildir.

Imom G'azzoliy dil haqiqatini "Podshoh dilni va aning sifatlarini tanimoq hazrati haq subhonahu va taoloni tanimoqning kalididir... Saodat va shahvat asli aning (dilning) sifatidir va badan hamma ahvolda aning tobe'idur",- deya ta'riflaydi³. Shuning uchun mohiyatni anglashga faqat qalb qodir. Teran tasavvur, hissiy-vajdiy tafakkur orqali ko'ngilning sirli ajoyibotlari qudratidan bahramand bo'lish, ruh kuchi yordamida yurakka atalgan sultonlik–hurlik taxtini egallash mumkin. Hurlikka erishgan ko'ngil Ollohning chin oshig'idir. Oshiq yurak esa Iloh va inson sir-u sinoatidan xabardor, kuchli va nurli hislarga boy bo'ladi.

Ko'ngil – Olloh yashiringan tilsimot. Tilsimot qonuniyati sirlarini – buyuk Tangri ma'rifatini ulug' mutafakkir o'z hayotiy kuzatishlari asosida navoiyona hassoslik bilan badiiy talqin etadi.

Ko'ngil - Olloh ilmi va ishqining xazinasi, uning egasi inson shuning uchun ham olam mehvari, oliy mavjudotdir. Shul bois hazrat Navoiy Ka'ba deb ko'ngilni tan olgan va unga sig'ingan:

¹³ Газзолий Кимиёи саодат. –Тошкент: Камалак, 1995, 15-бет.

Ka'baki olamning o'lib qiblasi,
Qadri yo'q andoqki, ko'ngil Ka'basi[29,201].

Inson – Xudoning erdagi xalifasi, uning ilmu karomati, sir-asrori, qudrati va hikmati aks etgan mo'jiza. Falaklar uning nafasi bilan aylanadi, jamiki mulk-u malakut undan ta'lim oladi.

"Etti torami a'lo", "to'qqiz sipehri muallo", Arsh, Kursi, jamiki mavjudot uning uchun, u tufayli yaratilgan:

Sabab muhabbati o'yu zuhuri sun'at bud,
Ki xalqi moxalaqulloh soxti ifsho [29,207].

Sababi–unga (Muhammad payg'ambarga) bo'lgan (Sening) yuksak muhabbating yaratilishining zuhuri ediki, xalq etilgan narsalarni u tufayli oshkor qilding.

Olam – ishq mahsuli. Mazkur baytlarda vahdat ul-vujud (birlik) ta'limotining asosiy masalasi Ilohning insonga, insonning Ilohga muhabbati tasvir etilgan:

Zuhuri husnung uchun aylabon mazohirni,
Bu ko'zgularda ani jilvagar qilib amdo.
Chu jilva ayladi ul husn istabon oshiq,
Saloyi ishqin etib ofarinish ichra nido⁴.

Hayrat, hissiy tasavvur va ruh kuchi bilan yaratilgan Alisher Navoiyning "Sittai zaruriya" qasidalar turkumida Inson va Koinot, inson va mavjudot, Inson va Ilohning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi, Inson ruhining ulug' olamlar bo'ylab sayr etib, Iloh tomon ko'tarilishi (uruj), insoniylik darajalari, ruh taraqqiyoti darajalari - pok ruh (ruh ul-quds) bilan belgilanishi, mavjudotning xulosasi va qaymog'i Komil Inson insoniyatni boshqaradigan buyuk ruh ekanligi kabi islomiy-irfoniy falsafiy g'oyalar talqin etilgan.

Borliqdagi barcha narsalar bir-biri bilan chambarchas aloqadorlikda harakat qiladi. Demak, olam ma'lum qonuniyat asosida vujudga kelgan va o'sha

14: Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 6-том. –Тошкент: Фан, 1990 10-бет.

nizom asosida “Biz osmonlar va yerni hamda ularning o’rtasidagi narsalarni faqat Haq qonun-qoida bilan yaratdik”⁵. Olamning “haq qonun bilan” bunyod etilishi undagi mukammallikka sabab bo’lgan. Samoda ulkan ummonlar-u dashtlar, tog’larni bag’riga olgan Yerimizdan bir necha barobar katta bo’lgan sayyoralar muallaq turadi va Yaratuvchining amri bilan doimo harakatda bo’ladi. Mazkur fikrimizni “Yosin” surasining 40-oyati bilan tasdiqlay olamiz: «Lash-shams-u yanbag’iy laha an tudrikal-qamara va lal-laylu sabiqul nahar. Va kullun fi falakin yasbahun»⁵. («Na quyosh uchun Oyga etish mumkin bo’lur va na kecha–kunduzdan o’zguvchidir, barchalari falakda suzib yurur»).

Alisher Navoiy quyosh, samodagi barcha sayyoralar va boshqa osmon jismlarining ma’lum yo’nalish asosida fazoda muallaq holda doimiy harakatdaligini tasvirlash orqali Haqning mo’jizaviy qudratining mislsiz, beqiyos ekanligini madh etadi. qasida satrlarida Ollohning barcha yaratqilari, hatto Arsh, Kursi, maloikalar ham uning xizmatida, burjlarning ko’pchiligi ham o’ziga tezroq Ollohning rasuli yaqinlashishini istashi mahorat bilan ulug’lanadi. Shundan so’ng ulug’ shoir Me’roj voqeasi tasviriga o’tadi va islom dinining insonparvarlik mohiyati tasviriga alohida urg’u beradi, Muhammad payg’ambarga “shariati g’arro” (“yorqin islomiy shariat”)ni “ravshan qilgan” Ollohga behad hamdu sano aytiladi.

Shoir o’z davrining sidqidil musulmoni sifatida Ollohdan qiyomat kunida gunohlarini maxfirat qilishini so’rab, qasidaning so’nggi–xotima qismini (xuddi nasib qismidagi singari) diniy mazmundagi an’anaviy hamd, munojot bilan tugatadi. Ma’lumki, XV asr ijtimoiy- siyosiy sharoitida yashagan Navoiyning tasavvufiy qarashlari diniy tushunchalar (aslida din irfon uchun begona emas) bilan bog’liqdir. U o’z davrining eng peshqadam ilohiy-irfoniy arbobi sifatida ilg’or tasavvufiy qarashlarni qanchalik qadrlasa, komil musulmon bo’lgani uchun shariat qonun-qoidalarini ham so’zsiz ado etardi. Shuning uchun ham «Sittai zaruriya»ning birinchi qasidasi ilg’or islomiy-irfoniy g’oyalar talqinidan iboratdir.

⁵ Куръони карим (таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур). -Тошкент: Чўлпон, 1992, 229-бет.

Sharq mumtoz adabiyotida Ollloh va olam aloqadorligi, bog'liqligi talqiniga bag'ishlangan juda ko'p asarlarda yuqorida sanab o'tilgan mavzular uzviy ketma-ketlikda (yil fasllari, to'rt unsur, 9 falak, 12 burj) tasvirlanadi. Bu "Sittai zaruriya"ning boy ilohiy va adabiy sarchashmalar zaminida yuzaga kelganidan dalolat beradi.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" masnaviysi, Nosir Xusravning "Ro'shnoinoma" dostoni, Amir Xusrav Dehlaviyning "Olam ul-ilm" va Abdurahmon Jomiyning "Jilo ur-ruh" kabi qasidalari fikrimizning yorqin dalilidir. Bu asarlarda har bir narsada Olllohning qudrati namoyon bo'lishi, U yaratgan mulki borliq mavjudotlarida zanjir halqalari kabi bir-biriga uzviy bog'lanib, turfa jihatlardan o'zaro aloqadorlikda amal qilishi hodisasiga alohida urg'u beriladi. Bu aloqadorlikning asosiy negizi barcha narsalar Inson va uning ruhi Mutlaq tomon taraqqiy etib borishi uchun yaratilganligi haqidagi ilohiy-irfoniy qarashlarga borib taqaladi.

Jumladan, "Avesto"da osmon jismlariga alohida ahamiyat berilgan hamda ularga ilohiy qudratning mo'jizasi sifatida qaralgan.

Qadimgi ajdodlarimizning nujumiy tasavvurlari ta'siri "Ruh ul-quds"dagi o'n ikki burjning birma-bir tasvirida ham yaqqol ko'zga tashlanadi:

Ba burji digar Aqrab ba junbish ovardy,
Chu kajdume, ki kunad xona dar qadim bino.
Farozi burji digar soxti kamonxona,
Ki charx tiri balo afkanad so'yi dunyo [29,206].

Boshqa bir burjda Aqrabni harakatga keltirding, Chayondayki, qadimiy uslubda o'ziga xona bino qilsin. Boshqa bir burjni baland kamonxona qilib yasadingki, charx undan dunyoning turli taraflariga balo tig'ini yog'diradi, deya ulug' shoir Olllohning qudratini ta'rif va tavsif etadi.

Mazkur baytlarda burjlarning nomi bilan ularning xalq tasavvuridagi xosiyatlari va erdagi voqealar bilan aloqadorligi hisobga olinib, chiroyli tashbehlar hosil qilingan.

Oллоҳ-олам алоқадорлиги, бог'лиqligining ixcham tasvirini «Qisasi Rabg'uziy»da o'qiyimiz¹. Mumtoz adabiyotda juda ko'p e'tirof etilgan mazkur fikrlarni Nosiriddin Rabg'uziy muxtasar bayon qilgan. Bunda Yaratuvchining cheksiz aql-zakovat sohibi ekanligi va buyuk yaratuvchanlik xususiyati yaqqol ko'zga tashlanadi.

Islomiy qarashlar va Oллоҳ-олам munosabatlarini ruhiy-vajdiy tafakkur qilish jarayonida tug'ilgan mushohadalarga tayanib, ba'zi dostonlarda olamning tuzilishiga doir maxsus boblar ajratilgan. Jumladan, etti sayyora va o'n ikki burjga maxsus bob bag'ishlagan Yusuf Xos Hojib «Qutadg'u bilig» dostonida o'n ikki burjni yetti sayyoradan ajratib ko'rsatadi hamda ularning ayrimlari juft-juft, ayrimlari esa toq ekanligini qayd etib, ularning uch-tasi–bahorgi, uch-tasi yozgi, uch-tasi–kuzgi va nihoyat uch-tasi–qishki yulduzlar deb e'tirof etadi. Dunyo to'rt unsurdan tashkil topgani singari bularning ham uch-tasi olov, uch-tasi–suv, uch-tasi–shamol va uch-tasi–tuproq ekanligi haqida badiiy mushohada yuritadi.

Amir Xusrav Dehlaviyning «Olam ul-ilm» qasidasida ham xuddi shunday tasvir usuli ustuvor:

Zuhra tab'am dar vabol az peshi in aqrabvashon,

Z-on chu aqrab xeshtanro xud qafoe mezanam².

«Sittai zaruriya» tarkibidagi birinchi qasidaning «Qasidai Ruh ul-quds»i dar tavhidi «Bori taolo» deb nomlanishining ham muhim asoslari bor. Ilohiy-islomiy qarashlarga muvofiq, Oллоҳning yakka-yu yagona Yaratuvchi ekanligini madh etish uchun asarlarning dastlabki kirish qismlari «Oллоҳ taolo tavhidi»ga bag'ishlangan. Jumladan, Nizomiy Ganjaviy «Xamsa»sining maxsus bir kirish qismi «Dar tavhidi Bori» («Bori taolo tavhidi haqida») deb nomlanadi³. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, jamiki narsa va hodisalarning muayyan bir uyg'unlikda doimiy harakatda ekanligi yagona buyuk Ruhning mo'jizaviy qudrati hosilasi sifatida talqin etiladi:

Chu gul sad pora kun xudro dar in bog',

⁶ Рабғузий Носируддин Бурхонуддин. Қисаси Рабғузий. Биринчи китоб. -Тошкент: Ёзувчи, 1990, 12-бет.

⁷ Дехлави Амир Хусрав. Осори мунтахаб. Дар чаҳор жилд. Жилди чаҳорум. -Душанбе: Ирфон, 1975, 829-саҳ.

⁸ Низомии Ганжавӣ. Куллиёт. Дар панх хилд. Жилди I. -Душанбе: Ирфон, 1983, 26-бет.

Ki natvon tandurust omad bad-in bog' [29,200].

«Ruh ul-quds» qasidasida ham gul timsollari tasviriga keng o'rin beriladi. Ulug' shoir rayhon, sunbul, nargis, lola, yosmin kabi gul timsollari orqali suluk ahlining ko'nglida porlagan ilohiy nur va uning turli go'zal shakllarda jilva qilishiga ishora qiladi.

Alisher Navoiy «Nasoyim ul-muhabbat»da Nosir Xusrav haqida ma'lumot berganda faqat «Ro'shnoinoma» asarini tilga oladi. Adibning 592 baytdan iborat bu masnaviysi Olloh-olam aloqadorligi, bog'liqligi talqiniga bag'ishlangan bo'lib, unda diniy, falsafiy, ma'rifiy, ijtimoiy-axloqiy qarashlar yuksak shoirona nazokat bilan kuylanadi. Kuzatishlar asosida shunga guvoh bo'ldikki, mazkur masnaviyning g'oyalar va mavzular olami mundarijasi Alisher Navoiyning «Sittai zaruriya» qasidalar turkumiga juda o'xshaydi.

“Sittai zaruriya” “Ro'shnoinoma”ga “Alloh-olam aloqadorligiga doir jamiki narsa-hodisalarni uzviy ketma-ketlikda tasvirlash nuqtai nazaridan yaqin turadi. Ammo Navoiyning maqsadi bu masalalarni faqat yoritishgina emas, balki Alloh-olam aloqadorligini ta'minlovchi Haq qudrati yashiringan ilohiy tizimlar chegarasini va ularning bir-biriga bog'liqligini aniq, ravshan ifodalashdir. Qasidalar ko'pincha daqiq ma'nolarni, ishoralarni nozik anglovchi kishilar saviyasiga moslab, yuksak did bilan yaratilgan. “Sittai zaruriya” turkumi ham ana shunday yuksak badiiy asardir. Chunki shoir “Sittai zaruriya”—“Olti zarurat” orqali bir necha oltilik tizimiga ishora qiladi.

“Sittai zaruriya” tarkibidagi birinchi qasidaning, ya'ni umumiy oltilik tizimining birlamchi asosini Ruh tashkil etadi. Shuning uchun asar “Ruh ul-quds” deb nomlangan. Mutlaq Ruh va undan ajralgan ruhning yana Unga qaytish (uruji) asoslari ifodalangan. Ruh quvvasidagi 6 jihat, asos Fariduddin Attorning “Ilohiynoma”sidagi “Ruhga murojaat qilib degani” qismida birma-bir izohlanadi: “Ruh-ajoyib bir qushsan, na erdasan, na osmonda, balki Tangri taolo huzuridasan. Sening asosingda oltita belgi bor, ammo ularning har biri bir jahon-alohida bir olam. Har biri-bir sohibqiron, bir qudrat.

7. Biri Nafs bo'lib, uning joyi sezgi a'zolaridir.

8. Biri Nafsi ammora bo'lib, ziddiyatlar, nifoq shundan.
9. Biri Aqlidir, aql muvofiqlikni, mantiqni boshqaradi.
10. Biri Ilmdir, ma'lumot, bilim to'plash bilan band.
11. Biri Faqrdir, fano-yo'qlik istar hamisha.
12. Biri Tavhiddir, Yagona zot istar va Unga intilar doim"⁴.

“Olti zarurat” tarkibidagi birinchi qasidaning “Ruh ul-quds” deb nomlanishining asosiy manbai ham shudir. “Ruh ul-quds” qasidasi–“Hayrat ul-abror” dostoni singari dasturiy–muqaddimaviy asar. Yuqorida sanab o'tilgan ruhning olti quvvasi haqida “Sittai zaruriya” turkumidagi qasidalarning har birida qayta-qayta (yangicha tasvir usulida) izohlanadi. Chunki Alisher Navoiy Oллоh-Olam aloqadorligining barcha sabablarini ruhning ana shu olti jihatiga tegishli deb biladi. Bu oltilik tizimi tarkibiy qismlari o'z navbatida yana bir necha oltilik tizimiga bo'linadi, ya'ni Inson va Koinot, Inson va Mavjudot, Inson va Ilohning o'zaro bog'liqligi olam olti ilohiy kun mahsuli (“Ruh ul-quds”da bu xususda ma'lumot beriladi), olti “nodir jihati koinot va faqr ruknlari (“Aynul - hayot” va «Tuhfat ul-afkor» qasidasida bunga ko'proq urg'u beriladi), olti iymon arkoni tarkibiy qismlari (“qut ul-qulub”da arkoni iymon shartlari keng izohlanadi), jism qafasida ruhning sog'lom taraqqiy etishining olti tibbiy asosi (“Minhoj un-najot”da bu masalaga doir asosli ishoralar bor), namoz faroizidagi olti xorij va doxil farzlar (“Nasim ul-xuld” va “Qut ul-qulub»da bu masalalar tasviriga kengroq ahamiyat berilgan) bir-biriga bog'liq ravishda bir ilohiy mohiyatga borib taqaladi va shu tariqa oltilik tizimi–“Sittai zaruriya” shakllanadi. Bu oltiliklarning barchasi umumiy bir ilohiy maqsadga–odam jismi qafasidagi ruhni Mutlaq Ruh tomon taraqqiy etib borishini ta'minlovchi uzluksiz tadrijiy jarayonga xizmat qiladi. O'rni kelganda ta'kidlash joizki, jismda ruhning sog'lom taraqqiy etishining olti tibbiy asosiga doir qator asarlar yaratilgan. Sharq tabobatida olti zarur narsa (sittai zaruriya) degan istiloh bor. Bu haqda Ibn Sino, undan oldin va keyin o'tgan olim-tabiblar ham yozishgan. Ana shunday tabiblardan biri XV asrda Xurosonda yashab etgan Yusufiy

9 Аттор Фаридуллин. Илоҳийнома.-Тошкент: Ёзувчи, 1994, 12-бет.

Heraviydir. U «Risolai sittai zaruriya» asarida olti tibbiy asos haqida fikr yuritadi. Olti tibbiy zaruratga doir qarashlar «Hakimlar hikoyati», «Tabobat xazinasi durdonalaridan» kabi risolalarda ham keng izohlangan⁵.

Alisher Navoiy o'zigacha o'tgan betakror tafakkur egalarining har biri ijodidagi eng ilg'or xulosalarni teran anglab etdi va alohida-alohida xulosalarni yashash tajribasi orqali ijodiy ravishda bir o'zanga birlashtirdi. Shuning uchun bu turkumni «Sittai zaruriya» deb nomladi. Chunki Haqqa etishning asosi sog'lom Ruhdir, ulug' shoir esa turkumdagi har bir qasidada ruhiy-ma'naviy poklanish tasviriga alohida ahamiyat beradi. Iso kabi Ruhga aylanish shoir lirik qahramonining ezgu orzusidir. «Xazoyin ul-maoniy»da boshqa ilohiy nomlarga nisbatan Iso Masihning behad ko'p tilga olinishining asosiy sababi ham shunda.

«Sittai zaruriya»ni yozishdan maqsad Ruhning qudratini madh etish edi. Mazkur turkum tarkibidagi har bir qasidada faqr-u fano ulug'lanadi. Bu yuksak maqomga etgan kishiga esa Haqdan o'zga hech qanday zarurat qolmaydi. Ulug' shoirning bu xususdagi umumiy xulosasini «Favoyid ul-kibar»ning 506-g'azalida ham ko'rishimiz mumkin.

Fanoiy mahz etar «Sittai zaruriya»,

Nedinki yo'qqa zarurat emas bu nav' oltov⁶.

Ulug' Navoiy oltilik tizimi asosidagi aloqadorlik qonuniyatini «Sittai zaruriya» qasidalar turkumi g'oyalari bag'riga singdirgan. qasidalar alohida-alohida olinganda mustaqil asar sifatida yuksak badiiy qimmat kasb etadi. Chunki turkum tarkibidagi olti qasidadan to'rttasi—«Tuhfat ul-afkor» Amir Xusrav Dehlaviyning «Daryoi abror» qasidasiga, «Qut ul-qulub» Anvariyy qasidasiga, «Minhojun najot» Xoqoniy va Anvariyy qasidalariga, «Nasimul ul-xuld» esa Xoqoniy qasidasiga javob, tatabbu' tarzida yozilgan. Alisher Navoiy bu mashhur qasidalarning mavzui va shaklini saqlagan holda, ularni mazmunan rivojlantirib, yangi g'oyalar, fikrlar,

¹⁰. Ҳақимлар ҳикояти. -Тошкент: Медицина, 1985, 125- б.

¹¹. Навоий Алишер. Мукамал асарлар тўплами. 20 томлик. 6-том. Фавойид ул-кибар. -Тошкент: Фан, 1990, 343-бет.

adabiy san'atlar orqali to'ldirgan, yangi ruhdagi qasidalarni vujudga keltirib, o'z san'ati va mahoratini namoyish etgan.

Yuqorida bildirilgan mulohazalar quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi:

1. Hamdlar mazmuni faqat Ollohni madh etishga bag'ishlangan bo'lsa-da, maqsadiga va etakchilik qilayotgan g'oyaga ko'ra farqlanadi. Mazkur jihatning o'zi hamd yo'nalishidagi asarlarni shar'iy-targ'ibiy, ma'rifiy-targ'ibiy, ma'rifiy-badiiy, badiiy-ma'rifiy kabi turlarga bo'lib o'rganish asosini beradi.

2. Har bir asarni hamd bilan boshlash Navoiygacha ham mavjud edi. Ammo Sharq mumtoz adabiyotining biror bir namoyandasi ijodida bu an'ana yaxlit shaklda (farddan dostongacha) namoyon bo'lgan emas.

Alisher Navoiy Sharq devonchiligi ravnaqini mavzu-ma'no nuqtai nazardan muayyan bir tizimga soldi va har bir asarini Olloh hamdi bilan boshladi.

3. Ulug' shoir ilohiy-irfoniy, ijtimoiy-falsafiy qarashlari ifodalangan hamd g'azallari va «Ruh ul-quds» qasidasini bevosita ilohiy-islomiy sarchashmalardan bahra olgan asar sifatida e'tirof etish mumkin. Ana shu nuqtai nazardan hamd g'azallar va «Ruh ul-quds» qasidasining badiiy tasvir uslubi bir-biriga juda yaqindir.

4. Sharq mumtoz adabiyotida Olloh va olam aloqadorligi, bog'liqligi talqiniga bag'ishlangan Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Nosiruddin Rabg'uziyning «Qissasi Rabg'uziy», Nosir Xusravning «Ro'shnoinoma» dostoni, Xusrav Dehlaviyning «Olam ul-ilm» va Abdurahmon Jomiyning «Jilo ur-ruh» kabi qasidalarida mavzular uzviy ketma-ketlikda (yil fasllari, to'rt unsur, to'qqiz falak, o'n ikki burj) tasvirlanadi. Bu esa mavzular silsilasi xuddi shu tizimda yaratilgan «Sittai zaruriya»ning boy adabiy manbalar zaminida yuzaga kelganidan dalolat beradi.

5. Alisher Navoiy oltilik tizimi asosidagi aloqadorlik qonuniyatini «Sittai zaruriya» («Olti zarurat») qasidalar turkumi bag'riga singdirgan va Haqqa etishning asosi sog'lom Ruh bo'lgani uchun turkum tarkibidagi birinchi dasturiy-muqaddimaviy qasidani «Ruh ul-quds» deb atagan.

Turkum tarkibidagi qasidalar otilik tizimi asosida birlashib, yaxlit sistemani tashkil etadi, alohida olinganda esa yuksak badiiy qimmatga ega har bir qasida mustaqil badiiy asar talablariga javob beradi. Hamd g'azallarning manbalari, poetikasi va timsollari.

Islomiy-irfoniy tasavvurga ko'ra, inson ikki asos – jism va ruhdan, inson jismi esa to'rt unsur - suv, olov, havo, tuproqdan iborat. Inson o'z ruhi bilan farishtalarga, jismi bilan esa tabiatga, ya'ni hayvonlarga borib taqaladi. Bular haqida Qur'oni Karimning bir qancha oyatlarida xabar berilgan. "Vas-safat" surasi 11-oyati ("Biz insonlarning asli-avvali bo'lmish Odam alayhissalomni yopishqoq bir loydan yaratgandirmiz").

Inson hayvon bilan farishta o'rtasidagi maxluq. Tabiat bilan ana o'shanday bog'liqlik uning qattiqligini, dag'alligini keltirib chiqaradi. Ruh esa insonni ma'naviy kamolotga etaklaydi. Chunki ruh g'ayb olamining "mulki", u insonga latif bir quvvat bag'ishlaydi.

Ba xoki xismash boroni rahmat afshondy,

K-az on muloimat ovar d tinatash paydo.[29,199].

Tuproqdan yaralgan jismi ustiga Rahmat yomg'irini yog'dirding, o'shandan uning fe'l-atvorida muloyimlik paydo bo'ldi. Biroq, inson tabiati to'la poklanmadi...(10-bet).

Qur'oni Karimning "Al-Isro" surasi 85-oyatida o'qiyimiz: "Va yas'alunaka anirruh qulir ruhu min amri rob" (Ey Muhammad, Sizdan ruh-jon haqida so'raydilar. Ayting, "Ruh yolg'iz Parvardigorim biladigan ishlardandir ". Ruh ilohiy ma'rifat, hikmatu donish bilan oziqlanadi. Shuning uchun ruhoniy hayot zavqidan bahramand bo'lgan ulug' insonlar xolis, beg'araz, nekbin, muloyim, mehribon, shafqatli, himmatli bo'ladi. Demak, insonning mohiyati ham shu Ruhdadir. Zayniddin Muhammad G'azzoliy "Kimiyo saodat" asarida ruhni shunday ta'riflaydi: "Ruh odam vujudining aslidurkim, hamma qolip va badan aning

tobe'idur. Vaqtiki ruh bo'lmasa tan murdordurki, aning hech e'tibori yo'qdir. Badan markab va suvor ruhdir"⁶.

Insonni boshqa mavjudotlardan ajratib turuvchi yana bir noyob fazilat haqning unga ilm-u irfonni taqdir qilganligidir. Oллоh inson Qalbini ilm-u irfon xazinasini qilib, shu irfonda o'zini yashirgan: Qasidada insonni mumtoz etadigan eng yuksak mo'jiza – aqli kull va ko'ngil alohida ta'kidlab ta'riflanadi. Shoir tashbeh-tamsil san'ati vositasida go'zal manzara yaratadi:

Dar o' nishonidi dilro ba taxti sultoni,
Ki shud ba rasmi salotin xidevi mulkoro.
Xirad vazorati on shohro muayyan shud,
Gadoi shohonu vaziron, kamina banda turo[29,199].

Mazmuni: Unda (badan shahrida) podshohlik taxtida yurakni o'tqizding. Shundan u (yurak) sultonlik rasmida mulk-u mamlakatning sohibi bo'ldi. U shohning vazirligiga donishmandlik (aql) muayyan bo'ldi. Aslida gado-yu shoh-u vazirlarning barchasi Sening kamtarin bandalaringdir. Shoir mazkur fikrlarini Qur'oniy oyatlar mazmuni bilan asoslaydi.

Zi ilmi ma'rifatash chunki bahravar kardi,
Maloikash ba suxud omadand abdosu [29,200].

Maloikalar Oллоh azza va jallaning farmoni qoshida ojiz qolgach, Odam alayhissalom ularga mavjudot haqiqatini bayon etadi. Tuproqdan yaralgan hazrati Odam alayhissalomning ilm-u ma'rifati fayzidan etti qavat osmon ham munavvar bo'ladi. Ana shu ilm-u ma'rifat tufayli hazrati Odamga maloikalar qullarday sajdaga keladilar. Chunki Insonda zavq–ruhiy kamolot nuri kabi hikmat aks etgan nodir xislat mavjud. U Iloh ma'rifatini zavq-u shavq bilan his etish jarayonida ruhiy yuksaklikda farishtadan ham o'zib, ma'nau haqning o'ziga etishi mumkin.

Xoliqi A'zam o'z husnini tomosha qilish uchun o'ziga ko'zgu–moddiy olamni yaratdi. Olam esa inson tufayli bunyod qilingan. Bu haqda: "Lav laka limo xalaqtu l-aflok" (Agar sen bo'lmasang, osmon-falaklarni yaratmagan bo'lar edim),

¹². Ғаззолий. Кимийи саодат. –Тошкент: Камалак, 1995, 14 бет.

degan hadis ham bor. Moddiy olamning javhari– Inson qalbi, uning ko'ngli. Insonni yaratishdan maqsad ham ko'ngilning qudratini namoyish etish edi. Chunki ko'ngil – haqnazargohi. Inson uchun, uning baxt-u istiqboli, farovonligi uchun qayg'urgan ulug' shoir ham ko'ngil so'zini takror-takror zikr etishni xush ko'radi:

Dar u nishondi dil ro ba taxti sultoni,

Ki shud ba rasmi salotin xidevi mulkoro [29,201].

Mazmuni: Unda (badan shahrida) podsholik taxtida yurakni o'tqizding, Shundan u (yurak) sultonlik rasmida mulk-u mamlakatning sohibi bo'ldi.

Ulug' shoir nuqtai nazaricha, ko'ngil – Ollohning hikmati, nuri aks etgan eng qutlug', yuksak, pokdomon manzildir.

Imom G'azzoliy dil haqiqatini "Podshoh dilni va aning sifatlarini tanimoq hazrati haq subhonahu va taoloni tanimoqning kalididir... Saodat va shahvat asli aning (dilning) sifatidir va badan hamma ahvolda aning tobe'idur",- deya ta'riflaydi⁷. Shuning uchun mohiyatni anglashga faqat qalb qodir. Teran tasavvur, hissiy-vajdiy tafakkur orqali ko'ngilning sirli ajoyibotlari qudratidan bahramand bo'lish, ruh kuchi yordamida yurakka atalgan sultonlik–xurlik taxtini egallash mumkin. Hurlikka erishgan ko'ngil Ollohning chin oshig'idir. Oshiq yurak esa Iloh va inson sir-u sinoatidan xabardor, kuchli va nurli hislarga boy bo'ladi.

Ko'ngil – Olloh yashiringan tilsimot. Tilsimot qonuniyati sirlarini – buyuk Tangri ma'rifatini ulug' mutafakkir o'z hayotiy kuzatishlari asosida navoiyona xassoslik bilan badiiy talqin etadi.

Ko'ngil - Olloh ilmi va ishqining xazinasi, uning egasi inson shuning uchun ham olam mehvari, oliy mavjudotdir. Shul bois hazrat Navoiy Ka'ba deb ko'ngilni tan olgan va unga sig'ingan:

Ka'baki olamning o'lib qiblasi,

Qadri yo'q andoqki, ko'ngil Ka'basi.

¹³ Ғаззолий Кимиёи саодат. –Тошкент: Камалак, 1995, 15-бет.

Inson – Xudoning erdagi xalifasi, uning ilmu karomati, sir-asrori, qudrati va hikmati aks etgan mo'jiza. Falaklar uning nafasi bilan aylanadi, jamiki mulk-u malakut undan ta'lim oladi.

"Etti torami a'lo", "to'qqiz sipehri muallo", Arsh, Kursi, jamiki mavjudot uning uchun, u tufayli yaratilgan:

Sabab muhabbati o'yu zuhuri sun'at bud,
Ki xalqi moxalaqulloh soxti ifsho [29,207].

Sababi–unga (Muhammad payg'ambarga) bo'lgan (Sening) yuksak muhabbating yaratilishining zuhuri ediki, xalq etilgan narsalarni u tufayli oshkor qilding.

Olam – ishq mahsuli. Mazkur baytlarda vahdat ul-vujud (birlik) ta'limotining asosiy masalasi Ilohning insonga, insonning Ilohga muhabbati tasvir etilgan:

Zuhuri husnung uchun aylabon mazohirni,
Bu ko'zgularda ani jilvagar qilib amdo.
Chu jilva ayladi ul husn istabon oshiq,
Saloyi ishqin etib ofarinish ichra nido⁸.

Hayrat, hissiy tasavvur va ruh kuchi bilan yaratilgan Alisher Navoiyning “Sittai zaruriya” qasidalar turkumida Inson va Koinot, inson va mavjudot, Inson va Ilohning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi, Inson ruhining ulug' olamlar bo'ylab sayr etib, Iloh tomon ko'tarilishi (uruj), insoniylik darajalari, ruh taraqqiyoti darajalari - pok ruh (ruh ul-quds) bilan belgilanishi, mavjudotning xulosasi va qaymog'i Komil Inson insoniyatni boshqaradigan buyuk ruh ekanligi kabi islomiy-irfoniy falsafiy g'oyalar talqin etilgan.

14: Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 6-том. –Тошкент: Фан, 1990 10-бет.

II bob

“Sittai zaruriya”ning g’oyaviy- badiiy asoslari va o’ziga xosligi

II. 01. “Sittai zaruriya”ning ilohiy – islomiy sarchashmalari

“Sittai zaruriya”ning birinchi qasidasini Navoiy

“Ruh ul- quds”(Pok, muqaddas ruh) deb nomlagan. Qasida Alloh taolo tavnidi tasviriga bag`ishlangan. Butun olam yagona Ruh qudrati hosilasi ekanligi, bu qudrat eng kichik zarradan cheksiz koinot qadar har bir ashyo va harakatda namoyon bo`lishi bayon etiladi.

Qasidaning matla`i mana bunday:

Zihi ba xomai qudrat musavvari ashy

Hazor naqshi ajab har zamon az o` paydo.

(Butun narsalarga surat bag`ishlagan—yaratgan Quدرات qalamiga ofarin. Har lahzada bu qalamdan ming-ming ajoyib naqsh—suratlar paydo bo`ladi).

Navoiy dostonlaridagi birinchi boblarda va barcha “hamdiya g`azallari”da bo`lganiday, ushbu qasidada ham tavhid mohiyati tasavvufning vahdatul vujud ta`limoti asosida talqin etiladi. Ya`ni olam yakka-yu yagona Parvardigor qudrati bilan yaratilgan va ana shu Ruhi mutlaqning tajallisi tufayli mavjudlik topadi, u uzluksiz harakat va faoliyatdadir. “Ruh ul- quds” qasidasida ushbu beintiho Quدراتning nimalarda ko`rinishi, Uni idrok etish, anglash, qat`iy ishonch hosil qilish(iymon) masalasi yoritilgan. Shu ilohiy qudrat tufayli yer-u osmon, oy-u quyosh bir muntazamlilikda harakat qiladi. Qatra ham, uqyonus ham, zarra ham, quyosh ham, yetti sayyora, to`rt unsure, to`qqiz qavat osmon, falak va malaklar mavjud. Uning lutfi bilan ojizlar qudrat topishi va aksincha, qudratlilar haqir-u nochor bo`lishi mumkin. Layli va Uzroda huningni namoyon qilib, bu orqali Majnun va Vomiqni O`zingga shaydo qilgansan, bulbulning shavqi-yu parvonaning talpinishi ham Sen uchundir, deydi shoir.

Qasida 12 qismdan iborat. 1-qism—nasibda (9 bayt) ilohiy qudratga umumiy ta`rif berilsa, 2-qismda (20 bayt) odamning yaratilishi, odam xiqati haqida so`z boradi. 3-qismdan 7-qismga qadar (45 bayt) yilning to`rt fasli ta`riflanadi. Zamon va makon tushunchalari, fasllarning almashinib turish qonuniyati, turfa ko`rinishdagi rangli olam jilolarida Ilohiy qudrat sun` va sinoatining namoyon bo`lishi ko`rsatiladi.

Keyingi qismda bahor faslining qaytalanishi tasvirida sobit-u sayyoralarning ta`siri, sayyoralar haqidagi qadimiy tasavvurlar xususida fikr bayon etiladi. So`ngra o`n ikki burjning har birining tavsifi keladi. Shu tasvir asnosida Arsh,Kursi,maloyikalar ifodali baytlar bilan ta`riflanib, ana shu bepoyon olamda Payg`ambarimiz Mustafo (SAV) Me`roj kechasi yashin kabi sayr etib chiqqanlari va oniy bir lahzada

Alloh huzurida bo`lib 90 ming kalomi ilohiyni tinglab, qaytib kelganlarida hali to`shaklari sovimaganligi va bu Parvardigor ko`rsatgan bemisl mo`jizalardan biri deb aytiladi.

Navad hazor suxan gufta boz gardondi,

Ki garm bud zi sayri chuni hanuzash jo.[29,206].

(90ming so`z aytib, yana orqaga jo`natding, Bu sayrdan qaytib kelganda, o`rin hali issiq edi.)

Shu tasvirlardan keyin Navoiy Xudovandi Karimga iltijo etib, bir necha bayt munojot bitadi va oxirida qasidaning yozilish tarixi(1494-yil), nomlanishi haqida ma`lumot beradi. Qasida 132 baytdan iborat bo`lib, quyidagicha tugaydi:

Umed on, ki ba anfosi qudsiyam baxshi,

Takallumi, ki saroyam payi tu hamdu sano.[29,208].

(Umidim shuki, menga qudsiy nafas(nutq) bag`ishlasang, toki sening uchun hamd-u sanolar aytsam).

“Ruh ul quds” qasidasi A.Navoiy dunyoqarashi, tafakkur olamini chuqurroq o`rganishimizga yordam beradi. Ya`ni shoirning olam va odam haqidagi tushunchalari muayyan tizimga ega: Olam o`z-o`zidan mavjud emas, u yaratilgan. Uni Olloh taolo yaratgan. Demak, borliq asosida aynan Olloh taolo—muqaddas pok nur(ruh) yotadi. Bu ruh(nur)ning qudrati cheksiz, kattadir, kichikdir biror narsa yo`qki, undan tashqarida bo`lsa, uning qudratini his etmasa.

Shu Qudrati Parvardigor olamni yaratgach, odamni ham yaratdi va unga ulug` martaba berdi:

Chu az zamin – ash bardoshti ba sad e`zoz,

Ba martaba guzarondi zi torami xuzro.

Baxoki jismash boroni rahmat afshondi,

K-az on muloimat ovard tiynatash paydo[29,198].

(Loydan yasab, keyin uni yerdan yuz e`zoz bilan ko`tarding, martabasini osmon gumbazidan oshirding. Tuproq jismiga rahmat

yomg`irini sochding, shundan tiynati tirikchilik va harakatchanlik paydo qildi).

Shundan keyin Navoiy-Foniy odam badanining tuzilishi, uning ichki va tashqi a`zolari vazifasi, jism mo`jizaviy mukammalligi, odam jismining tuzilishi bilan olam tuzulishi orasidagi yaqinlik haqida yozadi. Odamdagi har a`zo—asab, qon aylanishi, yurak, hissiy a`zolar barchasi Olloh qudrati mo`jizasi, ammo bular orasida ikki narsa odamni mumtoz etadigan yana ham ulug`roq mo`jizalardir. Bular aql va ko`ngil. Agar inson badani bir mamlakat bo`lsa, ko`ngil uning shohi, aql esa uning vaziridir:

G`arib kishvare orosti zi shahre badan,
Ki mulk to malakut on chi hast—hast on jo.
Dar o` nishonda dilro ba taxti sultoni
Ki shud ba rasmi salotin xidevi mulkoro.
Xirat vazorati on shohro muayyan shud,
Gadoyi shoh-u vaziron kamina banda turo[29,207].

(G`aroyib bir mamlakat tuzdingki, moddiylikdan malakkacha unda bor. Bu mamlakat taxtiga dilni shoh qilib o`tqazding, to u bu mulkni egallab, hukmron bo`ldi. Bu shohga aqlni vazir etding. Bunday shoh bilan vazirlarga gado bu kamina Sening bandangman).

Bu tashbeh-tamsildan ijtimoiy ma`no ham kelib chiqadi, ya`ni agar shoh poklik masnadida yurt posboni bo`lsa, barcha tadbir va dasturlarning mutasaddisi, aql-u zakovat timsoli bo`lmog`i lozim. Bunda Navoiyning dil-ko`ngilni birinchi o`ringa qo`yganligi ham diqqatni tortadi. Chunki Navoiy nazdida ko`ngil Olloh makoni, demak, adolat, oily darajadagi bilimdonlik, g`ayb asroridan boxabarlik, inson vujudini boshqarish Ko`ngilga tegishli. Ko`ngil insonning e`tiqodi, iymoni ramzi, aql ham, bilimlar ham, tafakkur ham Ko`ngilga tobe` va unga xizmat qiladi. Bu ham so`fiyona ta`limot va ham shoirona idrok-u tasavvurga mos tushunchadir. Zero, Olam Arshida Olloh hokim bo`lsa, Inson vujudi

mulkida Ko`ngil hokim. Insonning o`zi esa agar u komil bo`lsa, jamiki maxluqotlarga sarvar, ya`ni Ollah xalifasi. Ammo bu martabani qozonish uchun inson o`z nafsiga hokim bo`lib, Ko`ngilga aylanishi kerak. Inson shu uchun suratda olami sug`ro, ma`nida olami kubro bo`la oladi.

Bu Ollah qudratining ulug` mo`jizasi. Navoiy iborasi bilan aytganda, inson—ajiba, ya`ni mo`jizaviy hayrat timsoli. Zero, unda yer-u ko`k, jonzotlar, o`simliklar xususiyati ham, yana Ollah omonati—Aql va Ishqni ham bo`yniga olgan:

Dar on ajiba namudori az hama kardi,

Amonatro ham dodiyash ba rasmi xafo[29,204]

(Bu ajibada hamma narsani namoyon etding, yashirin saqlash uchun omonatingni ham berding).

“Yashirin saqlash uchun” iborasi Qur`ondagi “Men banda qalbida muhabbat bo`lib kirgan yashirin xazinaman” oyatiga ishoradir.(“Baqara” surasi, 151-oyat)

Mana shu olami kubro (ulug` odam) bo`lgan inson vujudi to`rt unsurdan(havo, olov, tuproq, suv), odamning mijozi ham to`rt xil: issiq, sovuq, ho`l, quruq. Tabiat ham to`rt fasldan iborat: bahor, yoz, kuz, qish. Ushbu qasidada Ollahning qudrati namoyishi bo`lgan to`rt fasl xususiyatlari bir-bir tasvir etiladi: bahordagi tabiat jonlanishi, gullolalarning barq urib ochilishi, yoqimli shamollar esishi, yomg`irning hayotbaxshligi va h.k. shu kabi yozning issig`i-yu saraton tafti, kuzning sokinligi, mudroqlasha borish, pishiqchilik gashti, qishning shiddatli sovug`i ham jonlantirib, inson tasavvuri va hissiyotlari idroki bilan bog`lab tasvirlangan. Shoir bahorni yosh bola, yozni o`spirin, kuzni yetuklik, balog`atga yetgan odam, qishni umr adog`i sifatida tashbeh etadi. Masalan, yerdan maysalarning nish urishi tasviri:

Ki did piri furo`rexta ba xoki zamin,

Ki sar barovard atfolon ba nash`-u namo[29,204].

(Yoqimli bahor nasimi ta'siridan qari yerning tuprog'i yasharib, yosh go'daklar misoli maysalar nash`-u namo etib bosh ko'tardi.)

Yoki yozning boshlanishi ajoyib so'z o'yini va jonlantirish san'ati bilan tasvirlangan

Fikand otashi ayyomi sayf dar olam,

Chu barqi oh zi anfosi oshiqi shaydo[29,205].

(Yozning olovini olamga tushirdi. Bu xuddi shaydo oshiq nafasidan chaqilgan chaqmoqday edi.)

Bu baytda "sayf" ikki ma'noli: 1) yoz va 2) qilich. Shu bois qilich va olov, qilich, olov va chaqmoq qiyoslab olinib, chiroyli tasvir hosil qilingan. Ya'ni yozning otashi qilich dami—chaqmoqday tushdi. Bu issiqlik shiddati oshiq ohining shiddatini eslatadi.

Ko'rinadiki, shoir tashbihlari inson kechinmalari va o'zining so'fiyona g'oyalari bilan bog'liq holda tuzilgan. Masalan, qishda daraxtlarning yalang'och bo'lishini yov lashkari talagan shaharga, uzun tunlarni yorning uzun sochiga, sovuq shiddatini barbod etgan vaboga o'xshatgani ham so'z san'ati sehridan darak berib turadi.

Bu o'rinda shuni aytish kerakki, Navoiy-Foniyning "Fusuli arbaa" deb nomlangan to'rt forsiy qasidasi ham fasllar ta'rifiga bag'ishlangan bo'lib, undagi san'atkorona tasvir bilan "Ruh ul quds" qasidasi tasvirlari yaqin keladi. Farqi shundaki, "Fusuli arbaa" deb u tasvirlar kengroq berilgan.

Chunonchi, "Saron" qasidasining matla'i:

Boz otashi xo'r soxt samandar saratonro,

Afo'rxat chu otashkada gulzori jahonro[29,322].

(Quyosh olovi yana saratonni samandarga aylantirdi, jahon gulzorini otashkada-olov qo'rasi kabi yondirdi.)

Bunda ham so'z o'yini bor "saron" yozning ikkinchi oy nomi va qisqichbaqa (burj nomi). Quyosh olovining zo'ridan qisqichbaqa samandar-o't ichida yashovchi jonivorga aylandi deya mubolag'a san'ati

va yashirin tashbeh san`atini ishlatadi shoir. Gulzorni esa mug`larning olov ibodatxonasi—otashkada bilan qiyos etgan, ya`ni yoz bahor gulzorini olovxonaga aylantirdi deb tasvirlagan. Navoiy “Saraton” “olov”(otash) obrazini rivojlantirib boraveradi va issiq yozning aniq lavhalarini ashyoviy tasvirlar bilan qayta ko`z oldimizga keltiradi.

“Ruh ul - quds”da ham, “Fusuli arbaa”da ham tabiat garchi Parvardigor qudrati namoyishi sifatida talqin etilsa-da, ammo tabiiy o`zgarishlar, harorat, rang, muhit almashinishi inson hissiyoti, ko`zi orqali, qarashlari bilan tasvirga tushirilgan. Bu yulduzlar, oy, quyosh, burjlar tasvirida ham aniq sezilib turadi.

Shunday qilib, “Ruhul quds” qasidasi Alloh taoloning qudratiga madhiya. U yaratgan olam ajoyibotlari tavsifi va tasviridir. Shoirning olamni yagona Pok Ruh ijodi deb qabul qilgani, islomiy-so`fiyona e`tiqodi har bir baytda chuqur aks etgan. Bu g`oya qasida so`ngida munojot tariqasida yana bir bor xulosalangan:

Buzurgvor Xudoyo, ba haqqi tasbehat,

Ki zokirand bad-on xayli olami bolo.

Ba zoti pokat, k-ash misl nabvadu monand

Ba fayzi qudsat, k-ash shabeh nabvadu hamto.

Ba hurmati nabialloh, ki hast chun xushed,

Ba farri makramatash xayli zarra jumla guvoh.

Ki to muqayyadi dori fano buvad Foniyy,

Bidor siyrati o` dar tariqi faqr-u fano[29,200].

(Ey ulug`vor Xudovand, yuqori olam xayli zikringda bo`lgan tasbeh-u duo haqqi, misol va o`xshashi yo`q pok Zoting qiyosi va tashbehi bo`lmagan pokiza fayzing haqqi, quyoshday porloq Nabiyulloh hurmati, zarradan koinotgacha hamma guvoh bo`lgan uning mukarramligi nuru haqqi, Foniyyning, toki u bu foniyy olamda hayot qaydida ekan, siyratini faqr-u fano tariqida tut. Vafotidan so`ng lutf-u karaming ila siyla.)

Bu soʻzlar qasidani oʻqigan odamning qalbini junbushga keltiradi, pok Parvardigorga muhabbatimizni oshiradi, dilimizga ilohiy nur kiritadi. Sheʼrning, sanʼatning qudrati va fazilati mana shunda.

Shunday qilib, “Ruhul quds” qasidasida:

1. Ollohning yakka-yu yagonaligi gʻoyasi, yaʼni tavhid gʻoyasi dunyo hodisa va narsalari xususiyatlarini anglatish orqali isbotlanadi. Boshqacha aytganda, moddiy dunyoni idrok etish orqali Olloh qudrati, sifatleri idrok etiladi. Ilohiy maʼrifat dunyoda koʻringan ilohiy hikmat vositasida tushuntirilib, talqin etilgan.
2. A.Navoiyning Olam yagonaligi, olam asosida Mutlaq ruh yotishi, Mutlaq ruh Tajallisi moʻjizalari, Olam va odam orasidagi uzviy aloqa borasidagi qarashlari falsafiy-soʻfiyona maʼnolar bilan, nozik va yorqin tashbehtar bilan tushuntirilgan.
3. Shoirning Pok Parvardigorga cheksiz muhabbati, Uning moʻjizalaridan hayrati bundan hosil boʻlgan porloq badiiy tasvirlarida namoyon boʻlgan.

“Sittayi zaruriya”dagi ikkinchi qasida Muhammad Mustafu(SAV)naʼtiga bagʻishlangan boʻlib, u “Aynul hayot”(“Hator chashmasi” yoki “Hayot manbai”) deb nomlangan.

Maʼlumki, Navoiy ijodida Paygʻambar(SAV)ga bagʻishlangan naʼtlar koʻp. Har bir devon avvalida Parvardigor hamdidan keyin Paygʻambari Akramga atalgan naʼt gʻazallar keltiriladi. Baʼzi devonlarning oʻrtalarida ham naʼt gʻazal bor. Dostonlar ham avval Xudovan hamdi, soʻngra Pʻaygʻambar naʼti bilan ochiladi. Bu—anʼana. Xuddi shu singari “Sittai zaruriya” yaxlit bir asar deb qaralgani uchun birinchi qasida tavhidi Bori Taoloni talqin etsa, ikkinchi qasida Paygʻambar Meʼroji tasviriga bagʻishlangan. Meʼroj Navoiyning alohida sevgan mavzuidir. Chunki Navoiy ham, boshqa soʻfiy yoki mutasavvif shoirlar ham Paygʻambar Meʼrojida tasavvuf gʻoyalariga yaqin narsani va soʻfiylarning ruh uruji

(ko`tarilishi), tariqat maqomlarini egallab, Parvardigor huzuriga musharraf bo`lish g`oyasining isbotini ko`radilar.

Shu bois Me`roj kechasi Rasuli Akramning Koinot bo`ylab sayri, Buroq otida Jabroil (AS)jilovdorligida yeti qavat osmondan oshishi va Arshga yaqinlashib, Ollah bilan suhbatlashishi katta shavq-u zavq, qaynoq ilhom bilan tasvirlanadi. Bu tabiiy. Chunki ushbu mavzu o`z xususiyati va mohiyati bilan shoironadir. Shu bois u buyuk shoirlar ilhomini qanotlantirgan. Va e`tiborlisi shuki, Navoiy dostonlari, xoh g`azal, xoh qasidalarda bo`lsin, har gal ushbu mavzuni yangi, toza tasvirlar bilan yoritadi, aynan takrorlamay, yangi usullar qo`llaydi.

“Aynul hayot” qasidasida ham asosan, Me`roj tuni tasvirlangan va alohida yo`l tanlangan. Qasida 106 baytdan iborat, ammo shundan 40 bayti bevosita Payg`ambar(SAV)ning Arsh tomon ko`tarilishlariga bag`ishlangan xolos. 66 bayt esa ana shu Me`roj kechasining tasviri, yani Rasululloh yo`lga chiqqunlarigacha bo`lgan osmon holati, sobit va sayyora yulduzlar, yer ashyolari bir-bir tasvirlanadi. Go`yo butun Koinot, falak, Muhammad Mustafo(SAV)ning Me`rojiga tayyorgarlik ko`rayotgani, rostlanib, bezanib, shukuhlanib, intizorlik bilan kutayotgani bayon etilgan. Zero, bu alohida Tun, Parvardigor o`z Rasuli, habibi bilan diydor ko`rishgan fayzli, jozibali Tun edi. Buni asarning birinchi baytidayoq sezish mumkin:

Hochiboni shab chu shodurvoni savdo afganand,

Jilva dar xayli butoni mohsiymo afganand [29,230].

(Tun hojib—pardadorlari savdo chodirlarini ko`rganda, oy yuzli go`zallar xayoliga jilva—nur tushiradilar)

Tashbeh va tasvirning go`zalligini qarang! Bu o`rinda savdoga tayyorgarlik, faol harakat ma`nosini anglatadi. Hojib so`zi pardadordan tashqari, qo`riqchi farishtalar ma`nosini ham ifodalaydi. Oy yuzli go`zallar—sayyoralar. Demak, tun farishtalari taraddudga tushib, shohona chodirlar qurib sayyoralarni bezatdilar, demoqchi shoir.

Keyingi bayt:

Sad hazoron kirmi shabtob az shabistoni sipehr,

Lam`aho bar pardai shabguni g`abro afganand [29,230].

(Osmonning toqidan yuz minglab yaltiroq qurtlar—yulduzlar yerning qorong`i pardasiga yog`dular to`kadilar.)

Shu tariqa, tasvir boya “Ruh ul- quds” qasidasida bo`lganidek, ikkiyoqlama davom etadi: bir tomondan, g`oyat original tashbeh va istiora, eyhomlar bilan osmon jismlarini ta`rif etish; ikkinchi tarafdin, osmon jismlari yerdagi ashyolarni inson idrokiga, hayotga yaqinlashtirib, jonlantirib baytlar tuzish. Go`yo samoviy jismlar ham obraz va ham moddiy mavjud ashyoday taassurot qoldiradi o`quvchida. Bilamizki, qadimda osmon jismlari—sayyoralar, yulduz turkumlari, burjlar turli xislat va xususiyatlarga ega deb qaralgan. Ular inson taqdiri hamda hayot hodisalari bilan vobasta qilib tushuntirilgan va ko`pining nomlanishi hayvonlarning nomi (qisqichbaqa, ho`kiz, chayon, baliq kabi) yoki insonga kerakli ashyo va asboblar (dalv, tarozi) yoinki inson kasb-kori (komon otuvchi kabi) bilan bog`liqdir. Onavoiyda osmon jismlari ruhlar makoni, farishtalar joyi ular go`yo tirikday tasvirlanadi. Ushbu qasidaning umumiy ruhi bir xushnudlik, farahbaxshlik bo`lgani uchun har bir bayt mazmunida ham bu seziladi. Koinot, borliqni Olloh yaratgan, jamiki hammasi Ollohga tasbeh aytadi. Biroq Me`roj kechasida ular Olloh habibining tashrifidan junbushga kelgan va xuddi jonli olamday bu hodisadan sarafrozdirlar.

Mana bu tasvirga diqqat qiling:

Ashkrezon na`sh bar do`shi banot az so`gi mehr,

Jumla bar sahro parandi anbaroso afganand [29,230].

(Yetti og`ayni yulduzlarning har biri mehr-u muhabbat yig`isidan bir-birining quchog`iga bosh qo`yib, ko`z yoshi to`kadilar; hammasining boshida anbar hidli harir yopilgan.)

Qadimgi ilmi nujumda Yetti og`aynini Dubbi akbar (Katta ayiq) yoki Banotunna`sh deganlar. Banotunna`sh—o`lik birodarlar degani aslida. Ammo ana shu o`lik jismlar ham Me`roj tuni jon hosil qilib, shodlikdan mehr yoshi oqizib, anbar hidli harirga o`ranib, Rasulullohni kutmoqdalar, deydi Navoiy.

Yoki mana bu baytni olaylik:

Qutb chun pire batamkin v-axtaru anjum samo` ,

Chun muridon girdi pire poybarjo afkanand[29,230].

(Qutb yulduzi xuddi vazmin pir kabi, yulduzlar esa uni eshitish uchun muridlarday o`rtadagi pirni o`rab olganlar.

Bu tasvir tariqat ahli xonaqohlaridagi majlislarga ishoradir: pir vazmin va tamkin bilan o`rtada o`tiradi, muridlar uning atrofida tavoze` bilan o`tirib suhbatini tinglaydilar yoxud raqs-u samo` uyushtirib ilohiy jazba nasibasini topadilar.

Shunaqa chiroyli tashbehlar bilan osmon jismlaridan Mirrix, Mushtariy, Oy, Zuxra, Nasri voqe` (Burgut), Savr(Ho`kiz), Surayyo, Qavs(O`q otar)larning xususiyatlari qalamga olinadi.Zuhraning cholg`uvchiligi mutrib va mug`anniylarni atrofida jamlagani, kamonchining nayza bilan Echki(burj nomi)ni sahroga quvgani va boshqa jonli tasvirlar, shu kabi yulduzlar, falak posboni sifatida Yerda odamlar orom olib uxlasin uchun uyg`oq turishi haqida so`z boradi, ammo odamlar orasida shundaylari ham bo`rki, tunlarni bedor o`tkazadilar:

G`ayri ushshoqi balokash, k-az g`ami hijron chu man,

Na`rai “vohasrato”bar charxi mino afganand[29,224].

(Faqat men kabi oshiqlar bundan mustasno, chunki ular hijron g`amidan “vohasrato” na`rasini charxning nilgun gumbazidan o`tkazadilar.)

Ha, iloh oshiqlari tunlarni nola chekib o`tkazadilar, ma`shuqa—Xudovand yodida yonadilar. Navoiy o`zini mana shu balokash oshiqlar

zumrasiga qo`shgan, zero, shunday bo`lmaganida, Navoiy bunday otashin hislar og`ushida qaynab, o`lmas asrlar bitmagan bo`lardi.

Alisher Navoiy bunday “ishq-u vafo” ahli bo`lgan oshiqlar tavsifini davom ettiradi:

Z-obi chashmi hasrat avvl doda zohirro vuzu,

Otash az botin ba joni noshikebo afganand.

Z-ohi hasrat parda bar ruxsorai axtar kashand,

Z-ashki maxjuri xalal dar toqi hazro afganand.

Chun ba tavfi ravzai xilvatgahi dil ro`nixand,

Burqai nomahrami bar ro`yi huro afganand[29,225].

(Zohir tanani avval hasrat ko`z yoshlari bilan tahorat qilib, poklaydilar, sabrsiz jonga botin olovini yuboradilar. Oh-u hasrat bilan yulduz yuziga parda tortadilar, ayriliq azobi yoshlari bilan osmon oynalari gumbazini teshadilar; agar ko`ngilning xilvatxonasi tavofiga yuz bursalar, hurler yuziga nomahramlik pardasini soladilar.)

Demak, shoir tungi osmon tasviridan yerga ko`char ekan, gapni tunlari bedor oshiqlar ahvolini bayon etishdan boshlaydi. Oshiq soliklar ahvoli yana bir necha baytda davom etib, so`ngra tong saharda shoh mulozimlarining nog`ora chalishi, g`aflat yotgan ulus, nasroniylarning kalisolarga ibodat uchun borishi, rohiblarning monastir—davrda uyg`onib, butparastlikka mashg`ul bo`lishi, muazzinlarning “Allohu akbar” deb bong urishi tilga olinadi. Ya`ni yerdagi turli e`tiqoddagi odamlar hayotining boshlanishi ko`z oldimizga kelaveradi. Shoir hatto mayparast rindlar, yorini kutgan yigit-qizlar holatini ham chiroyli qilib chizadi.

El uyg`onganda, har biri o`z maqsad yo`lida ishga kirishib ketadi. Ammo shu o`rinda ham Navoiy ikki toifa odamlar—haqparast solihlar va shahvatparastlarni ajratib ko`rsatishni lozim topadi: shahvat va gunoh ahli ojiz, ular gunohlarini yashirish uchun o`zlarini suvga uradilar, shoshib yuvinadilar, holbuki, haqparast poklar masjidga yo`l olib,

joynamoz ustida toat qiladilar. Qozi-yu mufti va boshqa isbot-u isnotga o`rgangan zohirbin olimlar harifni mot qilish uchun yuzni yuvmasdan kitob juzvlariga tashlanadilar. Qozilar dargohidagi kofir hodimlar bir qism kumush uchun yuz musulmonning uyini buzishga fatvo chiqaradilar.

Shu tariqa har xil toifadagi odamlarning nomunosib va nodurust xatti-harakatlari bayon etiladi. Savdogarlarni A.Navoiy “devmardum”(devsifat odamlar) deb ta`riflaydi. Chunki, deydi u, bu toifa qaroqchilar guruhidan qolishmaydi, ular bozorga firib va aldov uchun uya qurib olganlar. Savdogarlar:

Dar zamoni bay` chun tug`yon kunat “insofashon”

Buryoro tuhmati zarbaft kolo afganand[29,324].

(Savdo vaqtida “insoflari” tug`yon etganda, bo`yrani zarbof mato deb pullaydilar.)

Qanchalik zaharxanda, kinoyali kesatiq bor bu baytda!

Qasidaning yana pok tiynatli taqvodor insonlarning ajz-u niyozi, yolg`iz Ollohga pok dil bilan intilishlari bayon etilib, shundan so`ng Payg`ambar Me`roji tasviriga o`tiladi:

Xojai kafnaynu faxri anbiyo, k-azhobi o`,

Soya bar xurshid, bal arshi muallo afganand.

Gardi rohash axtaron dar didayi ravshan kashand,

Xoki poyash ravshanon dar chashmi bino afganand[29,223].

(Ikki dunyo xojasi, anbiyolar faxrikim, uning suhbatdoshlari Quyoshga, balki baland Arshga soya soladilar. Uning yo`lining g`uborining yulduzlar ravshan ko`zga surtadilar, oyog`i tuprog`ini ravshan ko`zlilar ko`ruvchi ko`zga qo`yadilar.)

Jannat hurlari peshvoz chiqib, behisht eshigini supuradilar va mushki anbar sepadilar, bezanib qarshi oladilar. Me`roj kechasi Arsh ahli Payg`ambar otining poyandozi qilib yulduz durlarini sochadilar. Falakni kezuvchi Buroqini yetaklab borarkanlar, egarini javzou, egarpo`shini

mehr(quyosh)dan qilganlar. Bir emas, yuz ming quyosh uning quyoshi oldida so`nadi, chunki u ham risolat(rasullik), ham nubuvvat (payg`ambarlik) sohibidir.

Osmon jismlari yana tilga olinadi. Endi ular Me`roj bilan Muhammad Mustafu (SAV)ning sayri bilan bog`lab tasvirlanadi.

Mana bu bayt xarakterli:

Az ahodisat “sahihe”ro ravot andar raqam,

Bo rubob az haddi Batho to Buxoro afganand[29,227].

(Agar hadislarining sahih yo`l bilan raqam qilinsa, durust yo`ldan Makkadan Buxorogacha yetib keladi.)

Bunda Imom Buxoriy va uning shoh kitobi “Jome`us sahih”ga ishora bor. Imom Buxoriy kabi Buxoro Makka kabi sharif bo`ldi, Payg`ambar hadisleri makoniga aylandi, demoqchi Navoiy.

“Aynul hayot” qasidasida Payg`ambar sifatlari madh etilib, oxirida Navoiy o`zining sodda ummatlardan ekanligini aytib, u kishidan shafolat etishlarini so`raydi va qasida 106 baytdan iborat ekanligini so`z orqali ishora qiladi. Ya`ni “obi baqo” so`zining harflari abjad hisobida bir yuz olti bo`ladi.

Qasidada Navoiyning san`atkorligi, keng qamrovli shoirona nigoh bilan qalam surishi kishini lol qoldiradi va u qalbga huzur bag`ishlaydi.

“Aynul hayot” qasidasi “Ruhul quds” qasidasining davomiday yangraydi. “Ruhul quds”dagi vahdatul vujud g`oyasi, koinotni keng olib tasvirlash bunda ham mavjud. Faqat bunda sayyora va yulduzlarning xossalarini qo`shib tasvirlash, yerdagi va insonlarga tanqidiy munosabat alohidalik kasb etgan. Navoiy Komil inson Muhammad Rasululloh(SAV)ni otashin muhabbat bilan alqaydi, shoirning Xudoga bo`lgan muhabbati Payg`ambarga bo`lgan muhabbatida davom etadi. So`fiyona tuyg`ular, qarashlar nabi na`tining ichiga singdirilib, shu nigoh mavqeidan “gunohkor” Yer bandalarining nojoiz xulq-u atvori tanqid qilingan.

Qasida shu uchun ham o`quvchiga kuchli ta`sir etadi.

II .02. “Sittai zaruriya” va adabiy manbalar.

Navoiy “Sittai zaruriya” tarkibiga kirgan har bir qasidaga sarlavha qo`yar ekan, ulardan to`rttasi salaflarga tatabbu` tarzida yozilganini qayd etadi. Chunonchi: “Tuhfatul afkor” Amir Xusrav Dehlaviyning “Daryoyi abror” qasidasiga, “Qutal qulub” Anvariylar qasidasiga, “Minhojun najot” Hoqoniy va Anvariylar qasidalariga, “Nasimul xuld” esa Xoqoniy qasidasiga javob tarzida yozilgan deb ko`rsatiladi. Albatta tatabbu` tarzida yozilgan to`rtala qasida ustida to`xtab o`tishga imkonimiz yo`q, chunki bu tatabbu`larning har biri bir alohida ishni talab qiladi.

Afzaliddin Xoqoniy Shervoniy(XII asr) fors adabiyotining ulug` namoyandalaridan biri, ayniqsa, falsafiy qasidalar yozishda shuhrat qozongan shoir. Uning:

Dili man piri ta`lim astu man tifli zabondonash,

Dami taslim sari ushru zari zonu dabistonash[29,241].

(Ko`nglim—ta`limpiri, men esa tili chiqqan go`dak shogirdiman; uning darsida Qur`on o`qib, toatda turibman, tizzaning usti uning maktabidir) degan bayt bilan boshlanuvchi qasidasiga 40 dan ortiq shoirlar tatabbu` bog`laganlar. Bular orasida Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy, Soib Tabriziy, Mirzo Bedil kabilar bor. Shavkat Shukurov Xoqoniy qasidasi “Mir`otus safo”(“Soflik ko`zgusi”) deb nomlangan deydi, biroq, Xoqoniy qasidasiga nom qo`ygan emas, balki Xusrav Dehlaviy o`z javobiyasini shunday nomlagan, bunga Jomiyning ishorasi ham bor. Shunga binoan, Jomiy Xoqoniy va Amir Xusrav qasidalariga javoban yozgan qasidasiga “Jilour ruh”(“Ruhning jilolari”) deb nom qo`yadi.

Shunday qilib, Navoiy, Amir Xusrav va Jomiy tatabbu`laridan xabardor bo`lgan va faqat Xoqoniy asariga javob aytib qolmasdan, balki,

har uchchala qasidani ham e`tiborga olishi lozim edi. Mashhur asarlarga tatabbu` qilish(buni “nazira”, “javobiya” ham deganlar) Sharq adabiyotida bir an`ana edi. Tatabbu` haqida Sharq va G`arb olimlari ko`p fikrlar bayon etganlar. Ba`zilar buni ijobiy hodisa desalar, ba`zilar salbiy hodisa sifatida baholaganlar. Lekin nima bo`lganda ham, buni umumjahoniy adabiy-estetik hodisa deb qarash lozim. Chunki buning ko`rinishlari G`arb adabiyotida ham mavjud. Dante, Shekspir, Bokachcho, Gyote ijodi bunga misoldir. Sharqda bu hodisa xiyla qoidalashtirilgani, an`ana tusini olgani bilan ajralib turadi.

Qisqa qilib aytganda, tatabbu` bu o`ziga xos ijodiy musobaqa, mashhur asarning mazmun va shaklini saqlagan holda, uni mazmunan rivojlantirish, yangi g`oyalar, fikrlar, adabiy san`atlar orqali to`ldirib, yangi ruhdagi asarni vujudga keltirish, o`z san`ati, mahoratini namoyish etish, ijodkor sifatida o`z qarashlarini zamon o`quvchilariga yetkazish vositasi edi. Navoiy tatabbu` ustasi edi. Uning tatabbu`lari o`z dunyoqarashi, ulug` adib va mutafakkir sifatidagi estetik e`tiqodining me`valaridir. Forsiy qasidalarda ham biz shu fazilatni ko`ramiz.

Endi “Nasimul xuld” qasidasini Xoqoniy, Amir Xusrav va Jomiy asarlari bilan qiyoslashga o`tamiz. Qasidalarning hammasi ham bir mavzu, ya`ni darveshlik yo`lini ulug`lashga bag`ishlangan.

Xoqoniy qasidasi 113 bayt(O`z FA Aburayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondidagi 182 va 11298-VII qo`lyozmalar), Xusrav Dehlaviy asari 203 bayt(shu fonddagi 9661-qo`lyozma), Jomiy qasidasi 130bayt, Navoiyniki esa 129 bayt. Demak, tatabbu`lar hajm jihatdan katta, ayniqsa, Xusravniki qariyb ikki baravar ko`p. An`anaga ko`ra vazn va qofiya tartibi saqlangan.

Amir Xusrav qasidasi shunday boshlanadi:

Dilam tiftl astu piri ishq ustodi zabondonash,

Savodul vajah sabqu maskanat kunji dabistonash[26,257].

(Dilim go`dak, ishq piri uning til bilguvchi dono ustoz; sabog`im yuz qarolik bo`lib, miskinlik, ojizlik burchagi maktabidir)

Jomiy matla'si:

Muallim kist?—Ishqu kunji xomushi dabistonash,

Sabaq nodoniu dono dilam tifli sabaqxonash[26,259].

(Muallim kim? Bu ishqdir va jimjitlik burchagi uning maktabidir; saboqi nodonlik, ammo mening dono dilim uning qo`lida saboq oladi.)

Navoiyda:

Muallim ishq-u piri aql shud tifli dabistonash,

Falak don bahri ta`dibi vay inak charxi gardonash[29,235].

(Ishq muallim keksa aql esa maktab o`quvchisi bo`ldi, bu o`quvchi bolaning tarbiyasi bilan falak shug`ullanadi deb bil, falak esa doimo aylanishda)

Ushbu matla`lardanoq shoirlarning niyatlari, bir-biriga yaqinligi va o`zaro farqlari ko`zga tashlanadi. Xoqoniy uchun ko`ngilning o`zi ta`lim piri, demak, ishq ramzi ham shu ko`ngil. Ko`ngil uni Iloh yo`lida tarbiyalaydi. Ko`ngilning maktabi bo`lsa, tizzaning ustida, ta`lim usuli—xomushlik, ya`ni muroqaba-mushohadaga berilish, botin olami bilan suhbat qurish. Ko`ngilning Qur`oni Karimdan oladigan saboqlari ham zohiriy jihatga e`tibor qiluvchilardan farq qiladi—ko`ngil Qur`oni Karimdan Olloh ishq, Olloh nafasi, Olloh ruhining kayfiyatini tuyadi, shunga taslim bo`ladi. Demak, Xoqoniy uchun bosh yo`lboshchi, piri murshid—ishqi ilohiy makoni bo`lgan Ko`ngildir. Ishq va Ko`ngil unda birga olib qaraladi. Shoir o`zini shu ko`ngil shogirdi deb taqdim etadi.

Amir Xusrav Ishq va Ko`ngilni bir-biridan ajratib, ikki narsa deb qaraydi va Ishqni pir, Ko`ngilni esa shogird sifatida ko`rsatadi. Unda xomushlik, tizza ustiga bosh qo`yish yo`q. Buning o`rniga miskinlik, o`z gunohlari, nuqsonlarini anglashni maktab va asosiy saboq deb tilga oladi. (Xoqoniyning “Dami taslim” iborasida ham ojizlik, rizolik ma`nosi bor.)

Ishqni muallim sifatida talqin etish Jomiy va Navoiy matla`larida ham davom ettirilgan. Ular bu o`rinda Amir Xusrav bilan fikrdoshdirlar. Jomiy Xusravga ergashib, dilni shogird bola deb ataydi. Biroq, Xusravdan farqlanib, maktabni xomushlik burchagi, deydi, bunda u Xoqoniy iborasidan foydalanib, omuxta ma`noli bir bayt yaratgani ma`lum bo`ladi.

Navoiy garchi ishqni muallim deb ifodalasa-da, ammo kekxa aqlni shogird deb oladiki, bunday qiyos Xoqoniy, Xusrav va Jomiyda yo`q. Navoiy matla`ida dil tilga olinmagan. Shunday qilib Xoqoniy matla`i mazmuni Navoiyga kelib, xiyla o`zgargan ,ya`ni ko`ngil bilan o`zini qiyoslashdan ishq bilan aqlni qiyoslashga qarab rivojlangan—Xoqoniyda yashirin tarzda ko`ringan so`fiyona ma`no Navoiyda aniq ifodaga, yorqi va ravshan bayonga ega bo`lgan. Navoiy Xusrav va Jomiydagi ishq va dilni qarama-qarshi qo`yish usulidan voz kechgan. Voqean, Navoiy bu bilan Xoqoniyga qaytganday bo`lib ko`rinadi, ammo aslida u shu matla`danoq navbunyodkorlik ko`rsatib, yangi mazmunli asar yozishga jazm qilganini, salaflarinikidan jiddiy farq qiluvchi yo`l tutganini bildirgan. Navoiy matla`ida kinoya bor: aslida, hayotda aqlli, dono odamlar yoshlarga ta`lim beradi, aql ustozdir. Lekin tasavvufda buning teskarisi –aql emas, balki ishq ustoz. Mazkur ma`no Xoqoniy, Jomiy, Amir Xusrav qasidalarida aks etgan. Navoiyning mahorati shuki, u bu ma`noni asar boshiga ilib chiqib, asosiy urg`uni shunga qaratadi, fikrni faollashtiradi. Navoiyning falakni murabbiy deb olishiga ham shu nuqtai nazardan qarajak, masala oydinlashadi: falakning ishi, dunyoning ishlari so`fiy uchun saboq, ibrat maktabidir.

Qasidalarining umumiy mazmunini qisqa-qisqa bayon etsak, ular orasidagi farq yanada aniqroq namoyon bo`ladi.

Xoqoniy matla`dan keyin bir necha bayt darveshlik xislatlariga bag`ishlaydi, o`zining “xomushlik”, “tizza”, “maktab” haqidagi fikrlarini izohlab tushuntiradi: har qanday tizza maktab bo`lolmaydi, agar odam

ichida darddan Nuh to`foni bo`lsagina unda tizza usti ta`lim joyi bo`la oladi, bunday kishi uchun ilmi qol ham, Ka`ba ziyorati ham ortiqcha, Nuh to`foni uning to`pig`iga kelmaydi. Ushbu maktabning talqini jimlik oyati, isbot-dalillar, dunyo ta`limi bosh og`rig`i. darveshlik ta`limi xomushlik qo`rasida toblanib pishadi, odamni nay kabi go`yo qiladi, bunday paytda ko`ngil o`zi so`zlay boshlaydi. Dunyo ilmi abjad hisobi kabi, Haq ilmiga yetishganning xotirasidan u bir zumda o`chadi, dunyo maktabi—nodonlik, umr shu t a`lim bilan o`tmoqda, men hanuz abjad o`qiyman, hanuz go`dakman, hanuz aql bilan kerilaman. “Hanuz aql meni yosh bolalarday qo`g`irchoqlar bilan o`ynatadi, bu dunyoning soqqa o`ynatuvchisi uni(aqlni) hayron qilmish”, deydi shoir. Falak aylanishi, kun-tun almashinishi, hayot tashvishlari ham Xoqoniy uchun qo`g`irchoqlar o`ynashday gap. “Aql tabiat yo`lidan yurishga majbur”, deb davom ettiradi Xoqoniy, chunki Muso nafsining beshigi Fir`avn xayli qo`lidan o`tishi muqarrar”. Ya`ni: Muso payg`ambarlikni anglaguncha uning beshigi Fir`avn qo`lidan o`tdi, u Fir`avn qo`lida tarbiya topdi. Bu yerda Fir`avn—dunyo, tabiat, nafs timsoli; Muso—ruh, ilohiy ishq timsoli deb olingan. Demak, inson ruhi nafsni chetlab o`tolmaydi, dunyo riyozati—bu qismat. Ammo shu darajada qolib ketsa, u go`dakligicha qoladi, u yetilmaydi, inson sifatida, Ruh sifatida tabiatdan o`zib ketolmaydi. “Yer—doya, sen—go`dak. Sen sut emassan, u esa qoningni so`radi. Uning bo`stonidan oziqlanganing bois qoning sovuqdir”(Yer mijozi sovuqlik timsoli, bu yerda shunga ishora qilinyapti.)

Xoqoniy darveshlik martabasinin ta`riflar ekan, ana shu insoniy ulg`ayish g`oyasini qizg`in tarzda targ`ib qiladi. Shunga ko`ra, qasidada nafsni rom etish zarurati xususida gapiriladi, darveshning himmatiga alohida e`tabor beriladi. Himmat—bu quyosh kabi baland bo`lish, porlab nur taratish, Iso kabi ruhga aylanish, Sulaymon kabi payg`ambarlik va

shohlik taxtiga o`tirish, barchadan ozod bo`lib, barchaga naf` yetkazish, Faqrga dilni qurbon etish:

Maro chun da`vati Isis ide har zamon dar dil,

Dilam qurbone idi Faqru ganji govi qurbonash.[26,258].

(Men uchun Iso da`vati har dam ko`ngilda bayram qo`zg`atgani sababli dilim Faqr bayrami qurboni va qurbonlik molining xazinasidir)

Shundan keyin dunyoning o`tkinchi, bebaqoligi, manman degan shohlar, sultonlar nom-nishonsiz yo`qlik qa`riga ketgani haqida yozib, (“Qadarxon o`ldi, Samarqand nasib bo`lmadi, Malikshoh ketdi, Xuroson—o`z yurti uni qabul qilmadi”). Ikki baytda darvesh va shoh qiyosi beriladi. Chunonchi: “Sultonlik tojini orzu qilgan darvesh darvesh emas. Darveshlik va sultonlikni bir deb bilgan odam darveshdir”. Shunday “sultondil darvesh” bo`lgilki, darveshlikning oyog`i tuprog`ini sultonlikka toj etgil.

Muhammad(SAV) buning timsoli deb yakunlaydi Xoqoniy.

Xoqoniyda faylasuflar bilan vujud yo`lida ilm topgan valiylarni qiyoslab, faylasuflar ilmini kamsitish ham bor.

Shu kabi qasidada dunyoga, boylikka nafrat hissi ham seziladi, zolimlarni mazlumlar ohidan qo`rqishga da`vat etiladi.

Xullas, umumlashtirsak, Xoqoniy qasidasida:

1. Darveshlik dardi va unga yetishish yo`li, unda botiniy muroqabaning, ko`ngilni portlatishning asosiy talab ekanligi, aqliy ta`lim emas, vajdiy riyozatning ustunligi haqida.
2. Tabiat, dunyo inson uchun kishan, uning ruhiy parvozigaga g`ov, tabiat—aql beshigi, voyaga yetmaganlik ramzi haqida.
3. U kishandan himmat bilan qutulib, ilohiy olamga yetishish va buning qiyinchiliklari, ne`mati-sharofati haqida.
4. Dunyoning , shohlarning o`tkinchi, foniyligi, darvesh esa shohlikni orzu qilmay, shoh-u gadoga barobarligi haqida.
5. Faylasuf-donishmandlar ilmining cheklanganligi haqida so`z boradi.

Amir Xusrav qasidasida ham shu g`oyalarni uchratish mumkin. Ammo unda bu g`oyalar talqini o`zgacharoq, shoh va darvesh munosabati ham boshqa tarzda ifodalangan. Amir Xusravning butun ijodida bo`lganiday, “Mir`otus safo” qasidasida ham jo`shqin hissiyot, qalb harorati sezilib turadi. Amir Xusrav qasidasining hajman kattaligi darveshlik rutbasiga yetishishning qiyinchiligini bayon etish alohida e`tabor berganidan hosil bo`lgan. Masalan, u mol-dunyo va faqirlik, saxiylik va baxillik, shoh va darvesh qiyosiga 71 bayt bag`ishlagan.

II.03. “Sittai zaruriya”: ma`rifat tili bila haqiqat

Qasidada darveshlik iste`dodi alohida istedod ekanini, har qanday ustoz ham ustoz sanalmasligi, har qanday shogird—murid ham bu nomga loyiq emasligi bayon etilgandan keyin bunday iste`dodning birinchi sharti tashqi suratlar, shakl-naqshlarga mahliyo bo`lmay, mohiyat—ma`noni idrok etish muhim, degan falsafiy g`oya olg`a suriladi. To`ti ko`zguda o`zini ko`rib, shu suratga oshiq bo`ladi. Ko`p odamlar ham xuddi shunday: ular o`zlariga, o`z suratlari, dunyo suratlariga mahliyodirlar. Haqiqat nima ekanini anglab yetmaydilar. Holbuki, o`zlikni anglash aynan insonning ilohiy mohiyatini anglashdir. “O`zingga o`zing shunday arzimas, haqir ko`ringinki, toki ko`zguda o`zingni ko`rganingda o`zingni topolmay qolsang”, deydi shoir. Ma`nosi: sen o`zingni unutmasang, o`zingdan voz kechmasang, Ollohni topolmaysan, Unga yetisholmaysan. O`z surati, dunyo bilan, zohiriy narsalar bilan mast-u behud bo`lganlar darvesh bo`la olmaydi. So`fiy nainki bu dunyo, balki u dunyo xayolidan ham voz kechishi lozim. “Xoslar dilida xayol sig`masligi kerak, chunki oftob nuri oinaga tushsa, u ko`rinmay ketadi.” Shu tarzda Amir Xusrav darveshlikni topish uchun, aqliy o`lchovlar, dunyoviy o`lchovlardan qutulib, ruhiy parvozga shaylanish, “Semurg` kabi qanot qoqib uchishni, Jabroil maqomidan o`tishni” tavsiya etadi.

Shoir insoniy nuqsonlarni qattiq tanqid ostiga oladi, odamlarning qorin g'amida o'zini o'tga-cho'qqa urishini tubanlashish deb baholaydi. Darvesh ochlikka, yo'qchilikka chidashi kerak. Ana shu o'rinda Xusrav shohlarni dunyoga berilish timsoli deb, darvesh axloqi bilan shoh axloqini qarama-qarshi qo'yadi. Shohga yalinma, uning oldiga non deb borma, bu eng past ish deydi u.

Zihi gumrohii xoja, ki seri jo'yad az sulton,

Ki gar olam shavat luqma nagardat ser sultonash[29,262].

(Sultondan qorin to'yg'azishni istash darveshning gumrohligidir. Axir agar olam yegulik—luqma bo'lib qolsa ham sulton to'ymaydiku!) Shohlar ne'mati—harom. “Sen sulton dasturxonida qayla vaqovurdoq deb o'ylagan narsalar aslida mazlum, bechoralarning yuz pora qilingan va pishirilgan dillaridir”, deb yozadi Xusrav. Chunki podsho zulm qilmay, hukmronlik qilolmaydi, chunki u dunyo ishq, taxt-u toj ishq biln o'rtangan, shunga giriftor shaxs. Podsho tojidagi la'l-u durlar uning a'yonlari miskinlar ko'zidan oqizgan qon tomchilaridir, shohning o'zi esa “Dunyo o'laksasi ustida turgan o'laksaxo'rdir”. So'ngra Amir Xusrav dunyoning bebaqoligi, falak zulmi, ilmiy-aqliy mushohadaning ojizligi, Aflotun, Ibn Sinolar ilmi kishini Xudoga olib borolmasligi haqida yozgan. Faqat Faqr nuri bilan porlagan qalbgina Haqqa va Haqiqatga olib boradi.

Ko'rinadiki, Amir Xusrav asarida tanqidiy ruh kuchli, u darveshlik va shohlikni o'zaro zid qo'yib, ular orasida ulkan jarlikni ko'radi. Biroq unda tabiatni “aybdor” qilish yo'q.

Abdurahmon Jomiy Xoqoniy va Xusrav an'anasini davom ettirib, dastlabki baytlarida har qanday odamda shogird bo'lish qobiliyati bor, deb o'ylash xato ekanini ta'kidlab, daf'atan Faqr ta'rifiga o'tadi va bunga 35 baytni bag'ishlaydi.

Zi xoki faqr dar ko'i irodat soxtam koxe,

Ki kamxorivu kamxobivu kamgo'ist arkonash.[26,261].

(Ibodot ko`chasida faqr tuprog`idan shunday qasr bino qildimki, uning ustunlari kam yeyish, kam uxlash va kam gapirishdir.)

Shundan so`ng ushbu “qasr”ning fazilatlarini, u orqali vahdat osmoniga yetishish, irfon bulog`idan bahramand bo`lish mumkinligi bayon etiladi, ya`ni darveshlikning bosh me`zoni—faqr maqomini kashf etish. Faqr insonni komillik ko`zgusiga aylantiradi, qalb ko`zi ochiladi, olam, odam asrori kashf bo`ladi, deydi Jomiy.

Jomiyda ana shu fikr cho`qqisidan odamlardagi axloqiy nuqsonlar tanqid qilinadi, nafsni yengish xislati ulug`lanadi. “Behisht kerak bo`lsa, dil olamiga yuz o`gir, chunki do`zax—sening nafsing, yomon fe`llaring uning belgisidir.”Jomiyda ham shoh-u darvesh qiyosi bor. Ammo bunda u Xusrav Dehlaviy kabi keskin, nafratli munosabat bildirmaydi. Shunga qaramay, Jomiy uchun ham shoh va darvesh—ikki kelishmas qarama-qarshi qutb: darvesh—nafsdan ozod, shoh—nafs bandasi; darvesh—hech kimga zulm qilmaydi, shoh—zulm qilishga majbur; darvesh—abadiy hayot oshig`i, shoh—shu dunyo oshig`i va h. k.

Shah otashdonu otashgira in mushti avoni xas,

Ki bahri xonumonho so`xtan bashand a`vonash[26,259].

(Shoh—o`choq, posbonlari esa—o`tin yoquvchi, a`yonlari esa o`choqdan cho`g` olib, xonumonlarni yondirishga ko`maklashadilar). Jomiy dunyoning riyokorliklari, falak zulmi, sitamkor odamlar haqida fikr yuritar ekan, zulm ahliga taslim bo`lishni rad etadi va yomon axloqli, zulmpesha kishilarga shafqat qilmaslikka chaqiradi.

Hanuz ozori mardum xo`i tu nogashta, z-on bigsil,

Chu bexi xor maxkam gasht, natvon kandan osonash[26,260].

(Odamlarga ozor berish fe`ling xislatiga aylanmasdan undan voz kech, chunki tikanning ildizi mahkam bo`lgach, uni yulib tashlash qiyindir.) Jomiy ham falsafa bilan diniy-tasavvufiy ilmlarni solishtirib, falsafani rad etadi. “Hikmat istasang, Makkaga bor” ya`ni

Muhammad(SAV) ilmini eshit, deb uqtiradi. Oxirida Xoqoniy qasidasining tili murakkabligini qayd etib, she`riyatda o`ta san`atbozlik xunuklikka olib keladi, deydi.

Haqiqatan ham Xoqoniyga nisbatan Amir Xusrav, Jomiy va Navoiy uslublari ancha sodda va ravondir. **Alisher Navoiy** qasidasi shaklan Xoqoniy va Amir Xusrav qasidalarini eslatib tursa ham, ammo mazmun-ma`no, talqin va tasvir nuqtai nazaridan jiddiy farq qiladi. Bu farq eng avvalo, quyidagi nuqtalarda ko`zga tashlanadi:

1. Navoiy:a) shoh-u gadoni qiyoslash va shohni nafy etish(tanqid qilish), shohlikni nafrat bilan tilga olishdan; b) tabiatni, yer-u ko`kni insonning dushmani deb hisoblashdan; d) surat va ma`noni chog`ishtirish kabi falsafiy mushohadakorlikdan; e) Aflotun, Suqrot, Ibn Sino nomi bilan bog`liq falsafa ilmini badnom qilishdan; f) dunyoning o`tkinchiligi, falak zulmini izohlashdan; g) jabr-zulm ahliga munosabat bildirishdan; h) darvesh axloqiga to`g`ri kelmaydigan nuqsonlarni tanqid qilishdan(bu ma`no “Minhojun najot” qasidasidan keng o`rin olgan) voz kechgan.
2. Buning o`rniga asosiy e`tiborni Faqr martabasiga, komillikka erishish bosqichlarini bayon etishga, solik tarbiyasi usullari, naqshbandiya tariqati talablarini izchil ta`rif-tavsif qilishga e`abor qilgan. Natijada, uning qasidasi mazmunan bir yo`nalishdagi asar bo`lib chiqqan, tariqat odobi chuqurroq talqin etilgan.
3. “Nasimul xuld”da Xoqoniy, Xusrav, Jomiy asarlaridagi ifoda-iboralar ham deyarli uchramaydi. Xizr, Iso, Muso, Fir`avn, Nuh nomlari bilan bog`liq tasvirlar bor, ammo o`ziga xos toza tasvir bilan namoyon bo`lgan. Masalan, Xoqoniyda:

Xud on kasro, ki ro`zi shud dabiston az sari zonu,

Na to Ka`bash buvad judiyu, ne to soq to`fonash[26,261].

(Tizza usti maktabi tizza usti maktabi nasibasi bo`lgan kishiga
Ka`ba ham kerak emas, Nuh to`foni ham to`pig`iga kelmaydi.)

Navoiyda:

Na bokash z-on, ki g`arqobi havodis sar koshat bacharx,

Chi g`am sukkoni girdi Arshro az Nuhu to`fonash[26,261].

(Darvesh maqomiga erishgan odam hodisalar seli osmonga ko`tarilsa ham qo`rqmaydi; Arsh atrofida gilarga Nuh va uning to`fonidan nima tashvish.) Navoiy qasidasida oldingi qasidalarining biror misra yoki birikmasi aynan tazmin qilinmagan. Holbuki, tatabbu` qoidasiga bu zid emas. “Tuhfatul afkor”da Xusrav va Jomiyning bir necha misrasi tatabbu` qilib olingan (iqtibos san`ati).

4. Navoiy qasidasining tili sodda va ravon. Bu jihatdan bu Jomiy asariga yaqin.
5. Navoiy qasidasi Husayn Boyqaroga bag`ishlangan, oldingi qasidalar hech kimga bag`ishlanmagan.

Shunday qilib, bu qiyosiy tahlilimiz shuni ko`rsatadiki, Sharq adabiyoti, jumladan, qasidachilikda ham so`fiyona g`oyalarni tasvirlash rasm bo`lgan va bu g`oyalar asrdan asrga rivojlanib brogan, har bir davr va muhitning tasavvufga bo`lgan qarashlari, qolaversa, har bir mutafakkir shoirning o`z fikr-mulohazalari bilan to`ldirilgan va shuni aks ettirgan. Xoqoniy Shervoniyning xiyla murakkab tasvirli mulohazalari, keskin fikrlari Navoiyga kelib bir oz didaktik ohangga ega bo`lgan, komil inson axloqini sharaflavchi tusini olgan. Alisher Navoiy “Sittai zaruriya” qasidalar turkumi bilan fors-tojik tilida ulug` asar yaratishga qodir. Benazir mahoratini namoyish etib, qasidachilik janri, so`fiyona badiiy so`z xazinasini boyitdi. Ushbu qasidalar ayni vaqtda, o`zbek adabiyotining ham bebaho mulkidir. Ularni o`rganish va tarjima qilish shu jihatdan ham ahamiyatlidir.

III bob

“Sittai zaruriya”dagi irfoniy ma’nomalarning talqinlari.

III.01.”Sittai zaruriya”da faqr va faqrlik talqini

“Sittai zaruriya”ning uchinchi qasidasi—“Tuhfatul afkor” (“Fikrlar tuhfasini”)da darveshlikning oily rutbasi faqrlik haqida mushohada yuritiladi. Ya’ni: avval Oллоh hamdi, keyin Payg`ambar na’ti, undan keyin esa vali darvesh ta’rifi keltirilgan. Qasida shu bois ham Navoiyning piri murshidi—buyuk shoir va so`fiy Abdurahmon Jomiyga bag`ishlangan.

Ammo “Tuhfatul afkor” qasidasi qiyos usulida, aytish mumkinki, juda ko`p tamsil—misollar bilan yozilgan asardir. Boshqacha qilib aytsak, Navoiy faqrning mohiyatini ochish uchun uning ziddi bo`lgan sifatlarni bu sifat bilan solishtirib boraveradi. Natijada, faqr va g`ayrifaqr bo`lgan narsalar nima ekanligi ochilib boradi va faqr Komil insonning oily sifatlari majmui, ideal soflik va poklik, fazl-u karomat, yuksak ilohiy va ayni vaqtda insoniy sifatlari tajassumi deb ulug`lanadi. Ammo shuni aytish kerakki, Navoiyning ushbu qasidasi chuqur ijtimoiy-axloqiy

mazmunga molik asar: unda jamiyatning eng yuqori qatlami—podshoh va a`yonlardan tortib, to tabib-u dallollargacha tilga olingan.

Qasida quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Otashii la`le, ki toje xusravonro zevar ast,

Axgare baxri xayoli xom puxtan dar sar ast[29,239].

(Podshohlar tojining bezagi bo`lmish olovday yonib turgan la`l ular boshidagi xom xayollarni pishiruvchi cho`g`dir.)

Demak, asar boshidanoq shoh va shohlikka nisbatan salbiy munosabat ko`zga tashlanadi va bu bir necha baytda davom ettiriladi:

Shah, ki yod az marg h-orad z-o`st vayronii mulk,

Xusravi beoqibat xusri bilodu kishvar ast[29,239].

Qaydi ziynat masqiti farru shuko`hi xisravist,

Sheri zanjiri zi sheri besha kamsavlattar ast[29,239].

(O`limni eslamaydigan shoh mamalakat vayronaligiga sabab bo`ladi, chunki oqibatsiz podsho mamalakatga falokat keltiradi. Xusravlar—podsholarning dabdaba-yu hashamati zeb-u ziynatga berilishidir—axir zanjirband sher o`rmondagi sherdan kamsavlatdir.)

Bu baytlar Navoiyga bag`ishlangan tadqiqotlarda, ayniqsa, “Devoni Foniyy” haqida yozilgan ishlarda keltirilib, shoirning shoh-u sultonlarning xalqqa jabr-u sitami, adolatsizligini fosh etish tarzida talqin qilinadi. Darhaqiqat, Navoiy bu baytlarda podshoni nafrat bilan tanqid ostiga oladi, so`z o`yini qilib, (“xusravi beoqibat” deganda u “xusrav” so`zining arab yozuvidagi holatiga ishora etadi: “xusrav”ning oqibati—oxirgi harfi olib tashlansa, u xusr, ya`ni falokat ma`nosini beradigan so`zni anglatadi), oxiratni o`ylamaydigan, Xudodan qo`rqmaydigan podsho yurt uchun, jamiyat uchun falokatdir, deb ro`yirost aytadi. Shoh-u amirlar mamlakatning eng nufuzli kishilari, podsho Ollohning yerdagi soyasi deb hisoblangan bir davrda, bunday fikrni aytish, albatta katta jasorat edi. Ammo bu shunchaki tanqidiy fikr emas, balki tasavvuf mavqeidan, Jomiy mavqeidan turib aytilgan fikr edi. Bunday dadil gaplarni aytishga

Navoiyni tasavvuf g`oyalari ilhom va kuch bergan. Chunki so`fiylar aqidasi bo`yicha, podsho dunyo tashvishi bilan band, dunyoga uning mol-u mulki, davlati-yu savlatiga bog`langan shaxs timsoli. Shoh—dunyoparastlik, manmanlik, dabdaba va demak, nafs ramzi. Holbuki, darveshlik buning butunlay aksi. Darvesh faqir dunyo va uning moliga, demak toj-u taxtga ham e`tibor qilmaydigan, qalbi Olloh nuri bilan porlagan odam. Shoh-u gado(darvesh), shunday qilib, bir-biriga teskari olam, bir-biri bilan kelisholmaydigan dunyoqarash va e`tiqod sohibi. Ularning nainki e`tiqodi, balki hayot tarzi, axloqi, sifatleri ham boshqa-boshqa.

Hozir esa “Tuhfatul afkor” qasidasi haqidagi fikrni davom ettirib, qayd etamizki, Navoiy podsholardan keyin keladigan mansabdorlar—vazir, sadr, faqih, qozilarning “xususiyat”ini ham sanab o`tadi. Ya`ni: vazir vazminlik bilan o`z o`rnida bosh egib tursa-da, ammo xayoli pora olishda, sadr bo`lsa, qachon birov bir narsa ko`tarib keladi, deb eshikka tikiladi, faqir shariat qonunchiligi(fiqh)ni hiyla-nayrang domiga aylantirgan, hiylagar qozi esa rishva undirish uchun oz yolg`on “dalillar”ni keltiradi. Bulardan tashqari voiz-u mullo, shayx-u muftiylar ham tamadan xoli emas.

Tamagir voizning gadodan farqi yo`q, uning minbardagi so`zi boshqayu, qiladigan ishlari boshqa. Riyoyi shayxning so`zlari esa ko`ngilni muzlatib, zimiston qiladi, uning tasbehi ravolik urug`idir:

Tuxmi rasvoyi dihad bar donai tasbehi zarq,

Ore-ore, dona jinsi xeshro barovar ast[29,239].

(Ikkiyuzlamachilik, makr tasbehi donalari rasvolik urug`i mevasini beradi. Ha-da, har qanday dona o`z jinsini ko`paytiradi.) Bu tashbihni “Hayrat ul-abror”ning “riyoyi shayxlar” bobida ham qo`llaydi shoir. Zotan, Navoiyning bunday shayx-u so`fiylarga nafrati bisyor. Chunki bular eng pok e`tiqod—tasavvuf e`tiqodini badnom qilganlar,

obro`sizlantirganlar. Riyoyi shayxlar tariqatdan dunyoviy manfaatni ko`zlab, darveshlikning o`ziga ishonchini susaytirardilar.

Shunday qilib, kishidagi zid axloqiy belgilar quyidagilardir: toj-taxt hirs, zeb-ziynatga berilish, o`limni-oxiratni unutish, manmanlik, dabdabaga ruju` qo`yish, tama(qanoatsizlik), haromxo`rlik, riyokor bo`lish, makr-hiyla, gadoylik, jaholat, yolg`on so`zlab kishilarni aldash, nohaq hukm chiqarish, lof urish, falsafa sotish, ochko`zlik, fahshga berilish, bulg`anish va h.k. Faqr martabasini egallagan darveshning muhim sifati oshiqlik, Ishq kishini betoqat etadi, safarga chorlaydi, ammo ana shu otash uni kamolga yetkazadi. “Ishqsizlikdan dil qorong`udir, ishq bilan u olovlanib turadi”, deydi shoir.

Shu tariqa Navoiy o`z ideali faqir darvesh sifatlarini bayon etadi, an`anaviy tushunchalarni yangi tashbih va g`oyalar bilan teranlashtiradi. Faqr ahli uchun fano(dunyo) mulkidan baqo(abadiyat) olamigacha bir qadam yo`l, shohlar ham bunday odamlarga xizmat qilishi, bosgan qadamini o`pishi lozim. Valuyulloh darajasiga ko`tarilgan faqir inson o`z qadr-qimmatini, salohiyat—nufuzi bilan shohdan ustundir. Shunday bo`lgach, agar shoh darvesh bo`laman, bu martabani egallayman desa, zarrin tojdan voz kechishi kerak:

Toji zar bigzor, ey mavziu nazdiki guzin,

Qurb memonat chu shud ayne, ki aqrabro sar ast[29,242].

(Oltin tojni tashla, ey saroyini makon qilgan va Xudoga yaqinlashishni tanla. Zero, chayon boshi bo`lgan `ayn olib qo`yilsa, qurb—yaqinlik qoladi.)

Navoiy zakovati shundaki, u zimdan tojni chayonga o`xshatadi. Darhaqiqat, Aqrab burjiga qarasangiz, u tojga o`xshaydi va chayonning rangi bilan oltinning rangi ham o`xshash. Shoir bu baytga garchi nomi tilga olinmagan bo`lsa-da, Ibrohim Adham voqeasiga ishora qiladi: Ibrohim Adham Balxda toj-taxtini tashlab, darvesh jandasini kiygani ma`lum. Ya`ni taxtda o`tirib, podsholik tojini kiyib, faqr-u fano

martabasiga erishish mumkin emas. Rostlik Haq yo`li, Haqning o`zi ham Rostlikdir. Rost yo`ldan yurgan odam oxir oqibat Haqning haqiqatiga aylanadi, ya`ni ruhi pok bo`lib, Pok Parvardigor borlig`idan nishona bo`lib turadi.

Qasidaga Navoiyning aql va ishq, zohir va botinni qiyoslovchi baytlari ham kirgan, shu kabi yana bir qancha tamsillar orqali axloqiy noqisliklarni mazammam etgan. Uning tasviriga ko`ra, darveshni nafaqat jamiyatdagi o`zgarishlar, ziddiyatlar bezovta qiladi, balki koinotdagi o`zgarishlar ham uning parvoyiga kelmaydi, u falak zarbalari, zamonlar o`zgarishini ham xotirjam kutib oladi.

“Haq sari olib boradigan yo`llar ko`p, deydi Navoiy, ammo eng yaqin yo`l—bu faqr yo`lidir, chunki bu Payg`ambar(SAV) yo`llari.” Payg`ambar(SAV) esa “al faqr-u faxri”(faqirlik mening libosim) deganlar.

Faqirlik yo`liga kirgan kishi Rasuli Akram (SAV) sunnatlariga to`la rioya qiladi:

Andarin rah on ki dorat gom bar gomi Rasul,
Arshparvozest, k-o` rahrav, ham rahbar ast[29,245].

(Bu yo`lda kimki Rasul qadamiga qadamini to`g`rilab yursa, Arshga parvoz etadi, chunki Rasul bunda ham yo`ldosh va ham yo`lboshchidir.)

Shoir Rasululloh (SAV)ning Me`rojiga ishora etgan: Rasul o`zi Arshga parvoz qildi. Unga erishganlarga ham u rahbar bo`ladi. Ushbu g`oya B.Naqshband tariqatining o`zagini tashkil etadi. Zero, naqshbandiya tariqatni shariat bilan muvofiqilashtirgan, shariat arkonlari ijrosi orqali, Payg`ambar ishlariga, so`zlariga qat`iy rioya qilish orqali Haqqa erishishni talab qilgan. “Bizning tariqimiz Muhammad Mustafo(SAV) etaklaridan mahkam ushlash (“urvatul vusqo”) va u kishining izlaridan izma-iz borishdir”, degan edi Bahouddin Naqshband hazratlari.Navoiy buy o`lning izchil davomchisi sifatida Jomiyni ko`rsatadi:

Homii shar`i nabi Jomiy, ki jomi shar`ro

Doshta bar kaf labolab az sharobi kavsarast[29,245].

(Nabi shariatining himoyachisi Jomiykim, shar`jomini qo`lida ushlabdir, bu jom kavsar sharobidan to`ladir.)

Shundan keyin u o`n to`rt baytda piri va do`sti Jomiy salohiyatiga yuksak baho beradi, Jomiyning ilm-u adab, fazl-u kamolda yagonaligi, ilohiy ma`nolar durrini sohib, asarlar bitganligi aytiladi. Shu bilan birga, Jomiy xoksor, uning eshigi har doim ma`rifat va ma`naviyatga tashna odamlar uchun ochiq. Jomiy Navoiy nazarida ma`naviyat saltanatining podshohi, zero shohlar uning ostonasi tuprog`ini o`pishga tayyor. Navoiy qasida oxirida shu mantiqdan kelib chiqib, yana shoh-u gado mavzuyiga qaytadi, ya`ni:

Podshohe, k-ash gadoe faqr gashtan orzust,

Chun gadoe boshad on, k-ash podshohi dar sar ast[29,246].

(Faqr gadosi bo`lishni orzu qilgan podsho xuddi podshohlikni orzu qilgan gadodir.)

Ammo “shohning muddaosi faqr yo`lida g`ov”, ya`ni shohlik—dunyoga egalik qilish fikri, faqr esa dunyodan qochish fikridir. Bular bir-biriga zid. Shu bois, deydi Navoiy, shoh”boshidagi muddaoni olib tashlasa, faqrga munosib bo`ladi”. Ulug` mutafakkir olim qasida boshida bayon etgan fikrini oxirida yana aniqroq, yorqinroq ifodalagan.

Shundan keyin Navoiy piri murshidi Jomiydan imdod va duo tilab, qasidani tugatadi. Ushbu qasida yuzasidan fikrlarimizni xulosa qiladigan bo`lsak, quyidagi jihatlarni ta`kidlash lozim:

1. “Tuhfatul afkor”da mansab va mansabdor shaxslar axloqi bilan darvesh va tariqat ahli axloqi qiyoslangan va faqr ma`naviy yetuklikning oily namunasi deb t`riflangan.
2. Shunga ko`ra, shohlik va faqirlik orasida katta jarlik borligi aytilib, faqir darvesh shoh hashamatidan ustun qo`yilgan.

3. Ya`ni ma`naviyat saltanatdan baland, bu ikkisi orasida doimiy kurash boradi, ammo saltanat ahli har qancha intilgani bilan faqr ahli darajasiga yetolmaydi.
4. Agar shoh faqr martabasini orzu etsa, unda saltanat orzusidan voz kechsin.
5. Faqr ahli bilan mehnat ahli (kosi, dehqon) ranj-u zahmati va axloqi orasida yaqinlik borligi qayd etilgan. Bu Navoiyning muhim fikrlaridan biri.
6. Qasida badiiy jihatdan g`oyat yuksak badiiy saviyada yozilgan, unda ikki jihat yaqqol ajralib ko`zga tashlanadi: biri—har bir baytni tamsil san`ti bilan qurollantirib, (ikkinchi misrada) fikrni oydinlashtirish bo`lsa, ikkinchisi—ko`plab so`z o`yinlari, muammo san`atidan foydalanish mumkin. Bunda, ayniqsa, arab yozuvi xususiyatlaridan foydalangan, qaysikim tahlil davomida bir nechtasini ko`rib o`tdi. “Tuhfatul afkor” qasidasi A.Navoiyning shoh asarlaridan biri bo`lib, unda abadul-abad ahamiyatini yo`qotmaydigan, hamisha dolzarb g`oyalar ifoda etilgan.

III.02. Qasidalar turkumida qazo va qadar talqini.

Dunyo o`tkinchi, falak zolim, umr bebaqo, bu bebaqo dunyoga haddan tashqari mehr qo`yish xato. “Qutul qulub”(“Qalblar quvvati”) qasidasi ana shu hikmatni bayon etish bilan boshlanadi va bu aqidani Navoiy batafsil tushuntiradi. 120 baytlik qasidaning 55 bayti shunga bag`ishlangan. Qasidaning 1-bayti quyidagicha:

Jahonki marhalai tangi shohrohi fanost,
Dar o` majo`y iqomat, ki rahi shohu gadost[29,257].

(Jahonkim, fano deb ataladigan kattakon bir yo`lning torgina manzilidir, unda maskan qurma, zero bu shoh-u gadoning o`tar yo`lidir.)

Shoir demoqchiki, shoh ham, gado ham bu dunyoda abadiy emas, dunyoning o`zi vaqtinchalik bo`lgandan keyin, unda abadiy qolaman deb tirishish bema`nilikdir. Bu shunday bir manzilki, unda oyoq qo`ymasdan, ko`chingni ko`tar deb turadi, bu y o`lning naboshi, na oxiri, bu dashtda kezuvchilarning maqsadi nima ekani ham noma`lum. Modomiki, Odam At ova Momo Havo o`tib ketgan ekan, yuz minglab azizlar, nabi-yu valiy, olim-u fozilning umrini ado etgan ekan, demak u bizga ham vafo qilmaydi. Dunyoni tashlab ketish ota-bobolardan meros, buni hech kim o`zgartira olmaydi. Ming yil agar umr ko`rsang ham bir lahzaday gap—xuddi bir nafas olganday o`tib ketadi. Ajablanarlisi shundaki, ana shu tor makon odam bolasiga behudud bo`lib ko`rinadi, yanada ajablanarlisi, bu tang-u tor dunyoda bir osoyish—rohat yo`q, yashashning o`zi qiyin, ustiga-ustak yana falak ham jabr o`tkazadi bizga. Bu osmon, bu tubsiz charx go`yo odam qatliga nishini to`g`rilab turgan chayonday.

Xo`sh, A.Navoiyning bu tasvirlardan maqsadi nima?

Boshidanoq ta`kidlaymizki, Navoiy bu fikrlar bayoni bilan badbin bir kayfiyat tug`dirish, dunyo harom, dunyo shayton tegirmoni, dunyoni tark etish kerak, degan g`oyani ilgari surmoqchi emas. Ulug` gumanist shoirning maqsadi boshqa. Bu maqsad ezgulikka, insonni ogoh etishga qaratilgan maqsaddir.

Birinchiidan, shoir haddan ziyod dunyoparastlikni, Xudoni, demak, chin insoniy mohiyatni unutib qo`yishga boradigan qusurlarni ochib ko`rsatishni niyat qiladi. Bu ildiz aynan mol-dunyoga behad mehr qo`yish kasofatiga borib taqaladi. Ushbu g`oya Sharq falsafasida keng ishlangan va yetakchi g`oya edi. Ulug` mutafakkirlar har qadamda inson

bolasiga murojaat qilib, dunyo hammadan qoladi, sen buni angla, dunyo abadiyat joyi emas, dunyo ruh uchun zindon, dunyoga kelibsanmi, agar sen o`zingni hayvondan afzal deb bilsang, yaxshi amallar, xayrli ishlar qil, Parvardigorni yodingda tut, aql-u zakovating, imon-u e`tiqoding bilan umrni o`tkazib, oxirat uchun tayyorlan, oxirat esa—abadiy hayotdir, degan fikrlarni ilgari surishadi.

Ikkinchidan, Navoiy ushbu qasidada maydonni keng olib, qazo va qadar masalasini qo`yadi. Inson ham, u tug`ilib o`sadigan makon ham, boringki, butun borliq Olloh hukmida, Olloh irodasi bilan harakatda. Biz falakdan noliymiz, ammo falakning ixtiyori o`zidami? Yo`q, falak ham bechora, u Taqdiri azal asbobi, xolos:

Zi charx niz na don ixtiyori in gardish,

Ki o` ham andar gardish zabuni dasti Qazost[29,258].

(Bu aylanish ixtiyorini charxdan ham deb bilma, chunki u ham aylanishda Qazo qo`lida mutedir.)

Na charx-u osmon, na quyosh va sayyoralar, na biror zarra Qazo hukmidan tashqari emas. Yilning fasllar bo`ylab aylanishi, o`zgarish—yevrilishlar, gulning ochilishi va so`lishi, kecha-yu kunduz, tug`ilish va o`lish—hamma-hammasi Qazovu qadar ishi, bari Parvardigor tomonidan belgilangan. Hashamatli tog`lar, dahshatli dengiz, undagi nahang, o`rmon arsloni ham Qazo oldida ojiz, balki chumoli bilan sher, fil bilan pashshaning qudrati Alloh jalla jalalohu nazdida teng. Inson buni anglashi kerak.

Barcha borliq—foniy, o`tkinchi, faqat Haq subhonahu va taolo boqiy, abadiy va azaliy. Biz insonlarning umid va orzularimiz, manbai kuch-qudratimiz sohibi ham shu abadiy barhayot Zoti pokdir. Biz Unga qarab o`zimizni rostlaymiz, Undan-da madad so`raymiz va unga suyanamiz, U belgilagan yo`ldan yurmoq oily maqsad!

Vujudi O`st, ki O` hastu, budu, xohat but,

Ba nisbati Ahadiyat ba xurdi hamdu sanost.

Sifati O` nabuvat munhasir ba chunu ba chand,
Hayot-u ilm-u irodat ba qudrat-u asmost.[29,306].

(Uning pok vujudi abadiy, U bor edi, U border, U bor bo`ladi. Abadiyat nisbatiga ko`ra, hamd-u sano faqat unga loyiq. Uning sifatleri “qanday va qancha” so`roqlari bilan chegaralanmaydi. Hayot, Ilm, Ibodat, Qudrat, Ismlar faqat Undandir.)

Navoiy shundan keyin iymon kalimasining boshqa shartlari, chunonchi, U yaratgan farishtalar, U yuborgan osmoniy kitoblar, Uning Rasuliga, o`limdan keyin qayta tirilishga, hamma yaxshi va yomon ishlar qadar-taqdirdan ekaniga ishonishni, namoz, ro`za, zakot, haj yo`l-yo`riqlarini ham tushuntirib, so`ngra qo`shimcha taqvo va toat bilan shug`ullanadigan odamlar rutbasini ulug`lovchi baytlar bitgan. Shoirning uqtirishicha, inson ruhi uchun eng kerakli ozuqa TAQVODIR. Shariat surunkali parhezni buyurmagan bo`lsa ham, deydi Navoiy, ammo ahlulloh (tariqat ahli)ning riyozatlari ravodir. Bunday insonlar zikru samo` bilan, suhbat bilan qalbni porlatib, yumshatib boradilar. Ular shu yo`l bilan riyo xataridan ham, dunyo ishqidan ham xalos bo`ladilar.

Biroq Navoiy bu qasidada ham nomaqbul va noma`qul axloq tanqididan o`zini tiyolmagan. Qasidaning 18 bayti ana shu tanqidiy fikrlar bayoni uchun ajratilgan. Xo`sh, bu nomaqbul axloq nimadan iborat? Bu qasidaning mavzuidan kelib chiqadigan talablardir: shariat ahkomini bajarishda hiyla ishalatish, ya`ni Xudoni aldash yo`lidan borish, chunonchi, ro`za tutib, boshqalar oshidan iftor ochish(“Beva xotin uyidan g`azo yeyish”), namozni shuhrat-manmanlik uchun o`qish hajga savdogarlik uchun boorish va h.k.

Piyolahoi puropur xo`ri zi nomardi,

V-az om ba xotiri tu dam-badam xayoli zinost[29,264].

(Nomardlik sharobidan piyola-piyola to`ldirib ichasan, shunda xayoling har zamon zinodadir).

Qasidaning o`zi esa arabiy yozuvda “qasidai minhojun najot” deb keltirilgan bo`lsa, kirill yozuvida “Qasidai minhojun najot tatabbu’ Xoqoniy-Anvariyy” deb nomlangan. Aftidan, keyingi nomlanish to`g`ri olib ko`rinadi. Qasida quyidagicha boshlanadi:

Zihiy, az sham`i ro`yat chashmi mardum gashta nuroniy,
Jahonro mardumi chashm omadi az ayni insoniy[29,275].

(Na xushkim, yuzingning shamidan odamlarning ko`zi ravshanlashdi—nurli bo`ldi. Jahonga sen insoniylik haqiqati (ko`zi) bo`lganing uchun sen jahon ko`zining gavhariga aylanding.)

Bu matla`da uch ma`no mujassam:

1. Odam Atoning hali jannatdan quvilmagan pok vujudi.
2. Muhammad Mustafo (SAV) nuri.
3. Komil inson vujudi.

Har uchchala ma`no ham bir-biriga bog`liq. Ya`ni odam Parvardigor tomonidan yaratilganda hamma fazilati bilan mukammal edi, unda Nuri Rahmoniy aks etgan bo`lib, u jahon ko`zining gavhariday aziz va mukarram edi. Chunki Odam Atoda Muhammad Mustafo nuri azaldan mavjuddir. (Xudo birinchi yaratgan narsa—Logos, Kalom ham shu nurdir). Hazrati Odam sayfulloh—Odam Ato va Muhammad Mustafo Komil inson timsolidirlar. Komil inson esa jahon ko`zi, ya`ni odamiylar odamiysi hisoblanadi. Insoniylikning javhari—haqiqati Komil insonda zuhr etadi, u ko`z singari o`zgalarni ko`radi-yu o`zini ko`rmaydi, ya`ni o`zi uchun emas, o`zgalarni uchun yashaydi.

Navoiyning:

Qaro ko`zum, kelu maedumliq emdi fan qilg`il,

Ko`zum qarosig`a mardum kabi vatan qilg`il[29,66].

degan mashhur bayti ham xuddi shuni afodalaydi.

Endi qasidaga qaytaylik. “Minhojun najot” qasidasining nasibi (boshlanma qismi) mana shu Komil inson--Hazrati Odamning Tangri

qudrati bilan yaratilishi, uning jannatda Havo bilan osuda va baxtli hayoti, Odam Atoning ta`rif-u tafsifiga bag`ishlangan. 11 baytda shoir Odam tuprog`ining yerdan farishtalar tomonidan keltirilgani, vujudining tilsimoti Xudoning ilmi hikmati bilan tiklanib, aql-u donnish va bilim suvi bilan sug`orilgani, Ollah ilmiga musharraf bo`lgani uchun barcha mavjudotlarga sarvar-u sardor ekanligi, shu bois maloikalar unga sajda qilgani, ammo Iblis kibr-u havo yuzidan sajdaga bo`yin egmagani aytiladi.

Navoiy Iblisni “vahshiy qush” deb ataydi. Inson esa Tangri nazdida eng mukarram zot bo`ldi va Xudoning xalifasiga aylandi. Biroq mardud(rad etilgan) va mal`un(la`natlangan) Iblis qasd olishga chog`lanib, senga man etilgan daraxt mevasini yedirtdi va Ollah taolo seni jannatdan chiqarib yubordi, deydi Navoiy.

A.Navoiy bu g`oyani o`z qasidasiga asos qilib olarkan, Odamning jannatdan quvilishini buyuk bir fojia sifatida talqin etadi. Jannatdan haydaliq—bu poklik olamidan, Parvardigor huzuridan haydaliq, bu rohatdan azobga, farishtalikdan hayvoniqlikka tomon harakat deb qaraladi . Biroq shunisi taskin beradiki, Alloh taolo bandalariga yaxshi, solih amallar bilan shug`ullanib, savob ishlar qilsalar, zikr-u toatda bo`lsalar, yana jannatga qaytishga va`da berdi, ikkinchidan, Ollah insonlarni Yer yuzida jamiki narsalarga qo`riqchi—posbon qilib qo`ydi:

Vale mulki jahonro yofti hukmi jahonboni[29,280].

(Jahon mulkiga jahonbonlik hukmini topding.)

Biroq, muhimi faqat bu emas. Muhimroq jihati shuki, Navoiy qasidaning asosiy qismini inson nuqsonlarini ochib ko`rsatish va bu nuqsonlardan qanday qilib qutulish haqida yozadi, insonni ma`naviy-axloqiy kamolot sari har doim, hamisha kurash olib borishga da`vat etadi. 138 baytli qasidaning 86 bayti aynan shu g`oya talqiniga bag`ishlangan. Navoiy-Foniy nazdida Odamning jannatdan quvilgani qanchalik achinarli va fojiali bo`lsa, uning o`zini, o`z burchi, oily

vazifalarini anglamay, g`ofil bo`lib, hirs-u havas, yolg`on va riyo, vatanparvarlik va fahshga berilish ham shuncha fojiali va achinarli. Shu bois shoir xiyla keskin va satirik holatda illatlarimizni oynaga ko`rsatganday birma-bir ko`rsatib o`tadi. Har bir illat, har bir nuqs-u badaxloqlik nechog`lik insonni tubanlikka olib borishi, uning o`sha jannatiy nomiga isnod keltirishni ta`kidlaydi. Odamlar buni anglamaydilar, bugina emas, ular qabih ishlarini e`tiqod, iymon bilan berkitmoqchi bo`ldilar. Navoiyning mazzamatlari baytdan baytga ko`chib boradi, baytdan baytga biz turli xildagi nuqsonlar, kamchiliklarning falokat keltiruvchi poetik sharhini o`qib boramiz. Shoir bu bilan odamlarni ogohlantiradi. Natijada, asarni o`qib, qadam – baqadam haqiqiy taqvo va halollik, rostgo`ylik va to`g`rilik yo`li nima ekanligini anglab boramiz.

Xo`sh, shoir nazdida yomon va g`ayriinsoniy hisoblangan “xislatlar” qaysilar?

Navoiy bu qasidada tanqid ostiga olgan odamlarning kasb-kori, mashg`uloti, va h.k.lariga qaramagan. Buni aytishimizning sababi shuki, boshqa asarlarida, chunonchi, “Mahbubul qulub” va “Hayratul abror”da u zolim podsho, riyokor shayx, rishvaxo`r shayxul islom yoki vazir-u amir, tamagir qozi va h.k. haqida alohida fikr bildiradi. Ushbu qasidada esa umuman, axloqiy noqisliklar, o`zini, o`z odamiylik asliyatini, avval boshda Xudo ato etgan rahmoniy xislatlarni barham bera borib, shaytoniy belgilar kasb etgan odamlar xususida achchiq, zaharli va fosh etuvchi misralarni tizib, ularning tashqi qiyofasi, faoliyatini ham, ichki olami, buzuq niyatlarini ham o`quvchi ko`z oldida namoyon qiladi. Qasidada nafs yo`lida din-u iymonidan kechgan, nima bo`lsa ham boylik orttirishni o`ylaydigan, yolg`on va aldovni hayot qoidasiga aylantirgan odam qiyofasi chizilgan. Qasidaning har bir baytida bitta salbiy xususiyat g`oyat ta`sirchan va muvofiq o`xshatish yoki istiora,

mubolag`a bilan ochib beriladi. Ba`zan bitta yomon xislat bir necha bayt orqali tasvir etiladi.

Insonni tubanlikka tortuvchi shaytoniy xususiyatlar uni turli ko`ylarga soladi, inson o`zining salohiyati, botiniy sobit qadr-qiymatini, sharafini yo`qota boradi. Falakning kajraftorligi odamning hiylalari oldida hech narsa bo`lmay qoladi. Atrofdagilarning ko`ziga “ulug`vor, vali-yu ulamo” bo`lib ko`rinishga intilish, o`zini G`azzoliy yo Kattoniyday alloma qilib ko`rsatishga tirishadi. Ammo aslida na qalbda bir nur, na boshda ilm-u hikmatdan nishon bor. Aksincha, fikr-u zikri chiroyli kiyingan zebolar bilan aysh qilish, fahshdan lazzat topishdir. Qorun degan odam, rivoyatda aytilishicha, behisob oltin jamlab, xasisligidan uni yashirib, hech kimga foydalanishga bermagan. Oxiri yer yorilib, Qorunni boyligi bilan yutib yuborgan ekan.

Navoiy shu rivoyatni misol keltirib deydi: “Agar senga Qorun xazinasidan boylik nasib etsa, bu boylik uchun dunyo mulkini buzib, vayron etishga ham tayyorsan”.

Bunday odamlar qalbida faqat yomonlik, badbinlik urug`i ko`karadi, ulardagi hirs va havo olovidan yuzlab dehqon xirmonlari yonadi. Biroq qizig`i shuki, bu yo`lda ko`z yoshi to`kasan, o`zingni ba`zan aftoda, ojiz-u mazlum qilib ham ko`rsatasan. Odamning hiyla-nayrangi oldida shayton ham ip esholmaydi. Shu o`rinda Navoiy qiziq bir misol keltiradi:

Farishta, filmasal, dar shakli inson gar shavat zohir,
Namoyat rohi shaytonat, ki jo`yi bahri mehmoni.
Labolab rohi rayhonish dori to kuni mastash,
Sirishta doruii behushi andar rohi rayhoni[29,280].

(Agar masalan olaylik, farishta odam suratida paydo bo`lsa, shaytoniy niyating uni mehmon qilish payiga tushadi, unga sen rayhoni rang(ko`kish)mayni to`ldirib tutqazasan, toki mast bo`lsin deb. Ham rayhoni mayingga behush qiladigan dori qo`shib ichirasan)

Qanday ajoyib tasvir, tanish lavha. Qanchadan-qancha farishta tabiat odamlar mana shunaqa fitnachi nayrangbozlar domiga tushmagan deysiz bu dunyoda. Ammo odam osmondagi farishtaga ham pand beradi, uni ham aldab domiga tushiradi, maqsadi, farishtadan ham manfaat topish.

Falak emin namonad az tu bo in devfe`liho,

Nametarsi zi qahri ezidi, eminchi son moni?[29,280]

(Farishta ham sening devfe`lligingdan omon qolmaydi. Tangri taolo qahridan qo`rqmaysan, ammo o`zing qanday omon qolasan, deb aytadi shoir.)

Odam ichidagi dev bo`sh qo`yilgach, u hech narsadan tap tortmaydi, uning oldida Fir`avn va Namrud ham oddiy xizmatkorday gap. Navoiyning hajv kuchi, nafrati oshib ketgach, quyidagicha satrlarni bitgan:

Zi bas tori libosat on chunon kisvat kuni xudro,

Ki ne doman zi vay fahm gardat, ne girbone.

Chu kirmi qaz ba sad rasvoiyat mberun kashand az vay,

Ki ham go`ri tu buda ham kafan az ayni pechoniya[29,276].

(O`zingni shunday libosga o`raysanki, uning na etagi, na yoqasi bilinadi. Xuddi pilla qurtiday seni undan tashqariga tortib oladilar. Shunday o`ranibsanki, go`yo bu libos ham go`ring va ham kafaningdir)

Navoiy yuqorida aytganimizdek, biror bir ijtimoiy guruh, tabaqa yoki kasb egalarini ajratib olib, tanqid ostiga olgan emas. Qasida umuman, insonning noqisliklarini oshkor etishga bag`ishlangan va bu noqisliklar kammi-ko`pmi aksar insonlarda bor. Jamiyatda bu noqisliklardan xoli odamni toppish qiyin. Navoiy o`zini nafsli zolimga banda bo`lganlar qatoriga qo`shadi. Lekin u qanday ulug inson edi, uning umr yo`li savob-u ezguliklar yo`li edi. Uning asarlaridagi ezgu va nurbaxsh g`oyalar, uning minglab odamlarga yetkazgan muruvvati, adolat poydorligi uchun qilgan amallari mana asrlarkim, ibrat va namuna

bo`lib kelmoqda. U hayotda insoniylik timsoli edi. Biroq shunday inson ham o`zini begunoh, barkamol hisoblamagan, u yana uch narsani urg`ulab, umid qiladiki, shoyad Parvardigor shu uch narsani inobatga olib, gunohlarini kechirsa. Shoir ta`kid etadi:

1. Isyon-u noqislik paydo bo`lganda, bu bilan kechirilmasdan, bil`aks, tavba qildim, pushaymon bo`ldim.
2. Fe`limda qusur yuz berganda ham Rasuli akram (SAV)ga dildan sadoqat ko`rsatib, “hamisha rahmoniy tavfiq bilan komil bo`ldim”.
3. Hazrati Maxdum(Jomiy) xizmatini ado etib turdim.

III.03. Asarda “zulmoniy nafs” badiiy tasvir

Hazrat Navoiyning o`zini “zulmoniy nafs”ga giriftorlar qatoriga qo`shishi qasidaning umumlashtiruvchilik xususiyatini oshirib, ta`sirchanligini yana ham kuchli qilishga sabab bo`lgan. Umuman shoirning ushbu qasidani yozishidan maqsadi, odamlar qalbini uyg`otish, gumrohlik, g`ofillikdan ogohlantirish edi. Buni Navoiy asar oxirida o`zi ta`kidlagan:

Musalsal z-ibtidoi ofarinish to bad-in soat,

Suxan dar yak qasida rondam az ro`i suxandone.

Ba har baytash kitobe darj kardam-sarbasar hikmat

Ba har yak durj pinhon soxtam sad gavhari kony

Bayoni holi xud z-insof kardam, v-on gah avsofash

Buvad ham bahra girad az tavajjuhoi vijdoniy

Chunon bedor kardam ahli olamro az in gulbong,

Ki n-oyat xobashon to hashr az ando`hu pazmoniy[29,286].

(Odamning yaratilish ibtidosidan shu damgacha bo`lgan bir silsilada, bir qasidada suxandonlik bilan bitdim. Har bir baytga boshdan-oyoq hikmatdan iborat bir kitob ma`noni joyladim va har bir sandiqcha ichiga yuz gavhar donalarini soldim. Insof yuzasidan o`z holimni ham bayon etdim, chunki har qachon o`quvchi mening fikr-u andishalarimdan boxabar bo`lsin, vijdoni qo`zg`alsin. Bong urib,

olam ahlini shunday uyg`otdimki, Qiyomatgacha anduh va sog`inchdan uyqulari kelmagay.)

Navoiyning forsiy qasidalarini ham shunday qarashni ifodalaydi. Ammo bu qarashlar hamon ahamiyatini yo`qotmagan, hamon inson o`sha kasalga mubtalodir. Navoiyning so`zlari shu bois bugun yozilgan yangi asarday jaranglab turibdi. Uning faryodiga biz bugun ham quloq solishimiz, ibrat olib, o`zimizni ma`naviy o`nglashimiz kerak.

“Nasimul xuld” (“Jannat shamoli”) Navoiyning “Sittai zaruriya” nomi bilan jamlangan forsiy qasidalarining oxirgi xulosaviy qasidasidir. Shoir oldingi qasidalarida tilga olgan tasavvuf haqidagi fikr martabasi va unga erishish yo`llari haqidagi fikrlarini yangi poetik talqinlar bilan chuqurlashtirgan va bir tizimga olib kelgan. Bu qasidada oldingi qasidalarda ko`ringan tanqidiy qarashlar yo`q. bunda inson poklanishi va komillikka erishishi uchun nimalar qilishi lozimligi, tariqat odobi va usullari, pir va murid orasidagi munosabatlar, Haq yo`liga kirgan odam oldiga qo`yilgan talablar birma-bir bayon etiladi. Xullas, Navoiyning naqshbandiya tariqati, tasavvuf haqidagi qarashlari yaxlit tizimda she`riy til bilan ifodalab beriladi. Shoir nazarida, inson axloqini takomillashtirish, uning ruhiy-ma`naviy olamini yuksaltirib, insoniylik sharafiga musharraf etishning eng to`g`ri yo`li—tariqat, inson suyanishi va qalbidan joy berishi lozim bo`lgan g`oya tasavvuf g`oyasidir. Shu ma`noda “Nasimul xuld” qasidasining naqshbandiya tariqatining she`riy bayonnomasi o`ziga xos dasturi desa bo`ladi. Navoiyning boshqa asarlarida ham so`fiylik yo`li, naqshbandiya tariqati xususida fikr yuritilgan. Ammo hech yerda but a`limot ushbu qasidadagiday batartib va batafsil qilib bayon etilmagan.

“Nasimul xuld” Hoqoniy Shirvoniy, Amir Xusrav va Jomiy qasidalariga tatabbu` usulida yozilgan. Asar tasavvufning muhim masalalaridan biri Ishq va Aql qiyosi bilan boshlanadi:

Muallim Ishqu piri Aql shud tifli dabistonash,

Falak don bahri ta`dibi vay, inak, charxi gardonash[29,299].

(Ishq—muallim, keksa aql esa uning maktabining o`quvchi bolasi bo`ldi. Falakni uning tarbiyasi bilan mashg`ul bo`lgan deb bil, aylanuvchi charx ham)

Ammo Aql Ishq uchun munosib shogird emas. Chunki aql ishqdan keksa, uning tili duduq, fahm-farosati chegaralangan. Bir umr urinib, unga bir saboq o`rgatib bo`lmaydi. Agar mabodo shuncha vaqt ichida biror narsa o`zlashtirsa ham deydik, lekin bir soat davomida buni xotirasi lavhidan yuvib tashlaydi, deb yozadi shoir. Nega aql bunaqa nodon va o`tmas?

Gap shundaki? Tasavvuf ahlining aqidasi bo`yicha aql Ollohni va Olloh olami—g`ayb olamini bilishga ojiz. Aql insonni ulug`laydi, ammo u dunyoviy o`lchov va mantiq bilan, dalillar bilan chegaralanadi. Shulardan tashqariga chiqqanda, aql nochor bo`lib qoladi. Zero, Parvardigorni bilishda aqliy usullar natija bermaydi. Inson ratsional (aqliy) bilishdan irratsional(g`ayri aqliy) bilishga o`tib, g`ayb olami bilan qalb va shuuri bog`lansa, g`aybdan bashorat bera boshlasa, o`shanda u chin so`fiy, komil inson bo`lishi mumkin. Qalb esa ishq makoni. Irratsional bilish, ya`ni irfoniy tafakkurning bosh yo`li va suyangan usuli ana shu ishqdir. Ishq shu bois ham aqldan ustun. Shu bois ham aql uning ta`limini ololmaydi. Aql ishqqa shogird tusha olmaydi, chunki ishq bilan kashf etiladigan bilim, tuyg`u, huzur-halovat aqlga begona. Ishq va ishqdan tug`ilgan jazba so`fiyni oily maqomlarga olib chiqadi, murodiga yetkazadi.

Navoiy ta`rifiga ko`ra, ishq nur, aql zulmat; ular o`zaro birlashishi mumkin emas:

Az on ustodu shogirdi natija kay shavat hosil,

Ki on shud nuru in zulmat, ba ham omxt natvonash[29,299].

(Bu ustoz-shogirdlikdan natija chiqishi qiyin, chunki u (ishq) nurdir, bu(aql) zulmatdir, ularni bir-biriga qo`sholmaysan)

Aynan ishq insonni nuqson va nodonlikdan himoya qilib, irfon ilm-u ma`rifatiga to`ydiradi. Shu ishqdirki, inson ruhini poklab, hirs-u nafas changalidan xalos etadi va Jannatga olib boradi. Shundan keyin Navoiy so`fiylar tasavvuridagi jannat ta`rifiga bir necha bayt bag`ishlaydi. Bu jannat bog`ining sarv daraxti imon bog`ining aliflaridir, unda Haq subhonahu kalomi ohangi tinmaydi, anhorlarda muqaddas suvlar ravon, havzi Xizr chashmasidek zilol va abadiy hayot berguvchi, gulistonining gullari oftob varaqlari kabi go`zal va porloq. Bu gulshan, deydi Navoiy, **ma`rifat bog`i** bo`lib, u **komil inson makonidir**.

Demak, jannat deganda shoir ikki narsani—solih bandalari uchun Parvardigor oxiratda in`om etadigan dorulbaqoni va Komil inson ko`nglini nazarda tutadi. Komil inson ma`rifat bog`ining posboni, Yazdoni pok asrorining oshnosi. Lekin komil inson bu sharafni Ishq tufayli topdi. Ishq nihoniy ganj—botiniy olamini obod qilib, zohir olam—badan mulkini vayro etdi. Qasidada 20 bayt komil inson ta`rifiga bag`ishlangan. Shoirning ta`riflari baland pardalarda jaranglaydi, bu ta`riflarda cheksiz muhabbat, havas va sog`inchli armon ifodalangan.

Masalan:

Xusho jam`iyati botin bad-inson solike, Foniy,

Ki hivzi inchunin ganje kunad zohir pareshonash.

Xusho ma`muri mulki dili on rahravi komil

Ki shud shahri badan az bahri posi ganj vayronash[29,302].

(Bunday solikdagi botinning jamligi—ko`ngil osoyishtaligi qanday yaxshi, ey Foniy. Uning zohiriy parishonligi botindagi ganjni qo`riqlaydi. Bu komil yo`lovchining qalb mulkining obodligi qanday yaxshikim, badan shahri botin ganjini qo`riqlab, xarob bo`ldi.)

Navoiy tasviriga ko`ra, komil inson sifatlari quyidagilardan iborat: botiniy olami sarishta, zohiriy ko`rinishi parishon, badan mulki e`tiborsiz, vayrona, ichki olami—qalbi esa obod va nurafshon, botinda vasl daryosiga cho`mgan, ammo tashqi ko`rinishda jismi axloqiy-ilohiy

fazilatlar kasb etib, ma`rifat ummonida nur kemasiday suzadi. Doim xayoli zikr bilan band, ammo kiygani janda xirqa. Uni malomat qiladilar, biroq uning dilida Ollohning Vohid ismi alifday mustahkam turadi. Biz ko`z ochib- yumguncha, Mag`rib-Mashriqni kezib chiqadi, quyosh kabi olamni nigohi qamrab olgan. Nafsoniy lazzatni tark etgan, himmati osmon qadar oliy. Agar vajdga berilsa, falak uning etaklari ostiga tushadi. Na dunyo voqealari, na falak hodisalari uni chalg`it olmaydi, axir Arsh farishtasi Nuh to`fonidan qo`rqadimi?!

III.04.Qanoat,shukr,tavakkul,rezoning badiiy talqini

Shoir faqr haqida ham ancha keng to`xtab o`tadi. Riyozatning natijasi faqr-u fano, ya`ni ilohiy axloq sohibi bo`lish. Faqrning belgilari deb Navoiy **Qanoat, Shukr, Tavakkul, Rizo, Haq sirriga ogohlikni** tilga oladi. Faqir odamning dili ravshan, riyo va makrdan xoli, rahm-u shafqatga limmo-lim bo`ladi. Faqr dunyo mahbubini sevishni inkor etmaydi, ammo bu majoziy ishq haqiqiy ishq uchun vosita bo`lsagina maqbuldir.

Bute k-at hast-mahbubi majoziy doriyash pinhon,

Ba mahbubi haqiqiy ansab omad sirru kitmonash[29,304].

(Agar bir but—mahbubi majoziy bo`lsayu, uni pinhon tutsang, uning siri rozi mahbubi haqiqiyga munosibroqdir)

Bu fikr tasavvufdagi dunyoviy(majoziy) muhabbat bilan ilohiy(haqiqiy) muhabbat munosabatlarini tushuntirishga ancha aniqlik kiritadi. Navoiy fikri bo`yicha, faqr maqomiga erishgan odam uchun karomatlar, bashoratlar ham muhim emas, zero, karomat ko`rsatish ham riyoning bir xili, shuning uchun bunga mahliyo bo`lma, deydi shoir. Faqr martabasida insonda muruvvat va shafqat hissi nihoyatda rivojlanadi, bunday martabada kishi dushmani ham kechiradi:

Ado`gar qasti jonat kard, chun qodir shudi bar vay,

Zi taqdiri Haqash medon, yaqin pas dil maranjonash[29,264].

(Agar dushman joningga qasd qilsa, lekin sen undan g`olib kelsang, buni Haqning taqdiri deb bilib, uni ranjitma)

Faqrغا kirgan odam Haq bilan sirlashar ekan, buni sir saqlashi, ko`z-ko`z qilmasligi lozim. Shu tariqa, agar “Tuhfatul afkor” qasidasida faqr martabasining ulug`vorligi, uning shohlik va saltanatdab ustunligi haqida so`z borsa, “Nasimul xuld”da Faqrning mohiyati, belgi va fazilatlarini, faqrغا ko`tarilish yo`llari batafsil tushuntiriladi.

Yuqorida “Tuhfatul afkor” qasidasi munosabati bilan Navoiy “Hukumat tavrini” tanqid qilmay, “darveshlar maddohlig`ida” bir qasida yozib, Boyqaroga bag`ishlash niyati bo`lganini, matla`ni aytib, Jomiy nazaridan o`tkazgani, ammo qasidaning o`zi yozilmay qolganini qayd etgan edik. Balki ana shu “Nasimul xuld” qasidasini yozish bilan niyatiga erishgandir.

Xullas, “Sittai zaruriya” qasidalar turkumi darveshlik va faqr g`oyalarini tarannum etish, insonni sharaflash, ilohiylashtirishning yo`li tariqat ekanini ko`rsatish bilan yakun topadi. Bu ulug`mutafakkir Navoiyning e`tiqodi, hislari, shuurini qamrab olgan muqaddas g`oyalarining ifodasidir.

“Sittai zaruriya” debochasida ushbu qasidani Navoiy Foni “Tuhfat un – najot” deb ataydi. Qasidaning o`zi esa arabiy yozuvda “Qasidai minhojun najot” deb keltirilgan bo`lsa, kirill yozuvida “Qasidai minhojun najot tatabui Xoqoniy – Anvari” deb nomlangan. Aftidan, keyingi nomlanish to`g`ri bo`lib ko`rinadi. Qasida quyidagicha boshlanadi:

Zihiy ,az sham`I ro`yat chashmi mardum gashta nuroniy,

Jahonro mardumi chashm omadi az ayni insoniy[29,239].

(Na xushkim , yuzingning shamidan odamlarning ko`zi ravshanlashdi – nurli bo`ldi. Jahonga sen insoniylik haqiqati (ko`zi) bo`lganing uchun sen jahon ko`zining gavhariga aylanding).

Bu matla`da uch ma`no mujassam: 1) Odam atoning hali jannatdan quvilmagan pok vujudi; 2) Muhammad Mustafo (SAV) nuri; 3) Komil inson

vujudi. Har uchchala ma'no ham bir-biriga bog'liq. Ya'ni odam Parvardigor tomonidan yaratilganda hamma fazilati bilan mukammal edi, unda nuri rahmoniy aks etgan bo'lib, u jahon ko'zining gavhariday aziz va mukarram edi. Chunki Odam Atoda Muhammad Mustafo nuri azaldan mavjuddir. (Xudo birinchi yaratgan narsa – Logos, Kalom ham shu nurdir). Hazrati Odam sayfulloh – Odam Ato va Muhammad Mustafo Komil inson timsolidirlar. Komil inson esa jahon ko'zi, ya'ni odamiylar odamiysi hisoblanadi. Insoniylikning javhari- haqiqati Komil insonga zuhr etadi, u ko'z singari o'zgalarni ko'radi-yu o'zini ko'rmaydi, ya'ni o'zi uchun emas, o'zgalarni uchun yashaydi.

Navoiyning:

Qaro ko'zim, kelu mardumliq emdi fan qilg'il,

Ko'zum qarosida mardum kabi vatan qilg'il [29,66].

Degan mashhur bayti ham xuddi shu ma'noni ifodalaydi.

Endi qasidaga qaytaylik. "Minhojun najot" qasidasining nasibi (boshlanma qismi) mana shu Komil inson – Hazrati Odamning Tangri qudrati bilan yaratilishi, uning jannatda havo bilan osuda va baxtli hayoti, Odam Atoning ta'rifu tavsifiga bag'ishlangan. O'n bir baytda shoir Odam tuprog'ining farishtalar tomonidan Yerdan keltirilgani, vujudining tilsimoti Xudoning ilmi hikmati bilan tiklanib, aql-u donish va bilim suvi bilan qorilgani, Olloh ilmiga musharraf bo'lgani barcha mavjudotlarga sardor-u sarvar ekani, shu bois maloikalar unga sajda qilgani, ammo Iblis kibr-u havo yuzidan sajdaga bo'yin egmagani aytiladi.

Navoiy Iblisni "vahshiy qush" deb ataydi. Inson esa Tangri nazdida eng mukarram zot bo'ladi va Xudoning xalifasiga aylandi. Biroq mardud (rad etilgan) va mal'un (la'natlangan) Iblis qasd olishga chog'lanib, senga man etilgan daraxt mevasini yedirdi va Olloh taolo seni jannatdan chiqarib yubordi, deydi Navoiy.

Shoir buni afsus va achinish hissi bilan tilga oladi:

Namedonam chi shud bo on, ki Haq "lotaqraba" farmud,

Girifti bo rafiqat nuktai on dushmani joni?

Magar z-on ro'z gandum Sinai xud chok zad z-on g'am,

Ki az chi dushmanat farmud tarki banda farmoniy [29,286].

(Bilmadim nima boldi-yu Haq “uzoqlashing” deb buyurdi.(Sen axir nega rafiqing (Havo) bilan jonlar dushmani Iblis so’ziga kirdilaring...O’sha kundan beri, ya’ni sizlar bug;doy yegandan beri bu g’amdin bug’doyning siynasi chok (bug’doy donasidagi yoriqqa), dushmanning (Iblis) senga farmonga bo’yinsunmaslikni o’rgatdi,sen negadir hiylani anglamading).

Navoiyning fikri bo’yicha , bu Iblis aslida Nafs edi.Nafs qutqusi Odamni komillikdan,jannat rohatidan dunyo biyoboniga quvg’in qildi:

Chi rasvoist, k-on nav’ odami komil zi bog’I xuld

Shavad dar dashti g’am sargashta chun g’o’li biyobiniy...

Siyah ro’yiyyu, dargah rondagiyyu g’urbati mehnat,

Chi bud in jumlaro bois hamin yak hazzi nafsoniy[29,276].

(Qanday rasvolikkim, shunday bir komil odam jannatdan quvilib, sahro devi kabi g’am dashtida sargardon bo’lsa...Bu yuz qoralik, ulug’ dargohdan quvilish,azob-u uqubatning barchasiga sabab o’sha nafsoniy lazzat edi).

Ko’rinadiki, bunda Qur’ondagi rivoyat asos qilib olingan .Qur’ondan Odam Atoning jannatdan quvilishi va inson zotining dunyodagi azob-u mehnatlari , ayriliq va qiynoqlar , gam-u anduh shundan boshlangani ko’p oyati karimalarda zikr etiladi.Olloh bandasini shayton so’ziga kirmaslikka , bandalikni tark etmasdan , itoatgo’y bo’lib yashashga da’vat etadi.Inson o’z asliga qaytishi uchun o’sha gunohlarini unutmay ,bu gunohlarni toat-ibodat bilan yuvishi takomillashib borishi darkor.Shunda u yana jannatga qaytadi.

Alisher Navoiy bu g’oyani o’z qasidasiga asos qilib olar ekan , Odamning jannatdan quvilishini buyuk bir fojia sifatida talqin etadi . Jannatdan haydalishtan poklik olamidanda , ruhlar olamidanda,Parvardigor huzuridan haydalishtan bu rohatdan azobga , farishtalikdan hayvoniylikka tomon harakat deb qaraladi.

Biroq shunisi taskin beradiki,nAlloh taolo bandalariga yaxshi solih amallar bilan shug’ullanib,savob ishlar qilsalar, zikr-u toatda bo’lsalar,yana jannatga qaytishga va’da berdi,ikkinchidan , Alloh insonlarni Yer yuzida jamiki narsalarga qo’riqchi posbon qilib qo’ydi:

Vale mulki jahonro yofti hukmi jahonboni[29,275].

(Jahon mulkiga jahonbonlik hukmini topding).

Biroq muhimi faqat bu emas. Muhim jihati shuki, Navoiy qasidaning asosiy qismini inson nuqsonlarini ochib ko'rsatish va bu nuqsonlardan qanday qilib qutulish haqida yozadi, insonni axloqiy ma'naviy kamolot sari har doim, hamisha kurash olib borishga da'vat etadi. Bir yuz oltin sakkiz baytli qasidaning sakson oltin bayti aynan shu g'oya talqiniga bag'ishlangan. Navoiy-Foniy nazdida Odamning jannatdan quvilgani qanchalik achinarli va fojiali bo'lsa, uning o'zini, o'z burchi, oily vazifalarini anglamay g'ofil bo'lib, hirs-u havas, yolg'on va riyo, vatanparvarlik, fahshga berilishi ham shuncha fojiali va achinarli. Shu bois shoir hiyla keskin va satirik ohangda illatlarimizni oynada ko'rsatganday birma-bir ko'rsatib o'tadi. Har bir illar har bir nuqs-u badaxloqlik nechog'li insonni tubanlikka olib borishi, uning o'sha jannatiy nomiga isnod keltirishini ta'kidlaydi. Odamlar buni anglamaydilar, bugina emas, ular qabih ishlarini e'tiqod iymon bilan berkitmoqchi bo'ladilar. Navoiynining mulozamatlari baytdan baytga kuchayib boradi, baytdan baytga biz turli xildagi nuqsonlar, kamchiliklarning falokat keltiruvchi poetik sharhini o'qib boramiz. Shoir bu bilan odamlarni ogohlantiradi. Natijada asarni o'qib, qadam baqadam haqiqiy taqvo va halollik, rosrigo'ylik va to'g'rilik yo'li nima ekanini anglab boramiz.

Xo'sh, ulug' shoir nazdida yomon va g'ayriinsoniy hisoblangan "xislatlar" qaysilar? Qasidani bir boshidan o'qigan odam quyidagi nuqsonlar Navoiyning rad etuvchi satirik bahosiga "sazovor" bo'lganini ko'radi: g'ofillik, gunoh qilib tavba qilmaslik, imoning sustligi, zolim nafs talablarini Parvardigor muhabbatidan ustun qo'yish, o'zini har xil rangga kiritib, turlicha tovlanib yurish, musulmonman deb kerilib, musulmonchilik ishidan bexabarlik, takabbur manmanlik, xasislik, firibgarlik, lazzatparastlik, fahshga berilish va hokazo.

Ba'zi misollarni keltiramiz:

Jahon ravshan zi nuri oftob, ammo tu chun xuffosh,

Hama dar pardahoi zulmati shab jasta kitmoniy.

(Jahon quyosh nuridan ravshan, ammo sen boyo'g'li kabi tun pardalari ichida yashirinib uchasan).

Quyosh bu yerda Ollah timsoli. Olamni Ollah nuri yoritib tursa-da, ammo sen quyoshga toqat qilolmaydigan boyo'g'li kabi yashirinib ish qilasan yashirin fikrdasan. Bu o'rinda Navoiy munofiq, imonini nafsiga sotgan odamlar haqida gapirmoqda. Ular Xudoga ham ishonmaydilar, garchi Xudoning qudrati va hikmati kunday ravshan bo'lsa ham. Ularning ichida "kofir nafs" shunchalik o'rnashib olganki, bunga qul bo'lib "La iloha illalloh" (Allohdan o'zga iloh yo'q) degan imon kalimasi ham bundaylarning qorong'u qalbini yoritmaydi, balki bu qalbgaga kirolmaydi ham. Chunki parishon qalbgaga nur kirib joylashmaganidek, "aynogan qatra" ichiga obi hayvonni joylash qiyin.

"Sening bu islom-u imoningdan kofirlar qah-qah urib kuladi, o'zingga boq, uyalgin bunday "musulmonlikdan", deydi kuyunib Navoiy. Bunday odamlarning tushunchasi shunchalik torki, deb davom etadi shoir, ular jannatni xuddi dunyodagi o'zlarining maishat va fahsh asbobi bo'lgan narsalar kabi tasavvur etadilar. Ya'ni jannat hurlarini go'zal qizlar deb, Tuboni bir oddiy daraxt deb, Kavsa mahalladagi havz deb o'ylaydilar. Holbuki, Qur'on oyatlari ramziy ma'noga ega, jannat ashyolari tasviri ham timsol va ramzlardir. Ularni dunyo narsalariga tenglashtirish bema'nilik va xato:

Zihi ko'ri ba bog'I ofarinish, k-az sari g'aflat

Falakro nilufar doni-yu, tubiro giyah xoni [29, 278].

(Bu qanday ko'rgulikki, g'aflat va nodonlik oqibatida falak osmonni suvdagi nilufar gullar, jannatdagi Tubo daraxtini esa giyoh deb tushunsa).

Bunday odamlar Qur'ondan ham faqat o'z nafsoniy manfaatini ko'zlab foydalanadilar, muqaddas kitob oyatlari ko'ziga oltin tangalari bo'lib tuyuladi, ularni namoz-u ro'zasi ham sidqidildan emas, balki riyo va xalqni aldash uchundir. (Xalq ko'rsin deb masjididan hammadan keyin chiqasan, namozda yuz xil nayrang o'ylaysan, bunaqa namozxonlikdan ko'ra rohiblik yuz marta yaxshi, deb yozadi Navoiy. Shu kabi shariatning boshqa shartlarini hiyla nayrang yuzasidan bajaradiganlar bor. Ro'zani askar tutmaysan, agar tutsang ham, nonni tejash uchun tutasan.

Va-gar g'oyati islom mayli haj kuni nigoh,

Matoi Makka pursi az garoni yoxud arzoni .

Agar sudi nako' ummed boshad bor barbandi,

Dar haj in farq kay boshad dar islomi-yu nasroniy[29,279].

(Va agar islom talabi bilan nogoh hajga bormoqchi bo'lsang avval Makkadagi matolarning qimmat yoki arzonligini so'raysan.agar yaxshi foyda olish umidi bo'lsa yukni ortib ,yo'lga tushasan .Bunday hajda musulmonlik bilan nasroniylik orasida qanday farq bor?)

Holbuki, hajga manfaat uchun,tijorat ishini yurgizish uchun emas,balki xolisanlilloh Ka'ba ziyorati uchun pok Parvardigor amrini bajarish uchun boriladi.Navoiy fosh etishni davom ettirib , bunday odamlar agar tijoratdan naf ko'rishni umid qilmasalar,"kam sarmoyalik ,yo'l xavf-u xatari va jismoniy zaiflikni " bahona qilib ,hajga bormay qo'ya qoladilar, deydi.

Modomiki, XV asrda, Navoiy zamonida ham shunday tijoratchi hojilar bor ekan,demak illatning tarixi va bizning zamondagi "tojir "hojilar" o'shalarning davomchisi bo'lib chiqadi.Navoiy uchun bu nafaqat shariatga zid ish, balki odamiylik axloqiga ham ziddir.Biz bunday "Hojilar" haqida besh yarim asr muqaddam hazrat Navoiy tili bilan bunday deyishga haqlimiz:

Buvad imonat on, islomat in,ey "mo'min muslim?"

Juz in ham kofiriho boshadat dar parda pinhoni[29,279].

(Imoning shumi, isloming bumi , hayf senga,ey "mo'min-u muslim" nomini ko'targan .Bundan boshqa kofirliklar senda parda ichida yashiringan).

Alisher Navoiy bu qasidada tanqid ostiga olingan odamlarining kasb-u kori , mashg'uloti va hokazolariga qaramagan.Buni aytishimizning sababi shuki,boshqa asarlarida ,chunonchi "Mahbubul-qulub" va "Hayratul-abror"da u zolim podsho,riyokor shayx, rishvaxo'r shayxul islom yoki vazir-u amir,ta'magir qozi va hokazo haqida alohida-alohida ilib fikr bildiriladi. Ushbu qasidada esa ,umuman axloqiy noqisliklar ,ozini ,o'z odamiylik asliyati, avval boshda xudo ato etgan rahmoniy xislatlarni barham bera borib ,shaytoniy belgilar kasb etgan odamlar xususida achchiq-achchiq,zaharli va fosh etuvchi misralarni tizib ,ularning tashqi qiyofasi ,faoliyatini ham ,ichki olami ,buzuq niyatlarini ham o'quvchi ko'z oldiga

namoyon qiladi. Qasidada nafs yo'lida din-u imonidan kechgan, nima bo'lsa ham boylik orttirishni o'ylaydigan, yolg'on va aldovni hayot qoidasiga aylantirgan odam qiyofasi chizilgan. Qasidaning har bir baytida bitta salbiy xususiyat g'oyat ta'sirchan va mos-muvofiq o'xshatish yoki istiora, mubolag'a bilan ochib beriladi. Ba'zan bitta yomon xislat bir necha bayt orqali tasvir etiladi.

Bu o'rinda yana bir fikrni aytmoqchimiz. Qasidani o'qigan odam dahshatga tushib, bitta odamda shuncha kamchiliklar bo'lishi mumkinmi, deyishi mumkin. Asarni bu tarzda tusunish xato. Bu yerda bitta yoki bir guruh odamlar haqida gap borayotgani yo'q. Navoiy umuman insonlardagi salbiy xulqni odam bolasiga xos nuqsonlarni bo'rttirib bayon etgan, ammo bu bo'rttirish tagida haqiqat yotadi: inson – ulug', insonning aql-u zakovati, himmat – shijoati tahsinga loyiq.

Ammo insonning tubanliklari ham chegarasiz, tubanlashgan odamdan ko'ra tubanroq maxluq yo'q dunyoda. Navoiy Komil inson ideali tarafida turib, ana shu tubanliklar jamul jamini insonga qayg'urib tanqid qiladi. Ha, Navoiy tanqidlari, satirasi insonni yomon ko'rishi, badbinlik natijasi emas, balki insonni yurakdan sevgani, unga qayg'urgani, unga bu tubanliklardan najot toppish yo'lini ko'rsatishga bel bog'laganidir. Shu uchun ham qasidani "Najot yo'li" deb nomlagan.

Shuning uchun u najot yo'lini bayon qilishdan oldin "osiy bandalarninig" gunohlarini xiyla batafsil she'riy tahlildan o'tkazadi, satiric tasvirni qalinlashtirib, qalashtirib boraveradi. Shunday ekan, biz ham shoir fikrlari mag'ziga yanada chuqurroq kirib borib, tag'in bir nechta misollarni ko'zdan kechirishni lozim topdik.

Insonni tubanlikka tortuvchi shaytoniy xususiyatlar uni turli kuylarga soladi, inson o'zining salohiyati, boriniy sobit qadr-qiymatini, sharafini yo'qotadi. Falakning kajraftorligi odamning hiylalari oldida hech narsa bo'lmay qoladi. Atrofdagilarning ko'ziga ulug'vor, vali-yu ulamo bo'lib ko'rinishga intilish, o'zini G'azzoliy va Kattoniyday alloma qilib ko'rsatishga tirishadi. Ammo aslida na qalbdan bir nur, na boshda ilm-u hikmatdan bir nishon bor. Aksincha, fikr-u zikri chiroyli kiyingan zebolar bilan aysh qilish, fahshdan lazzat topishdir. Qorun degan odam rivoyatda aytilishicha, behisob oltin jamlab, xasisligidan uni yashirib

hech kimga foydalanishga bermagan.Oxiri yer yorilib,Qorunni boyligi bilan yutib yuborgan ekan.

Navoiy shu rivoyatni misol keltirib deydi:”Agar senga Qorun xazinasidan boyluk nasib etsa,bu boyluk uchun dunyo mulkini buzib,vayron etishga ham tayyorsan”.

Bunday odamlar qalbida faqat yomonlik , badbinlik urug’I ko’karadi,ulardagi hirs va havo olovidan yuzlab dehqon xirmonlari yonadi.Biroq,qizig’I shuki,bu yo’lda ko’z yoshi to’kasan ,o’zingni ba’zan aftoda ,ojiz-u mazlum qilib ko’rsatasan.Odamning hiyla nayrangni oldida shayton ham ip esholmaydi.Shu o’rinda Navoiy qiziq bir misolni keltiradi:

Farishta,filmasal,dar shakli inson gar shaved zohir,
Namoyad rohi shaytonat,ki jo’yi bahri mehmoni.
Labolab rohi rayhonish dori to kuni mastash,
Sirishta dorii behushy andar rohi rayhoniyy[29,301].

(Agar, masalan ,olaylik,farishta odam suratida paydo bo’lsa,shaytoniy niyating uni mehmon qilish payiga tushadi va unga sen rayhoniyy rang (ko’kish) mayni to’ldirib turqazasan,toki mast bo’lsin deb.Ham rayhoniyy mayingga behush qiladigan dori qo’shib ichirasan).

Qanday ajoyib tasvir,tanish lavha.Qanchadan-qancha farishta tabiat odamlar mana shunaqa fitnachi nayrangbozlar domiga tushmagan deysiz bu dunyo-yu dunda!Ammo odam osmondagi farishtaga ham pand beradi,uni ham aldab domiga tushiradi,maqsadi –farishtadan ham manfaat topish.

Malak emin namonad az tub o in devfe’liho ,
Nametarsi zi qahri ezidi ,emin chi son moni?[29,304]

(Farishta ham hatto sening devfe’lligingda omon qolmaydi,Tangri taolo qahridan qo’rqmaysan , (ammo) o’zing qanday omon qolasan?)deb faryod qiladi shoir.

Odam ichidagi dev bo’sh qo’yilgach,u hech narsadan tap tortmaydi, uning Fir’avn-u Namrud ham oddiy xizmatkorday gap. Navoiyning hajv kuchi ,nafrati oshib ketgach,quyidagi satrlarni bitgan:

Zi bas tori libosan on chunon kismet kuni xudro,

Ki ne doman zo vay fahm gardad, ne girbone.

Chu kirmi qaz ba sad rasvoiyat berun kashand az vay,

Ki ham go'ri tu buda ham kafan az ayni pechoniya[29,307].

(O'zingni shunday libosga o'raysanki, uning na etagi, na yoqasi bilinadi. Xuddi pilla qurtiday seni undan tashqariga tortib oladilar. Shunday o'ranibsanki, go'yo bu libos ham go'ring va ham kafaningdir).

Qimmatbaho matolar bilan oliftalik uchun yasan –tusan qilib kiyinish, beo'xshov, yarashmagan kiyimlarni kiyishni Navoiy mana shunaqa zaharxandali tashbihlar bilan masxaralab tasvirlangan.

Navoiy nazdida bular barisi insonning ma'naviy noqisligi ,g'ofilligi belgilaridir. Biri o'ziga yarashmagan liboslar kiyib kulgu bo'lsa ,boshqasi darvesh jandasini kiyib o'zini shayxizamon qilib ko'rsatmoqchi bo'ladi. Vaholanki, uning “xirqasining qatida yuzta but yashiringan”. Maqsad-ta'magirlik. Yashash uchun Xudoni ham ,bandasini ham aldash ,riyo domini qurib ,murid ovlash. Manmanlik uchun uyning tokchalarini oltin suvi bilan yozilgan Qur'on bilan bezaydi, biroq biror oyatini durust bilmaydi ,osmondagi yulduzlarni ham dur-u gavhar deb yig'ib olishga chog'lanadi. Yana ayanchlisi shuki , ichidagi hasadi po'rtana o'rab , o'ziga yaxsilik qilganga ham ziyon yetkazadi.” Agar seni birov maqtab ko'klarga ko'tarsa , izzat qilsa , -deb yozadi Navoiy , -sen evaziga uni qo'lingdan kelsa yer bilan yakson etasan”.

Shu tariqa, qasidada Arshdan tushgan ana shu ruhoniylar xilqat Insonni komilning Yerdagi g'afolat va noqisliklar domiga tushgani ,o'z asli, mohiyatini unutib ,odamiylik sha'n-u sharafini yerga uruvchi ishlar (xotinbozlik, badmastlik, oliftagarchilik, kasofat va nadomat keltiruvchi qiliqlarni qilish) bilan band bo'lishi mazammal qilinadi. Bularning hammasini Navoiy adashish, jaholat belgisi ,ruhni o'ldirib ,nafsni parvarish etish oqibati deb talqin etadi:

Ajab nabvad , ki ruhat murdau tu zindai nafsi,

Ba joyi fayzi ruhonet budani hazzi nafsoniy[29,282].

(Ajab emaski,sening ruhing o'lib,faqat nafs bilan tiriksan . Ruhoniy fayz halova ti o'rniga nafsoniy lazzatga berilgansan).

Mana bu tashbihga diqqat qiling: “Sagi mardon buvad nafs-u tu az sag siyrati gashta”.(Nafs mard insonlar – valilarning itidir,sen esa bu itni o'z mohiyating-siyratingga aylantiribsan).Shoirning nafsga nafrati shunday qahrli.

Ruhoniy halovatga erishish uchun nafsoniy lazzatdan voz kechmoq kerak .Agar kishi odamiylik rutbasida turaman desa yo'l faqat shu.

Alisher Navoiy ,yuqorida aytganimizday ,biror-bir ijtimoiy guruh ,tabaqa yoki kasb egalarini ajratib olib ,tanqid ostiga olgan emas.Qasida umuman insoniy noqisliklarni oshkor etishga bag'ishlangan va bu noqisliklarni oshkor etishga bag'ishlangan va bu noqisliklar kammi-ko'pmi aksar insonlarda bor.Jamiyatda bu noqisliklardan xoli odamni topish qiyin.

Va,shu nuqtai nazardan Navoiy ham o'zini “noqis bandalar”qatoriga qo'shgani diqqatimizni tortadi:

Xudovando,manam on Bandai zolim ba nafsı xud,

Ki sad chandin, ki guftam oyadam az nafsı zulmoniy.

Agar sad do'zaxi digar bisozy bahri ta'zibam,

Sazovoram va gar ham baxshiyam hastat ba osoniy[29,300].

(Ey Xudovand , o'z nafsı bilan zolim bo'lgan bandalardan biri menman , zolim-u xor etuvchi nafsga giriftorligim aytganlarimdan yuz karra ko'pdir.agar yana yuzta do'zax yaratib azoblasang ham sazovorman.Ammo agar kechirsang ham sen uchun bu osondir).

Ha, Oллоh rahmli, kechirimli.Ammo gunohlari kechirilgan inson komillikka erishadimi?Yo'q u afv etiladi,biroq nuqsi ajzi qoladi.Komillik , demak, avvalo insonning o'ziga bog'liq ,uning o'zi gunohi nuqsini anglab , bularni taek etishi va fazilat-u ruhoniy rushd kasb etishi shart.Mana shunda inson sharafi,ruhoniy sharaf qayta tiklanadi va Komillik martabalari egallab boriladi. Najot yo'li mana shu.

Alisher Navoiy o'zini nafsı zolimga banda bo'lganlar qatoriga qo'shadi.Lekin Navoiy qanday ulug' inson edi,uning umr yo'li savob-u ezguliklar yo'li edi.Uning asarlaridagi ezgu va nurbaxsh g'oyalar , uning minglab odamlarga yetkazgan

muruvvat-u saxovati ,adolat poydorligi uchun qilgan amallari mana asrlarkim, ibrat va namuna bo'lib kelmoqda . U hayotda insoniylik timsoli edi.Biroq shunday inson ham o'zini begunoh, barkamol hisoblamagan , u yana uch narsani urg'ulab , umid qiladiki ,shoyad Parvardigor shu uch narsani inobatga olib , gunohlarini kechirsa. Shoir ta'kid etadi: 1)isyoni noqislik paydo bo'lganda, bu bilan kerilmasdan,bil'aks , tavba qildim, pushaymon bo'ldim; 2) fe'limda qusur yuz berganda ham Rasuli akram (SAV) ga dildan sadoqat ko'rsatib ,hamisha rahmoniy tavfiq bilan komil bo'ldim" va 3) Hazrati Maxdum (Jomiy) xizmatini ado etib turdim.

Hazrat Navoiyning o'zini "zulmoniy nafsga"giriftorlar qatoriga qo'shishi qasidaning umumlashtiruvchilik xususiyatini oshirib ,ta'sirchanligini yana ham kuchli qilishga sabab bo'lgan. Umuman shoirning ushbu qasidani yozishdan maqsadi odamlar qalbini uyg'otish, gumrohlik ,g'ofillikdan ogohlantirish edi.

Buni Navoiy asar oxirida o'zi ta'kidlagan:

Musalsal z-ibtidoi ofarininsh to bad-in soat
Suxan dar yak qasida rondam az ro'y suxandoni
Ba har baytash kitobe darj kardam – sarbasar hikmat,
Ba har yak durj pinhon soxtam sad gavhari kony
Bayoni holi xud z-insof kardam ,v-on gah avsofash,
Buvad ham bahra girad az tavajjuhon vijdoniy.
Chunon bedor kardam ahli olamro az in gulbong,
Ki n-oyad xobashon to hashr az ando'ho' pazmoniy[29,286].

(Odamning yaratilishi ibtidosidan shu damgacha bo'lgan (inson ahvolini) bir silsilasida , bir qasidada suxandonlik bilan bitdim.Har bir baytga boshdan oyoq hikmatdan iborat bir kitob ma'noni joyladim va har bir sandiqcha ichiga yuz gavhar donalarini soldim.Insof yuzasidan o'z holimni ham bayon etdim,chunki har qachon o'quvchi mening fikr-u andishalarimdan boxabar bo'lsin ,vijdoni qo'zg'alsin. Bong urib ,olam ahlini shunday uyg'otdimki , Qiyomatgacha anduh va so'g'inchdan uyqulari kelmagay).

Darhaqiqat, ham shunday .Navoiy qasidalarining har bir bayti bir hikmat ,ularda olam-olam ma'no mujassamlashgan. Shoir betaraf kuzatuvchi

emas, mushohadalari aniq nishonga tegadigan, fikrlari tig'day o'tkir, bir-birini to'ldiradigan va quvvatlantiradigandir. Bu faol va insonparvar tafakkurning inson taqdiriga, uning kirdikorlariga achinishi. Navoiy insonni xuddi o'sha ilk yaratilish xilqatiday pokiza va komil ruhdan begunoh ko'rishni xohlaydi, zaminiy adashishlar, bulg'anishlardan achinadi va bundan qutulish, aslini anglashga da'vat etadi, bong urib faryod chekadi. Insonni sevish, gumanizmning mohiyati Sharqda ana shunday idrok etilgan. Ya'ni Insonning nuqsonlari, tabiiy talpinishlari bilan emas, balki insondagi insoniy mohiyatni sevish va shuni ko'paytirish uchun kurashish.

Navoiyning forsiy qasidalari ham ana shunday qarashni ifodalaydi. Ammo bu qarashlar hamon ahamiyatini yo'qotmagan, hamon inson o'sha kasalga muhtalodir. Navoiyning so'zlari shu bois bu yozilgan yangi asarday jaranglab turibdi. Uning faryodiga biz bugun ham quloq solishimiz, ibrat olib o'zimizni ma'naviy o'nglashimiz darkor.

Alisher Navoiy nuqtai nazaridan mavjudotdagi barcha vujudlarning asosini yagona javhar tashkil qiladi. Borliq negizi esa to'rt unsur va olti jihatdan iboratdir. "Sittai zaruriya" ana o'sha olti jihat ta'sirida tug'ilgan sarlavha hisoblanadi. Zikri o'tgan holat- hodisalarning bunyodkori esa azaliy va abadiy qudrat-Parvardigordir. Shunday gapni odam va uning qismati xususida ham aytish mumkin. Masalaning o'shanday nozik tomonlarini inobatga olgani sababli ulug' shoirning barcha asarlari to'g'risini (bezagi, bayrog'i) Olloh madhi tashkil qiladi. Ayni fazilat "Sittai zaruriya" va "Fusuli arbaa"ni ham chetlab o'tgan emas. Ikki yuz oltmish to'rt satrdan tarkib topuvchi "Ruh ul-quds" to'lasincha o'sha muqaddas mavzuga bag'ishlanganligi bilan ahamiyatlidir. Misralar mutolaasidan ayonlashadiki, muallif komil iymon-u insof bilan ikki olam Podshohiga sidq-u sadoqatini ifodalashga muyassar bo'lgan. Qasida janri tabiati nuqul maqtovnigina yoqtiradi va shoirlar ham unga amal qiladilar, deyish to'g'ri bo'lmas edi. Ushbu janr uchun vasf ustivor omil, biroq shu bilan birga falsafiy mushohada maydoni ham tor emas. Xususan, muayyan tarixiy shaxs ta'rifiga atalmagan qasidada bundau imkoniyat yanada kengayadi. Shunday fazilat "Ruhul –quds" da ravshan ko'zga tashlanadi. Alisher Navoiy Alloh

madhi bahonasida zamonasining o'zi shohida bo'lgan juda yirik dolzarb mavzularga daxl qiladi. Quvonch-u izzatini misralar mag'ziga sindirishga erishadi. Natijada qasida salmoqli umumlashma asar maqomiga ko'tarilgan. Uning muallifi esa tafakkur doirasi keng, mushohadalari teran, xulosalari umumbashariy yirik ma'naviy- ma'rifiy arbob qiyofasida ko'zga tashlanadi. Shunday zalvorli fikrlash tarzi "Qasidai "Aynul hayot" dar nati rasuli alayhas salovot" asarida ham ko'zga tashlanadi. Mazkur ikkinchi qasida sarlavhasida aks etganidek, sarvari koinot, mursal payg'ambarning na'ti- ta'rif-u tavsifiga bag'ishlanadi. Aytish joiz, Alisher Navoiy Olloh va uning rasuli Muhammad Mustafo haqida juda ko'p yozgan. Ammo zinhor o'z-o'zini takrorlamagan o'sha asarlar bilan tanishish ko'rsatadiki, ulug' shoir ilohiyot va islom tarixidan mukammal xabardor, nabi-yu rasullar haqidagi manbalarni pishiq biladi. Rasuli arabiga doir har bir ishoraga kaftida tutib turganday munosabat bildiradi. Ma'naviy- ma'rifiy zamin mustahkam bo'lgani tufayli misralar quyilib keladi. Shunday gapni o'sha she'riy qatorlar tarkibida saf tortib turgan tarixiy, islomiy, sha'riy diniy, nujumiy, tibbiy, afsonaviy, dalil- ulavhalarning tabiiy tarzda jildirab oqqanday quymaligi haqida ham aytgimiz keladi. Shunday fazilatni quyidagi birgina baytda ham ko'rish mumkin.

Az ahodisat sahiyuiro ravot andar raqam,

Bo rubob az haddi Batxo to Buxoro afgonad [29,256].

Alisher Navoiy misralari kitobxonga boy ma'naviy ozuqa beradi. Jumladan, shu ikki qatorning mazmuni to'g'ri ochilsa, qancha axborot olish mumkin bo'ladi bu o'rinda Imom ibn Ismoil Buxoriy va uning "Sahihi Buxoriy" asari haqida ishora ketadi. Nozik bir shama' bilan shu ulug' muhaddisning Buxoro farzandi ekanligi ta'kidlanmoqda. Manbalarning shahodatiga binoan Imom Buxoriy 16 yildan ko'proq Makka-yu Madinada o'tkazib, Rasuli akramning olti yuz mingga yaqin hadislarini yig'ish bilan shug'ullangan. To'plangan katta miqdordagi ibratli lavha-yu hikmatlarni qiyosiy o'raginish natijasida esa ulardan atigi sakkiz mingga yaqinagina sahih eng to'g'ri va janobi rasuli akramga tegishli topilgan. Islom dunyosi uchun bu nihoyatda katta sharafli ish hisoblanadi. Imom Buxoriy hazratlari shunday ulug'

ilmiy-ma'naviy martaba bilan qaytib keladilar. Ammo yurtdagi nobakorlar ul zoti mukarramni ranjitib qo'yishadi...

“Sittai zaruriya” tarkibidagi uchinchi qasida “Tuhfatul afkor” bo'lib, Amir Xusrav Dehlaviyning “Daryoi abror”, Nuriddin Abdurahmon Jomiyning “Lujjatul asror” asarlari ta'sirida dunyoga kelgan. Alisher Navoiy “Xamsatul – mutaxayyirin” asarida mazkur qasidaning yaratilishi tarixiga doir qiziqarli lavhalar keltiriladi. Xuroson davlatining vaziri lavozimida faoliyat ko'rsatayotgan ulug' shoir Marvga qilishi lozim bo'lgan rasmiy safari oldidan Maxdumi Nuran ziyoratiga kiradi. Suhbat jarayonida A. Jomiy “Lujjatul – asror” qasidasini Alisher Navoiyga beradi. Ulug' o'zbek shoirining o'z taklifi bilan Amir Xusrav Dehlaviy “Daryoi abror”ga javobiya tarzida yozilgan bu qasida unga favqulodda ta'sir etadi va shu tabarruk dargohga ushbu she'rga tatabbu' qilish niyati tug'iladi. Alqissa, Hirot – Marv safari davomida, ot ustida to'qson to'qqiz baytdan iborat shoh qasida “Tuhfatul-afkor” dunyoga keladi. Asar chindan ham jo'shqin ilhom, ulkan ehtiros va zavqning mahsulidir. Uning o'ynoqi misralarini ulug' shoir qulog'iga Ruhul amin farishta Jabrail aytib turganday tuyuladi bizga. Mulohazalarimiz muallaq qolmasin uchun o'sha dilbar qasidaning shoh baytlaridan birini nazardan o'tkazaylik:

Bo dahoni xushku chashmi tar qanoat kun az on-k,

Har ki qone' shud ba xushku tar, shahi bahru bar ast[29,309].

Mazkur misralar mamlakat podshosiga murojaat yo'sinida yozilgan. Podshosi qanoat va qone'likni turmush tarziga aylantirgan yurt gul-gul yahnaydi. Ammo hayot hamisha ham guk tutmaydi. Gulni suyuvchi qalb uning tikani zahriga dosh bemog'I zarur. Shohlik faqat ishrat emas, saltanat o'z-o'zicha turmaydi va shukuh paydo qilmaydi. Uning zarbalari, yuttirishlari, iztirob-u tashvishlari borki, sabr-u qanoat bilan bartaraf eta olgan shohgina Olloh inoyatiga muyassar va katta sarhaddagi mamlakatning sohibidir. Qone' va qanoatlilik faqat podshohningina emas, barchaning ham kunlik fazilatiga aylangan yurt nurafshondir.

“Sittai zaruriya” bag'rida kelgan to'rtinchi asar “Qut ul qulub” qasidasi bo'lib, shu haqda ozroq mulohaza yuritish bilan cheklanamiz. Ikki yuz qirq misradan iborat

manzuma Hakim Anvariyning shu yo'nalishdagi falsafiy irfoni qasidasi tavridda-tatabbu'ida yaratilgan. Tavr-tatabbu' Alisher Navoiyning o'z e'tirofidir. Biroq bunday qaydlar ulug' o'zbek shoiri qalamidan kelib chiqqan asarlarning ijodiyligiga ta'sir ko'rsata olmaydi. "Qut ul qulub" tagdor ishoralarga, ko'p ma'noli tashbeh-u majozlarga, teran tafakkurga undovchi iborayu istilohlarga boyligi bilan diqqatni jalb qiladi.

Ana shunday badiiyat zamirida yashirin g'oyaviy niyatni "fan ova baqo o'rtasidagi masofa, oily xilqat – insonning unga munosabati" tarzida umumlashtirish mumkin. Dunyoga kelish, tug'ilish haq, tabiiy – ilohiy qonuniyat ekan, unga vido aytish, fano qa'riga singib, yo'q bo'lib ketish, o'lish ham muqarrardir. Baqo – mangulik inson peshonasiga bitilmagan. Qur'oni karimdagi xabarga qaraganda, Luqmoni Hakim ming yil, Nuh alayhissalom ham shunga yaqin umr ko'rishgan. Biroq ularga ham dunyoning ustuni bo'lib yashash nasib etmagan. Rivoyat qiladilar zulmat tubida pinhon obi hayot – mangulik suvini Iskandari Maqduni va Xizr alayhissalom birga izlashgan. Iskandar qolib Xizr payg'ambarga o'sha majozii obi hayot nasib bo'lgani uchun ham ul zoti bobarakot ezgulik tug'I ostida yaxshilik urug'ini sochishda davom etayotgan ekanlar. Alisher Navoiy bunday hikmat-u rivoyat, hikoyat-u haqiqatlardan ko'pini bilgan. O'shalardan qaysigadir ixlos bilan qaragan, ishongan ba'zilarini shubha ostiga olib, inkor qilgan. Shunday bo'lsa kerak qasidaning butun matnini bosiq, sokin va o'ychan kayfiyat egallab olgan. Uning har bir so'zidan falsafiy mushohada, ogohlikka da'vat ruhi anqiydi. Ulug' shoir insonga qarata urg'u ila yozadi:

Jahonki marhalan tangi shohrohi fanost,

Dar o' majo'y iqomat, ki rohi shohu gadost[29,257].

Ushbu misralarni quyidagicha o'zbekchalashtirish mumkin: Dunyo ayvoni inson uchun muqim manzil emas- o'tkinchi. U fanoga olib boruvchi shoh ko'chadagi muvaqqat bekatini eslatadi. Bekat esa hamisha omonatdir. Unda uzoq turish niyatida bo'lganlar qattiq yanglishadilar. Negaki, shoh yo'l chetidagi bekat tavofutni bilmaydi. U shohni ham gadoni ham bir xil qabul qilib, kuzatishga mo'ljallangandir. Dunyo ayvoni- harakatdagi karvon. Bo'ynida qo'ng'irog'I bor

nortuyalar hamisha safarda. Daftari a'molidagi sehrli bitikka ko'ra navbatma –navbat fanodan baqo oldiga ketish davom etadi. Alisher Navoiyning bunday qarahlaridan noto'g'ri xulosaga kelish yaramaydi, albatta Qasida muallifi mo'min musulmonlarni uzlatga , o'lishdan burub o'limga ham undayotgani yo'q. Ul zoti mukarram ikki jihatdan bunday g'oyani olg'a surolmas edi. Birinchidan, Ollah marhamati bilan Odam Ato zurriyotlari uchun taqdir qilingan ne'matlardan butkul yuz o'girib , go'shaga kirish islomiy e'tiqod ahkomlariga rost kelmaydiki, ulug' shoirning unga xayrxohlik qilishi mumkin emas edi. Ikkinchidan, Alisher Navoiy Naqshbandiya tariqatiga mansub bo'la turib , shu ta'limotning “Dil ba yoru dast ba kor” kabi solikni o'z luqmai halolini tanti qo'l bilan topishga chorlovchi hayotsevarlik g'oyalarini inkor qilolmasdi, albatta.”Qut ul qulub” keying satlariningmutolaasi muallifning tayanch g'oyaviy niyatini oydinlshtirib olish imkoniyatini hozirlaydi. O'sha badiiy tasviriy vosita yordamida fan ova baqoning qirralari juda ko'p hayotiy lavhalar , tabiiy , tarixiy, ilohiy, afsonaviy istiloh-u dalillarni keltirish yuzlashtirish orqali ochib boriladi.

Nahang agarchi buvad qahramoni kishvari bahr,

Ba kirmi obie az xud fuzun hamesha g'izost[29,257].

Nahang dengiz va okeanninga eng katta hayvoni va u o'zini o'sha makonning egasi , yagona sohibi hisoblaydi. Atrofida o'rmalashib yuruvchi ko'p sonli suv qurtchalarini nazar – pisand ham qilmaydi. Ammo vaqt-u saodati yetib , u ana shu qurtchalarning yemiga aylanishini xayoliga ham keltirmaydi. Tashbeh uchun nahangning tanlanishi tasodifiy emas. Shunday urinish negizida katta hikmat, ibrat bor. Xuddi shunday gapni suv qurtiga nisbatan aytish o'rinlidir. Fano olamida hamma narsaning sarhad-u o'lchovi bor. Bu hukm jismoniy, ruhiy, ma'naviy, moddiy ne'matlarning barchasi uchun tegishlidir. Pahlavonlikning ojizlik, yoshlikning qarilik, zebolikning xunuklik, boylikning qashshoqlik bilan almashinishi muqarrardir. Afsuski, hamma narsani g'alamislik yutuvchi bu maxluq ertaga yutilish navbati bilan o'ziga yetishini unutib qo'yadi. Keyingi baytda ganj va ajdaho timsollariga duch kelamiz. Og'zaki va yozma badiiy adabiyot namunalarida bular hamisha yonma-yon keladi. Xazina bor joyda albatta, ajdaho paydo bo'ladi. Bu

maxluq xazinadagi javohirotni yutmaydi, ammo bahra oladi. Biroq tirik ekan, uni birovga ravo ko'rmaydi. Ulug' shoir esa unga doir hukmini e'lon qiladi: Hirs ham fano. Xazina siljiydi, ajdaholar esa kelib –ketishda davom etadi. Muddao – dahshatli maxluqlar qismatini yoritish emas. Ulug' shoirning nigohu nidosi insonga uni nafsu hirs domidan qutqarish, g'aflat uyqusidan bedor qilishga qaratilgandir.

Suxan mago' zi anqo, ki har ki qone' shud,

Farovi Qofi qanoat bidon ki ankost. [29,259]

Qo'hi Qof, unga anqo urug'ini bo'lishi haqidagi rivoyat qadimiy. Ulug' shoir esa o'sha sayyor va an'anaviy rivoyatga yangi niyat bilan murojaat qilgan. O'zi yo'q anqoni izlashdan murod hosil bo'lmaydi. Undan qanoatga zo'r berish ma'qul. Nahang-u ajdahoning fojiasidan xulosa qilmoq va hirs o'p'qoniga tushmaslikka intilmoq insonni Qo'hi Qofdan ham yuksakroqqa ko'tarib qo'yadi. Insonning yashashi uchun moddiy omillar juda zarur. Uni inkor qilish hayotni tan olmaslik bilan barobardir. Biroq ma'naviy- ma'rifiy omillarsiz ham inson hayoti qashshoqlashib qolmaydimi? Fikrimizcha, Alisher Navoiyning qalbi va tafakkuridan-da shunday savollar tez-tez o'tib turganligi tufayli o'sha bezovtalik ruhi uning barcha nazmi-yu nasriy asarlariga ko'chgan. Shu jihatdan "Sittai zaruriya"ning xotimaviy qasidasi "Nasim ul-qayd"dagi mana bu misralar e'tiborni tortadi:

Chunki gulshan naboshad g'ayri bog'I ma'rifat ey dil,

Ki kard orosta az bahri komil sun'I yazdonash.

Chi komil on ki az ta'limhoi in muallim yoft,

Sharaf vayronai zohir zaxoir ganji pinhonash [29,266].

Dil yayraydigan, zavq-u shavqqa to'ladigan notakror gulshan –bog'-ma'rifat bog'idir. Unda hamma uchun birday yo'l yo'q. Yazdon u bog'ni komil insonlar go'shasi sifatida zeb-u oro berib qo'ygan. Alisher Navoiy talqinicha haqiqiy komillik, donishmandlik ilohiy ma'rifat orqaligina shakllanishi mumkin. Shu g'oya ulug' shoirning barcha asarlarida ko'rinib qoladi. "Sittai zaruriya"da hukmron mavzu darajasiga ko'tariladi. Islom ruknlari, shar'iy talablar go'zal badiiy libosda yuksak shoirona ifodasini topadi. Bunday notakror saboqlarning muallifi notakrordir. U-

Olooh . Qasidalar turkumida , jumladan , ko'chirganimiz iqtibosda ham komil insonning tashqi va ichki olami muvozanatiga alohida e'tibor beriladi. Zohir-dabdabadan xoli , ammo axloqiy qiyofa –sharafli. Yuzadagi sokinlik – botindagi ma'rifiy zahira tufayli . Zero, u-pinhon.Komillik – sokinlik, har damda xush bilan qadamni nazarda turmoqlikdir. Shunday saodatga muyassar fuqarolari bor yurtning istiqbolida buyuklik nuri porlaydi.

Xulosa

1. Navoiy dostonlaridagi birinchi boblarda va barcha “hamdiya g`azallari”da bo`lganiday, ushbu qasidada ham tavhid mohiyati tasavvufning vahdatul vujud ta`limoti asosida talqin etiladi. Ya`ni olam yakka-yagona Parvardigor qudrati bilan yaratilgan va ana shu Ruhi mutlaqning tajallisi tufayli mavjudlik topadi, u uzluksiz harakat va faoliyatdadir.

“Ruhul quds” qasidasida ushbu beintiho Qudratning nimalarda ko`rinishi, Uni idrok etish, anglash, qat`iy ishonch hosil qilish(iymon) masalasi yoritilgan. Shu ilohiy qudrat tufayli yer-u osmon, oy-u quyosh bir muntazamlikda harakat qiladi.

2. “Aynul hayot” qasidasi “Ruhul quds” qasidasining davomiday yangraydi. “Ruhul quds”dagi vahdatul vujud g`oyasi, koinotni keng olib tasvirlash bunda ham mavjud. Faqat bunda sayyora va yulduzlarning xossalarini qo`shib tasvirlash, yerdagi va insonlarga tanqidiy munosabat alohidalik kasb etgan. Navoiy Komil inson Muhammad rasululloh(SAV)ni otashin muhabbat bilan alqaydi, shoirning Xudoga bo`lgan muhabbati Payg`ambarga bo`lgan muhabbatida davom etadi. So`fiyona tuyg`ular, qarashlar nabi na`tining ichiga singdirilib, shu nigoh mavqeidan “gunohkor” Yer bandalarining nojoiz xulq-u atvori tanqid qilingan.

Qasida shu uchun ham o`quvchiga kuchli ta`sir etadi.

3.“Tuhfatul afkor”da mansab va mansabdor shaxslar axloqi bilan darvesh va tariqat ahli axloqi qiyoslangan va faqr ma`naviy yetuklikning oily namunasi deb ta`riflangan.

4.Shunga ko`ra, shohlik va faqirlik orasida katta jarlik borligi aytilib, faqir darvesh shoh hashamatidan ustun qo`yilgan.

5.Ya`ni Ma`naviyat Saltanatdan baland, bu ikkisi orasida doimiy kurash boradi, ammo saltanat ahli har qancha intilgani bilan faqr ahli darajasiga yetolmaydi.

6.Agar shoh faqr martabasini orzu etsa, unda saltanat orzusidan voz kechsin.

7.Faqr ahli bilan mehnat ahli (kosi, dehqon) ranj-u zahmati va axloqi orasida yaqinlik borligi qayd etilgan. Bu Navoiyning muhim fikrlaridan biri.

8.Qasida badiiy jihatdan g`oyat yuksak badiiy saviyada yozilgan, unda ikki jihat yaqqol ajralib ko`zga tashlanadi: biri—har bir baytni tamsil san`ati bilan qurollantirib, (ikkinchi misrada) fikrni oydinlashtirish bo`lsa, ikkinchisi—ko`plab so`z o`yinlari, muammo san`atidan foydalanish mumkin. Bunda, ayniqsa, arab yozuvi xususiyatlaridan foydalangan, qaysikim tahlil davomida bir nechtasini ko`rib o`tdik.“Tuhfatul afkor” qasidasi A.Navoiyning shoh asarlaridan biri bo`lib, unda abadul-abad ahamiyatini yo`qotmaydigan, hamisha dolzarb g`oyalar ifoda etilgan.

8.“Sittai zaruriya” qasidalar turkumi darveshlik va faqr g`oyalarini tarannum etish, insonni sharaflash, ilohiylashtirishning yo`li tariqat ekanini ko`rsatish bilan yakun topadi.

Bu ulug mutafakkir Navoiyning e`tiqodi, hislari, shuurini qamrab olgan muqaddas g`oyalarining ifodasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Каримов И.А. Оллоҳ қалбимизда, юрагимизда.-Тошкент, Ўзбекистон, - 1997, 32 б.
2. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари.-Тошкент: Ўзбекистон, 1997, 326 б.
3. Каримов И.А. Улуғлари эъзозланган юрт заволи кўрмагай// Халқ сўзи, 2001, 25 август.
4. Алишер Навоийнинг адабий маҳорати масалалари (мақолалар тўплами)-Тошкент: Фан; 1993. 208 б.
5. Адабий мерос. Ҳужжат ва тадқиқотлар. Тошкент: Фан, 1968, 300 б.
6. Асма-и хусна. –Тошкент: Камалак, 1991, 40 б.
Тошкент: Фан, 1992, 247 б.
7. Азизиддин Насафий. Зубдат ул-хақойиқ.-Тошкент: Камалак, 1996, 47 бет.
8. Анисий А. Шарқ адабиётида қасида жанри ва Бадри Чочий // Ўзбек тили ва адабиёти, - 1970, 4-сон, 22-27-бетлар.
9. Болтаев М.Н. Имом Ғаззолийнинг ирфоний таълимоти // Бухоро университети илмий ахборотлари. - Бухоро давлат университети, 2002, №2, 2-7-бетлар.

10. Бекова Н. Алишер Навоий шеъриятида ҳамд поэтикаси. -Тошкент: Фан, 2007, 192 б.
11. Бекова Н. Навоиёна хассослик. -Тошкент: Фан, 2008, 102 б.
12. Воҳидов Р. Алишер Навоийнинг ижод мактаби. -Бухоро: Бухоро, 1994, 187 б.
13. Воҳидов Р. Алишер Навоий ва илоҳиёт. -Бухоро: Бухоро нашриёти, 1994, 208 б.
14. Воҳидов Р. "Ситтаи зарурияда татаббуъ". // Бухоро университети илмий ахборотлари. 2001, №1, 10-18-бетлар.
15. Воҳидов Р., Неъматов Ҳ., Маҳмудов М. Сўз бағридаги маърифат. -Тошкент: Ёзувчи, 2001, 144 б.
16. Дехлави Амир Хусрав. Осори мунтахаб. Дар чаҳор хилд. Жилди чаҳорум. -Душанбе: Ирфон, 1975, 896 с.
17. Жомӣ А. Осор. Дар 8 жилд. Жилди I. - Душанбе: Адиб, 1986, 559 с.
18. Жомӣ А., Осор. Дар 8 жилд. Жилди II. -Душанбе: Адиб, 1987, 288 с.
19. Ислом ақоидига доир жавоҳир сўзлар. –Тошкент : Мовароуннаҳр, 2002, 118 б.
20. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. -Тошкент: Фан, 1983, 167 с.
21. Исҳоқов Ё. Навоий лирикасида руҳий тасвир ва таҳлил. // "Ўзбек тили ва адабиёти", 1991, 4-сон, 15-20-б.
22. Кароматов Ҳ. Қуръон ва ўзбек адабиёти. -Тошкент: Фан, 1993, 95 б.
23. Кароматов Ҳ. Ўзбек адабиётида Қуръон мавзулари (адабий-тарихий таҳлил): филол.фан.д-ри дис. автореф. -Тошкент, 1993, 50 б.
24. Комилов Н. Тасаввуф. I китоб. -Тошкент: Ёзувчи, 1996, 272б.

25. Комилов Н. Тасаввуф. II китоб. -Тошкент: "Адабиёт ва санъат" ҳамда "Ўзбекистон", 1999. 204 б.
26. Комилов Н. Фақр нури порлаган қалб. -Тошкент: Маънавият, 2001. 94 б.
27. Комилов Н. Ҳар байти ҳикматли бир китоб// Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2001, 9 февраль.
28. Мирзоев А. Девони Фонийнинг ғоявий хусусиятлари// IX конференция. -Тошкент, 1965.
29. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик.
20-том. Девони Фоний. -Тошкент: Фан, 2002, 550 б.
30. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 17-том. -Тошкент: Фан, 2001,
31. Навоий Алишер. Рух ул-қудс. Сўзбоши, насрий баён, изоҳ ва луғат билан нашрга тайёрловчилар проф. Р.Воҳидов, тадқиқотчи Н.Бекова. -Тошкент: Ўзбекистон, 2002, 35 б.
32. Навоий асарлари луғати. Тузувчилар: П.Шамсиев, С.Иброҳимов. - Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972, 784 б.
33. Рафиддинов С. Мажоз ва ҳақиқат (Атойининг поэтик маҳорати). -Тошкент: Фан, 1995, 154 б.
34. Рустамов А. Шоирнинг биринчи ғазали.//Шарқ юлдузи, 1987, № 3, 175-179-б.
35. Сирожиддинов Ш. Навоий ғазалларида Оллоҳ мадҳи.// Имом ал-Бухорий сабоқлари. 2001. № 1. 51-55-б.
36. Тарозий Шайх Аҳмад Ибн Худойдод. Фунун ул-балоға. Нашрга тайёрловчи А.Ҳайитметов. -Тошкент: Хазина, 1996,
37. Фарҳанги забони тожикӣ. Жилди I. -Москва: Советская энциклопедия, 1969, 862 с.

38. Фарҳанги забони тожикӣ. Жилди II. -Москва: Советская энциклопедия, 1968, 867 с.
39. Фитрат А. Адабиёт қоидалари. -Тошкент: Ўқитувчи, 1995, 110 б.
40. Фонӣ Амир Алишер. Девони Форси (мунтахаб). -Душанбе: Ирфон, 1993, 320 б.
41. Хоразмий Ҳофиз. Девон. -Тошкент: Ўзбекистон, 1981, 303 б.
42. Шайхзода М. Асарлар. 6 томлик. IV том. -Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972, 372 б.
43. Шодиев Э. Алишер Навоӣ ва форс-тожик адиблари. -Тошкент: Ўқитувчи, 1989, 112 б.
44. Шамс Қайс Розий. Ал-мўъжам. -Душанбе: Адиб, 1991, 464 с.
45. Шомуҳаммаедов Ш. Форс-тожик адабиёти классиклари ижодида гуманизм. -Тошкент: Фан, 1968, 431 б.
46. Шомуҳаммаедов А. Ҳамкорлик самаралари. -Тошкент: Фан, 1982, 56 б.
47. Шукуров Ш. Навоӣнинг "Тухфат ул-афкор" қасидаси ва унинг адабий традиция билан боғлиқлиги тўғрисида// Навоӣ ва адабий таъсир масалалари (мақолалар тўплами). -Тошкент, 1968, 191-210-б.
48. Эркинов С. "Тухфат ул-афкор" қасидаси матни, нашрлари //Ўзбек тили ва адабиёти, 2001, 4-сон, 21-27-б.
49. Эшонқулов Ҳ. Алишер Навоӣ шеъроятида самовий тимсоллар // Филол.фан.ном.дис... автореф. Самарқанд, 1999, 25 б.
50. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг.-Тошкент:Фан, 1971, 964 б
51. Қодиров А. Ажойиб астрономик ҳодисалар. -Тошкент: Фан, 1981, 38 б.
52. Қодирова М. Алишер Фоний қасидалари// Филол. фан.ном...дис. - Тошкент, 1969, 240 б.

53. Қосимов М. Илоҳий саналар//Тафаккур, 1998, 1-сон, 84-87-б.
54. Қуръони карим (таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур). -Тошкент: Чўлпон, 1992. 672 б.
55. Қуръони карим сўзларининг арабча-ўзбекча кўрсаткичли луғати. -Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1971. 277 б.
56. Ғазолий Зайниддин Муҳаммад. Кимиёи саодат. -Тошкент: "Камалак", 1995, 80 б.
57. Ғаниева С., Неъматов Ҳ. "Ҳилолия" қасидаси// Санъат, 1991, 11-сон. 8-б.
58. Ғаниева С., Неъматов Ҳ. Навоий ғазалиётида тасаввуф оҳанглари// Алишер Навоийнинг адабий маҳорати масалалари. -Тошкент, 1981, 176-179-б.
59. Ғаффорова Зиёда. Навоийнинг ҳамд ва наът ғазаллари. - Тошкент: Маънавият, 2001, 62 б.

Интернет сайтлари

www.aspirantspb.ru

www.internauka.org

<http://sibac.info>

www.rgsu.net/science/magazine

www.nppir.ru/journal/publication

www.russianedu.ru

[Русский язык в научном освещении \(ВАК-журнал\)](#)

www.ruslang.ru/agens.php?id=rjano

www.riash.ru

www.schoolpress.ru/products/magazines/index.php?SECTION_ID=46

www.ruslang.ru/agens.php?id=rr

www.odysseus.msk.ru/

http://infoculture.rsl.ru/NIKLib/home/resr/r_resr-jok.htm

www.nlobooks.ru/rus/magazines/nlo/

[:http://religio.rags.ru/journal/](http://religio.rags.ru/journal/)

www.rags.ru/node/2268/